

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O`zbek filologiyasi kafedrası

Til tarixi

MA'RUZA MATNI

fanidan

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar soha
Ta`lim sohasi:	120000 - Gumanitar fanlar
Ta`lim yo`nalishi:	5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)

Тузувчи: ф.ф.н. Саидов Ё.

Buxoro – 2014

1.KIRISH. Adabiy til umumhalq tilining oliy shakli

Reja

- 1. «O`zbek adabiy tili tarixi» til tarixi fanlaridan biri sifatida.*
- 2. Adabiy til tarixi va uning manbalari.*
- 3. Adabiy tilning shakllanishida uslublar taraqqiyoti.*
- 4. Adabiy tilning shakllanishida uslublar taraqqiyoti.*
- 5. O`zbek tilining boshqa turkiy tillar o`rtasida tutgan o`rni.*
- 6. O`zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til, qadimgi yozuvlar.*
- 7. O`zbek adabiy tili va eski turkiy til, yozuv yodgorliklari.*

O`zbek adabiy tili tarixi o`zbek tilshunosligi doirasiga kiradigan ixtisosiy fanlardan biridir. Ma`lumki, o`zbek tili tarixi uch mustaqil predmetni o`z ichiga oladi. Bular - «Qadimgi turkiy til», «O`zbek adabiy tili tarixi» va «O`zbek tilining tarixiy grammatikasi» predmetlaridir. Bu uchala predmet ichki xususiyatlari bilan bir-biriga bog`lik bo`lishiga karamasdan, tekshirish ob`ektlarini o`rganish usullari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

«Qadimgi turkiy til» kursida barcha turkiy qavmlar uchun mushtarak sanalgan turk runiy yozma yodgorliklari, ularning fonetik, leksik va morfologik va sintaktik xususiyatlarini o`rganiladi.

«O`zbek tilining tarixiy grammatika»si tilning fonetik sistemasi taraqqiyotini, grammatik strukturasining rivojlanishini o`rganish bilan qiziqadi. Lekin til hodisalarining ijtimoiy hodisalar bilan munosabati, stillar taraqqiyoti va uning turli ko`rinishlari, tilning normasi kabi masalalar uning tekshirish doirasidan chetda qoladi. Bularni esa «O`zbek adabiy tili tarixi» predmeti tekshiradi.

«O`zbek adabiy tili tarixi» kursi til taraqqiyotini xalq tarixi bilan

bog`liqlik holda yoritib beradi. Adabiy til stilida yuz beradigan barcha o`zgarishlar u yoki bu darajada xalqning moddiy va ma`naviy hayotida yuz beradigan o`zgarishlar bilan bog`liqdir.

Ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi, sinflarning paydo bo`lishi, davlatlarning kelib chiqishi, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi ijtimoiy-tarixiy omillar til taraqqiyotiga ta`sir ko`rsatadi. Bu har bir omil o`zbek adabiy o`zbek adabiy tilida o`z aksini topishi bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular badiiy tasvir vositalari taraqqiyotiga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Til tarixini o`rganish hozirgi zamon o`zbek tilini tarixiy tushunish, ya`ni bu tilning uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab tarixiy jarayonlarning tarixiy samarasi ekanini keng tushunish imkonini tug`diradi. O`zbek tili, uning adabiy formasi uzoq davr va asrlarning tarixiy mahsulidir. U tarixda ma`lum bo`lgan boshqa tillar kabi urug` tilidan qabila, qabila tilidan xalq va xalq tilidan milliy tilga qarab taraqqiy etdi. Uzoq asrlar davom etgan bu jarayonda o`tmish asrlardagi til hodisalari keyingi davrlardagi til hodisalaridan farqlanib qoldi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot talablariga javob berolmagan til hodisalari asta-sekin umumtil aloqasidan chiqib ketdi. Ularning o`mini zamon talabi bilan yuzaga kelgan yangi til hodisalari egalladi. SHuning natijasida yuqorida aytilgandek, hozirgi zamon o`zbek tili o`zining o`tmishidan uzoqlashib ketdi. Bu holatni yozuv yodgorliklarida aks etgan hodisalar bilan qiyoslashda yaqqol ko`rish mumkin.

Ma`lumki, tilning struktura elementlari uzoq o`tgan davr ichida bir xilda o`zgarib kelmadi. Ijtimoiy-tarixiy tarakqiyot dastavval tilning leksikasiga o`z ta`sirini o`tkazadi. SHuning uchun tilning boshqa struktura elementlariga ko`ra tilning lug`at sostavi o`zgaruvchan bo`ladi.

Tilning lug`at sostaviga qaraganda uning grammatik kurilishi sekinlik bilan o`zgargan. Tilning fonetik sistemasi fammatik strukturasiga nisbatan yana sekinlik bilan o`zgaradi.

O`zbek adabiy tili tarixining ob`ekti matn va adabiy til hisoblanadi.

Adabiy til tarixining eng muhim vazifalaridan biri buyuk so`z ustalari

tomonidan rivojlantirilgan umumxalq tilining qayta ishlanish xususiyati va rolini aniqlashdir.

O`zbek adabiy tili tarixi bir qator fanlar bilan bog`liq ravishda o`rganiladi va ular bilan uzviy bog`lanadi. Birinchi navbatda, o`zbek tilshunosligi doirasiga kiradigan fanlar bilan uzviy bog`lanadi. «O`zbek adabiy tili tarixi», «O`zbek tilining tarixiy grammatikasi», «O`zbek dialektologiyasi»ning bergan ilmiy xulosalariga suyanadi. Ayni zamonda hozirgi o`zbek adabiy tili kursiga ilmiy zamin hozirlaydi. 2-navbatda «Adabiyot tarixi» fani bilan bog`lanadi, chunki ulkan va boy madaniy yodgorliklarimiz shu davr tilini tashuvchi manba xisoblanadi. 3-navbatda «O`zbekiston tarixi» fani bilan munosabatda bo`ladi, chunki adabiyot va til tarixini xalq tarixisiz tasavvur qilish mumkin emas.

O`zbek adabiy tili tarixining asosiy manbalariga yozma obidalar - badiiy, ilmiy asarlarning mantlari, sheva materiallari, joy nomlari, kishi ismlari, hozirgi o`zbek adabiy tili materiallari, tarixiy lingvistik lug`atlar, turkshunoslikka oid o`zbek, rus va xorijiy olimlarning tadqiqot va qo`llanmalari kiradi.

ADABIY TIL VA UNING SHAKLLARI

Adabiy til deb leksik sostavi barqaror, fonetik va grammatik qurilishi silliqlashgan umumxalq tilining oliy formasiga aytiladi. Adabiy tilning yuzaga kelishi shu tilning xalq va milliy til bosqichlari bilan bog`likdir. Ma`lum bo`ladiki, adabiy til xalq yoki maishiy til zaminida yaratiladi. Shuning uchun ham o`zbek adabiy tilining shakllanishini XIII asr oxiri va XIV asr boshlari bilan, eski turkiy adabiy tilning (qoraxoniylar davlati adabiy tili) shakllanishini XI – XIII asrlar bilan bog`laydilar.

Adabiy til asosiy e`tibori bilan umumxalq tilidir, lekin u so`z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangandir.

Adabiy tilning yozma va og`zaki formalari bor. Ma`lumki, yozuvsiz adabiy til bo`lishi mumkin emas. O`zbek adabiy tilining shakllanishi va silliqqlanishi O`rta Osiyoda yozuvning paydo bo`lishi bilan yozuvdan oldingi xalq og`zaki poetik ijodini og`zaki adabiy tilning ko`rinishi deb qarash mumkin. Demak adabiy tilning

og`zaki formasi yozma adabiy tilning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bu esa so`z adabiy til yozuvdan oldin yuzaga keldi degan xulosani bermaydi. YOzma adabiy til og`zaki adabiy tilning ma`lum normada saqlanib turishi uchun xizmat qiladi, chunki adabiy til yozuv bilan shakllangandagina o`zining normalariga qat`iy ega bo`ladi. Adabiy tilning normalashtirilgan til deyilishining boisi ham shundadir. Adabiy til dialekt va jargonlardan o`zining normaga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til uslubda, so`z qo`llashda, morfologik va sintaktik modellarga rioya qilishda har bir tilning o`z ichki qonunlari doirasidan chiqmaydi. Og`zaki adabiy til esa, til taraqqiyotining ma`lum davrida bir xil talaffuz normalariga amal qilishni talab qiladi.

Tilning taraqqiyotiga bog`liq ravishda adabiy til normasi ham o`zgarib boradi. Masalan, o`zbek adabiy tilida Alisher Navoiy davridan beri uning lug`at sostavida va grammatik kurilishida turli o`zgarishlar bo`ldi.

ADABIY TILNI TARIXIY-STILISTIK TOMONIDAN O`RGANISH MASALASI.

O`zbek adabiy tili tarixining vazifasi badiiy, publitsistik, ilmiy-ommabop, dokumental asar va ishlarning tilini, ularda adabiy tilning aks etishini, taraqqiyot jarayonini hamda ularning stillarini o`rganishdan iborat. Umuman, adabiy til taraqqiyoti ikki aspektda o`rganiladi; tarixiy va stilistik. Ular bir-biri bilan bog`liq holda o`rganiladi. Adabiy til stillar sistemasidan iborat bo`lib, u turli davrlarda jamiyatning rivoji bilan turli xil bo`lishi mumkin. Chunki fikrni ifoda etish jarayonida har bir asar nutq tuzilishining o`ziga xosligi bilan farqlanadi.

Adabiy til stili taraqqiyotini adabiy janrlar taraqqiyotidan ajralgan qolda qaralmaydi. Til birliklari va ularning qo`llanishi normalari asar janri bilan mustahkam aloqadadir. SHuning uchun ham adabiy tilning stillarini klassifikatsiya qilganda, uning janr xususiyati hisobiga olinadi. Janrlarga qarab adabiy tilning stillarini quyidagi gruppalariga ajratish mumkin.

1. Adabiy-badiiy stil. Bu ikki gruppaga bo`linadi: poetik uslub va prozaik uslub.
2. Ijtimoiy-publitsistik stil. Bunga gazeta-jurnal, adabiy-tanqidiy

ishlar, maqolalar va ocherklar stili kiradi.

3. Ilmiy bayon stili. Bunga butun fanlarga doir ilmiy asarlarning stili kiradi.

4. Professional texnik stil. Bu turli kasb-hunar sohasida ish yurituvchilar uchun xizmat qiladi.

5. Rasmiy hujjatlar stili.

6. Har xil yozishmalar, kundalik va xatlarga xos bo'lgan stil.

Adabiy til tarakqiyotining turli davrlarida adabiy stillarning qo'llanishi doirasi o'zgarib boradi. Masalan, inqilobgacha o'zbek adabiy tilida poeziya stili keng qo'llangan bo'lsa, hozir proza stiliga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda.

Endi adabiy stillar uchun nimalar umumiy va nimalar o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi, degan savolga javob beramiz. Adabiy til stili uchun umumiy bo'lgan xususiyat tilning struktura elementlaridan-tilning fonetik, grammatik va leksik elementlaridan foydalana olishidir. Tilda shunday so'zlar borki, ular adabiy tilning barcha stillarida qatnasha oladi. Bu kabi so'zlarni ilmiy adabiyotlarda stilistik neytral so'zlar deb ham yuritiladi. Masalan, *oq*, *suv*, *o'tirmoq*, *bormoq*. Bunday umumiylik leksikada chegaralangan bo'lsa, fonetik va morfologiyada deyarli chegaralanmagan.

Stillar quyidagi xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi;

1. So'z tanlash xususiyatiga ko'ra. Rasmiy qog'ozlarda stilistik neytral so'zlar ko'p qo'llansa, she'riyatda obrazli so'zlar ko'p qo'llanadi.

2. Terminologik ma'nolariga ko'ra. Masalan, morfologiya tilshunoslikda so'z formasi haqidagi ta'limotni bildirsa, meditsinada hujayralar haqida fikr yuritiladigan sohani bildiradi va x.k.

O'zbek tili O'rta Osiyodagi qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, MDH davlatlaridan Volga bo'yidagi tatar, boshqird, chuvash, Kavkazdagi ozarbayjon, qumuk, qorachoy, bolqar, qrimdagi gagauz, qrim-tatar, chet mamlakatlaridagi uyg'ur, usmonli turk kabi qator tillar bilan birgalikda alohida til gruppasini tashkil etadi. Bu gruppada turkiy tillar oilasi deb yuritiladi. Turkiy tillar umumiy gruppada qurilishi, fonetik teng kelishi, lug'at sostavi jihatidan bir-biriga yaqinlik

darajasi shu tillar tarakqiyotining keyingi davrida yuzaga kelgan hodisa bo'lmay, balki qadimgi hodisadir. Turkiy tillar qanchalik qadim bo'lsa-da, ular orasidagi o'xshashlik, yaqinlik ko'pdir. Bularning hammasi turkiy tillar qadim zamonlarda qandaydir bir til manbaiga, negiziga ega bo'lganligidan darak beradi. Turkiy tillar esa, o'z navbatida, boshqa tillar bilan aloqasiz va boshqa tillardan ajralib qolgan oila tili bo'lmagan, aksincha ular Oltoy gruppasiga kiradigan boshqa tillar bilan ko'p jihatidan tarixiy umumiylikka egadir. Turkiy tillarning o'zaro o'xshashlik darajalari quyidagilarda ko'rinadi:

1. O'zbek tilidagi so'zlar boshqa turkiy tillardagidek asosan uch tovushli bo'ladi: *bil, til, kel, ko'z* va h.o.

2. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda ko'p bo'g'inli so'zlar juda kam. Asosan bir bo'g'inli: *ot, ov, oy*; ikki bo'g'inli bo'ladi: *ikki, olti, etti* va h.o.

3. Barcha turkiy tillardagi singari so'zlar ko'p ma'nolidir: *bosh, tosh, tish, uch*.

4. Ayrim ko'makchilarni hisobga olmaganda, so'zining oxirgi bo'g'inida undoshlar qator kelmaydi: *ostki, ustki*.

5. Boshqa turkiy tillardagi kabi affikslar so'z oxiriga qo'shiladi. Bundan fors-tojik tilidan o'zlashgan prefikslar mustasno.

6. Barcha turkiy tillardagi singari o'zbek tilida agglyutinatsiya qonunlari amal qiladi va h.o.

YUqoridagi o'xshashliklar bilan bir qatorda o'zbek adabiy tili o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan farq qiladi.

Masalan; o'zbek adabiy tilida unlilar oltita (*a, ə, o, o', u, i*) qirg'iz tilida sakkizta (*a, ə, o, ø, u, γ, i, i*), uyg'ur tilida ham sakkizta (*a, e, o, ø, e, u, γ, i*), xakos tilida esa to'qqiztadir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyatiga amal qilmaydi, boshqa turkiy tillar esa bu qonuniyatga amal qiladi.

Eski o'zbek tilida unlilar uyg'unligi bo'lgan, lekin u qattiq va yumshoqlikka qarab farqlangan: *kəlduk, kəryh, bardi*.

O`zbek tilining undoshlar tizimi boshqa turkiy tillarga mos tushadi. Ammo turkiy tillardan ba`zilarida undoshlar boshqacharoq ishlatiladi.

O`zbek va turkman tillarida so`z boshida keladigan *y* tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda *dj* va *j* tovushi bilan beriladi: *yigit* - *jigit*, *yo`q* - *jo`q*, *etti* — *jetti*.

O`zbek tilida *k*, *t* bilan boshlanadigan so`zlar o`g`uz guruxidagi turkiy tillarda *d*, *g* bilan beriladi: *temir* - *demir*, *teve* — *deva*, *til* - *dil*, *ko`z* — *go`z*, *kun* - *gun* kabi.

O`zbek tilida ayrim so`zlarda *ch*, *sh* undoshlari ishlatilgani holda, qoraqalpoq va qozoq tillarida *s* undoshlari ishlatiladi: *kuch* — *kush*, *och* - *ash*, *tish* — *tis*, *bosh-bas* kabi.

O`zbek tilida *g`* undoshi bilan tugagan so`zlar tatar, boshqird, qirg`iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida (*v*) *u* undoshlari bilan beriladi: *tog`* – *tav* – *tau*, *bog`* – *bav* – *bau*, *sog`* – *sav* – *sau* kabilar.

O`rta Osiyo va Qozog`istondagi turkiy tillar grammatik qurilishida ham o`xshash tomonlar mavjud. Turkiy tillardagi so`z turkumlari, so`z yasovchilar, so`z o`zgartiruvchilar, shakl yasovchilar bir-biriga o`xshaydi. Ammo affikslar har bir tilning o`z fonetik tuzilishiga ko`ra turlicha variantlarda keladi.

Masalan, o`zbek adabiy tilidagi ko`plik *-lar* afiksi bilan ifodalanadi. Boqsha turkiy tillarda ham *-lar* bilan beriladi. Lekin qozoq tilida oltita (*-lar*, *-lar*, -*dar*, -*dar*, -*tar*, -*tar*), qirgiz tilida o`n ikkita (*-lar*, *-lar*, -*dar*, -*dar*, -*tar*, -*tar*, -*lor*, -*lar*, -*dor*, -*dar*, -*tor*, -*tar*) varianti bordir.

Xuddi yuqoridagi kabi o`zbek tilidagi kelishik, egalik, kesimlik, shaxs, zamon, affikslari boqsha turkiy tillarning talaffuz qonuniga ko`ra turlicha fonetik variantlarda ishlatiladi.

O`zbek tili bilan boshqa turkiy tillar o`rtasidagi o`xshashlik va noo`xshashliklar ularning lug`at tarkibida ham mavjuddir. Agar o`zbek tili lug`at tarkibini ko`zdani kechirsak, unda umumiy turkiy tillarga, O`rta Osiyo va

Qozog'iston turkiy tillarga tegishli va faqat o'zbek tilining o'ziga xos so'zlarini uchratamiz.

Umumiy turkiy tillarga tegishli so'zlarning dastlabki qo'llanishini runik yozma yodnomalarda uchratamiz. O'rta Osiyo va Kozog'istondagi turkiy xalqlarga aloqador bo'lgan so'zlarning dastlab ishlatila boshlanishi X-XIII asrlar yodgorliklarida ko'ramiz.

O'zbek tilida boshqa turkiy tillarga xos xususiyatlar bilan birga turkiy bo'lmagan tillarda so'zlashuvchi unsurlarning ta'siri ham bor. Bu hol o'zbek tili materiallari asosida turkiy tillarga oid bir qator muammolarni hal qilishda qiyosiy-tarixiy usulni joriy qilishga keng imkon beradi.

Tillarning qarindoshligini qiyosiy-tarixiy usul asosida o'rganishni birinchi marta Mahmud Qoshg'ariy boshlab bergan. Biroq uning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan «Devonu lug'atit turk» asari etarli darajada o'rganilmagan.

Ma'lumki, VI asrda turkiy kabilalar kuchayib, o'zlarining ko'chmanchi Tukyu imperiyasini tuzadi. Bu imperiyaning chegarasi Amudaryo, Marv, Balx, Hindistonga borib taqalar edi. O'zaro urushlar va arablar istilosi natijasida Tukyu davlati ikki qismga ajraladi. Biri markazi Ettisuv bo'lgan g'arbiy turklarga va ikkinchisi markazi Mo'g'iliston bo'lgan sharqiy turklarga ajraladi. Ettisuvdagi Tukyu davlati turgeshlarga o'tadi. VIII asrda o'g'iz va qarluqlarning siquvi ostida bu davlat qarluqlarga o'tadi va Tukyu davlati IX asrning boshigacha Ettisuvni egallab turganlar.

Uyg'urlar 745 - yilda dastlab sharqiy tukyu eriga, so'ng g'arbiy tukyu eriga xujum qilib, butun Tukyu davlatini bosib oladi. 840 yilda qirg'izlar uyg'urlarga qarshi kurashib, hokimiyatni qo'lga kiritadilar. SHundan so'ng uyg'urlarning bir qismi qarluqlar tomoniga va bir qismi Tibetga ketadi.

Xuddi ana shu davrda hozirgi vaqtda amalda qo'llanib kelinayotgan turkiy tillardan birontasiga ham to'la mos kelmaydigan **qadimgi turkiy adabiy tili** paydo bo'ladi.

Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari turk-runiy (O'rxun-

Enasoy) va turk-uyg`ur yozuvi orqali bizgacha etib kelgan. Bu yozuvlar orqali etib kelgan yodgorliklarni turkiy tillarning birontasiga tegishli deb bo`lmaydi. Chunki ularda O`rta Osiyo va Qozog`istonda yashovchi turkiy xalqlarga tegishli fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni uchratamiz.

Masalan: *Kultəgin yoq, ərsər, kəpləltari ərtigiz. Inim Kultegin kərgək bolti, əzim saqint'm; kəryr kəzym kərməztəg, bilir biligim bilməztəg bolti, əzym saqintim. Od təhri yasar, kisi ogli kəp olg`əli (yoki əlygli) torumis.*

Kultagin obidasidan keltirilgan bu parchada qariyb hamma so`zlar tushunarlidir: *Kultegin bo`lmaganda edi, siz hammangiz o`lar zdingiz. Inim Kultagin kerak bo`ldi, o`zim sog`indim, ko`rar ko`zim ko`rmasdek, bilgan bilimimni bilmagandek bo`ldim, o`zim sogindim. Oh, tangri, inson o`g`li o`lish uchun tug`iladimi?*

Ko`rinib turibdiki, qadimgi turkiy yozuv yodnomalari umumturkiy tillar uchun asosiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Ma`lumki, yozma yodgorliklar bizga yozuv orqali etib kelgan. SHunday ekan, turkiy xalqlar qanday yozuvlardan foydalangan? - degan savol tug`iladi. Tarixiy va arxeologik manbalarning ko`rsatishicha, O`rta Osiyo va Qozog`istondagi turkiy xalqlar oromey, so`g`diy, xorazmiy, urxun-enasoy yoki runiy, uyg`ur, arab yozuvidan foydalanganlar

Oromey yozuvining ta`sirida shakllangan so`g`diy va xorazmiy yozuvlari eramizning 1-U asrlarida ishlatilgan. SHuningdek, oromey yozuvi ta`sirida eramizning birinchi asrida uyg`ur yozuvi shakllanadi. V asrga kelib esa, runiy nomi bilan atalgan urxun-enasoy yozuvi paydo bo`ladi.

Runiy yozuvi oromey yozuvi ta`sirida paydo bo`lgan so`g`diy va xorazmiy yozuvlari asosida shakllangan. Bunga turkiy tillar tovushlarini ifodalovchi tamg`a shaklidagi harflar ham qo`shilgan.

Bu yozuvlarning borligi fan olamiga XVIII asrdagana ma`lum bo`ldi. Ularning namunalari enasoy daryosi bo`yida topiladi. XIX asr oxirida rus sayyohi va

yozuvchisi N.M.YAdrintsev Urxun daryosi bo'yidan shu xildagi yozuvlarni topadi va tuzilishi jihatidan German runik yozuvlariga o'xshagani uchun **runiy yozuv** deb ataydi. Runiy yozuvdagi yodgorliklar katta hududga taqalgan bo'lib, ular feodal hukmdorlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo'yilgan toshlar, idishlar, yog'och va tog' qoyalarda saqlangan. Bu yozuvdagi bitiklar enasoy daryosi bo'ylaridan, Qirg'izistonning Talas vodiysidan, Urxun daryosi Selenga havzasi va unga yaqin joylardan, Boyqol ko'li atroflaridan topilgan.

Uyg'ur yozuvi yangi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u keyinchalik mo'gullarga va mo'g'ullardan manjurlarga o'tgan. Uyg'ur yozuvi VI tortib XV asrgacha turkiy xalqlarda va buddaviylar orasida XVIII asrgacha ishlatilib kelingan. Uyg'ur yozuvi asosida 1X-X asrlarga tepishli bo'lgan turkiy tillarning yozma yodgorliklari paydo bo'ladi. Ular diniy, falsafiy xususiyatga ega bo'lgan asrlardir.

Uyg'ur alfaviti bilan yozilgan yodgorliklarning xususiyati va mazmuniga qarab, quyidagilarga bo'lish mumkin: 1. Uyg'ur yodgorligi. 2. Ma'naviylik yodnomasi. 3. Buddiy yodnoma. 4. Xristian yodnomasi.

XI-XU asrlarga oid ko'pgina yirik asarlar turk uyg'ur yozuvida tartib qilingan. Masalan, «Me'rojnom», «Tazkirai avliyo», «Baxtiyornoma» kabi bir qator asarlar shu yozuvda ko'chirilgan. «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Muhabbatnoma» kabi asarlarning uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxalari ham mavjud.

Akademik V.V. Radlov birinchi marta kadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos dialektlarini o'rganib chikdi va uni shimoliy, janubiy va aralash dialekt deb uch guruhga bo'ldi. Shimoliy turkiy adabiy tilga runiy yoki o'rxun-enasoy yozuvlari asosida vujudga kelgan til kiritiladi. Bu tilga xos xususiyatlaridan biri so'z boshida va so'z oxirida jarangli undoshlar o'rnida ko'proq jarangsiz undoshlar kelishidir. Lekin bundan *b* undoshi istisnodir, chunki so'zning oxiri *n* va *ng* tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli *b* undoshi saqlanadi: *bən-men*, *bing-ming*, *bin-min* kabi. Masalan *Tonyuquq bənəg aydi* - *Toyo`quq menga aytdi* (*Tonyo`quq*). *Bagnu tash taqitdim-Mangu tosh tikdim* (Kultagin).

Bundan tashqari, *t* tovushi soʻz boshida koʻp ishlatiladi: *Su barin tidi - Qoʻshin bilan bor dedi* (Tonyoʻquq).

Tushum kelishi uchun asosan *-gʻ (-g) / -igʻ - ig - ugʻ - yg affiskli shakl* qoʻllangan: *sabigʻ - soʻzni, yagʻigʻ - dushmanni* (Tonyoʻquq), *on arig - oʻn erni* (Kultagin).

Qaratqich kelishigi affiksi *-ning/-ing* shaklida ishlatilgan: *Kultaginniḡ altunin, kymyshyn; Qagʻaniḡ sabi -Xoqonning soʻzi; biziḡ sy - bizning askar* (Kultagin).

Oʻrin-payt, chiqish kelishiklari uchun — *da / - dā// - ta / tā* affiksli shakl qoʻllangan: *Tyrgesh qagʻanta koryg kēti - Turgash xoqondan aygʻoqchi keldi* (Kultagin), *Qirqizta yanti- miz — Qirgʻizlardan qaytdik* (Tonyoʻquq).

Oʻtgan zamon feʻli maʼnosida *-di / - di // - ti / - ti, - mish / - mish (- mis / - mis)* affiksalaridan tashqari — *duq / - dyk* affiksli shakl ham qoʻllangan. *- duq / - duk* affiksli shakl oʻtgan zamon feʻli maʼnosida shaxs-son koʻrsatkichsiz uchala shaxsning birligi va koʻpligi uchun ishlatilavergan.

Oʻrxun-Enasoy yozuv yodgorliklarida hozirgi turkiy tillarga xos soʻzlar uchraydi: *el (el), ben (men) ilig (qoʻl), siz, ogʻlan, yash, at, tāḡri, altmish* kabi. Lekin semantik xususiyatlari bilan isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzlar ham mavjud: *bodun (xalq), bagʻ (ittifoqchshshk), sy (qoʻshin), sabim (soʻzim) iti (yubordi), tosiq (toʻygan), ukush (koʻp)* kabi.

Qadimgi turkiy tilning janubiy guruh dialekti uygʻur yozuvi asosida paydo boʻlgan. Bularga Selenga, Suji va Turfon yodgorliklari kiradi. Janubiy guruxdagi tillar fonetik jihatdan shimoliy guruxdagi tillardan oxiri *n, ng* bilan uchraydigan soʻzlar boshidagi *b* tovushining *m* tovushiga oʻzgarishi bilan farqlanadi: *baḡu - maḡu (mangu), ban - men, biḡ - miḡ* kabi.

Qaratqich kelishigi *-niḡ / -niḡ* affiksi bilan, chiqish kelishigi *- din / -din //* *- tin / -tin* affiksi bilan ifodalanadi. Feʼlning oʻtgan zamon shakli har bir shaxs va son uchun alohida affikslarga ega.

Aralash dialektning fonetik jihatdan o`ziga xos xususiyatlari tovushining *t* tovushi bilan, *ch* tovushining *z* tovushi bilan almashinib ishlatilishidir: *achun -azun* (*dune*), *atun - adun* (*boshqa*) kabi.

Savol va topshiriqlar:

1. «O`zbek adabiy tili tarixi» fani nimani o`rganadi?.
2. Adabiy til shakllari nimalardan iborat?
3. O`zbek tili tarixiga oid qanday adabiy manbalarni bilasiz?^
4. Adabiy tilning shakllanishida uslublar taraqqiyotining ahamiyati nimadan iborat?
5. Adabiy tilning og`zaki va yozma shakllari deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar:

*O`zbek tili tarixi* - o`zbek tilining turkiy tillardan ajralib mustaqil taraqqiy etishini yoritadigan fan.

Qadimgi turkiy til - barcha turkiy qavmlar uchun mushtarak sanalgan turk runiy yozma yodgorliklari, ularning fonetik, leksik va morfologik va sintaktik xususiyatlarini o`rganuvchi fan.

*O`zbek tilining tarixiy grammatikasi* - o`zbek tilining fonetik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik tizimining o`rganuvchi o`zbek tili tarixining uzviy qismi.

*O`zbek adabiy tili tarixi* - o`zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini, normalari tarixini o`rganadigan o`zbek tili tarixining uzviy qismi.

*O`zbek adabiy tili tarixi fanining manbalari* - buyuk so`z ustalari tomonidan yaratilgan adabiy yodgorliklardir.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.

- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O‘qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

2-MAVZU

O`ZBEK ADABIY TILI TARIXINI

DAVRLASHTIRISH

Reja:

1. Tesha Salimov tarhi
2. Fahri Kamol tarhi
3. A.M.Sherbek tarhi
4. Olim Usmonov tarhi
5. A.Aliev tarhi
6. U.Tursunov va boshqalarning tarhi
7. A.Muhtorov tarhi
8. G`.Abdurahmonov tarhi

O`zbek tili uyg`ur tili bilan birgalikda qarluq tili gruppasiga kiradi. Qarluq tili tarixiy jihatdan O`rta Osiyo gruppasiga, ayniqsa, g`arbiy xun shaxobchasiga kirgan tillar bilan oiladoshdir.

XI asrdan keyingi O`rta Osiyo turkiy tillari, shu jumladan, o`zbek adabiy tilining rivojlanishidagi ma`lum davrlarni belgilash mumkin.

Til tarixini o`rganishdagi eng muhim masalalardan biri - davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o`zbek tili va unga urug`dosh bo`lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o`zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'likdir. Tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil printsipga amal qilinadi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Qoshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham XIX asrgacha bu tillarning mukammal tasnifi yaratilmagan edi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bulardan ayrimlarini namuna uchun keltiramiz.

I. V. V. Radlov turkiy tillari to'rt guruhga bo'ladi:

1. SHarqiy guruh (Sibir' tatarlari tili).
2. G'arbiy guruh (qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar tillari).
3. O'rta Osiyo guruhi (o'zbek, uyg'ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim tatar tillari).

II. A.N. Samaylovich Radlov va Korsh tasniflarini birlashtirib oladi.

1. Janubiy - SHarqiy yoki chig'atoy guruhiga hozirgi uyg'ur, o'zbek tillarini va shevalarini kiritadi.
2. Janubiy - G'arbiy yoki o'g'uz guruhiga o'zbek tilining o'(uz shevalarini kiritadi.

III. S. E. Malov o'z tasnifida yangi turk tillari guruhiga o'zbek, chig'atoy tillarini kiritadi.

IV. N.A.Baskakov tasnifida turk tillarining G'arbiy xun tarmog'i qarluq tillari guruhiga kiritiladi; a) qarluq — xorazm guruhi. Bunga qoraxoniylar - xorazm tili (Ahmad YAssaviy asarlari), hozirgi uyg'ur tili va shevalari kiritilgan (bunda ayrim lingvistik belgilar hisobga olingan).

IV. A.M.SHcherbak tarxi (1957)

Til tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri — davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'dosh bo'lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'liqdir. Tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil printsiptga, ya'ni tarixiylik printsiptiga amal qilinadi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Koshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham, XIX asrgacha bu tillarning mukammal tasnifi yaratilmagan edi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bularga ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

I. V.V. Radlov turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi:

1. SHarqiy guruh(Sibir' tatarlari tili).
2. G'arbiy guruh (qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar tillari...).
3. O'rta Osiyo guruhi (o'zbek, uyg'ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim-tatar tillari).

II. A.N.Samoylovich, Radlov va Korsh -tasniflarini birlashtirib oladi. 1. Janubi - SHarkiy yoki chig'atoy guruhiga hozirgi uyg'ur, o'zbek tillarini va shevalarini kiritadi.

SH.S.E. Malov o'z tasnifida yangi turk tillari guruhiga o'zbek, chig'atoy tillarini kiritadi.

IV.N.A. Baskakov tasnifqda turk tillarining G'arbiy xun tarmog'i qarluq tillari guruhiga kiritiladi: a) qarluq-uyg'ur guruhi; b) qarluq - xorazm guruhi. Bunga koraxoniy-xorazm tili (Ahmad YAssaviy asarlar), hozirgi o'zbek tili va shevalari, hozirgi uyg'ur tili va shevalari kiritilgan (bunda ayrim lingvistik belgilar hisobga olingan).

V. V.A. Bogoroditskiy (1921) tasnifida O'rta Osiyo guruhiga o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillari kiritilgan.

Ularning ba'zilar turkiy tillarni hududiy - jo'g'rofiy jihatdan tasnif qilsa, boqshalari tshsharning bir xil lingvistik beyagisiga asoslanadi. Uchinchilarida turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan etarlicha bog'lanmaydi. SHular ichida N.A. Baskov

tasnifi ancha mukammal tuyuladi.

A.M. SHcherbek tarxi (1953):

1. Eng kadimgi davr o`zbek adabiy tili (X - XII asrlar).

2. O`rta davr o`zbek adabiy tili (XI-XIII asrlar).

3. Yangi davr o`zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar).

4. eng yangi davr o`zbek adabiy tili (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). Olim Usmon tarxi (1957):

1. Turk xoqonligi davrida qadimgi tug-yu turk tili (I-X asrlar). VI-VIII asrlar; VIII - IX asrlar).

2. Qadimgi o`zbek tili (I-XIII asrlar).

3. eski o`zbek tilining ilk davri (XIII -XIV asrlar).

4. eski o`zbek tili (XIV asrning oxiridan XIX asr II yarmigacha).

5. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tili:

A) XIX asrning II yarmidan Oktyabr' inqilobigacha bo`lgan davr o`zbek adabiy tili.

B) SHo`ro davri o`zbek milliy adabiy tili.

VI. G`.Abduraxmonov, SH.SHukurov tarxi (1973):

1. eng qadimiy turkiy til (VII asrgacha).

2. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha).

3. eski turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha).

4. eski o`zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha).

5. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tili.

VII. ergash Fozilov tarxi (1977).

A) Turkiy tillar uchun mushtarak bo`lgan obidalar - VI - X asrning birinchi choragi. B) eski turkiy yodnomalar - IX - XII asrlar (Qutadg`u bilig», «Devonu

lug`otit turk», «Hibatul haqoyiq»).

I. Tarix oldi o`zbek tili - XP-X1U asrlar (manbalari-»Tafsir», Sayfi Saroyi – «Guliston bit turkiy», «Muhabbatnoma», «Xusrav va SHirin», «Najhul Farodis»...).

II. Ilk o`zbek tili -

Akademik A.Samoylovich O`rta Osiyo turkiy tshsharini quyidagi davrlarga bo`lib ko`rsatadi.

I davr. X1-X1U asrlarni o`z ichiga oladi.

II davr. Mo`g`ullar hukmronligi davridagi o`zbek adabiy tili.

III davr. Temuriylar davridagi o`zbek adabiy tili. Bu davr XIX asrning 2-yarmiga qadar davom etadi.

IV davr. O`rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi adabiy til.

O`zbek tili tarixini uning ichki rivojlanish xususiyatlariga qarab, shuningdek o`zbek xalqi va millatining shakllanishi, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga qarab shunday davrlarga bo`lish mumkin.

I. O`zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri. Bu davr XI asrdan XIV asrning yarmigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

II. O`zbek xalq tili taraqqiyotining O`rta davri. Bu XIV asrning 2-yarmidan XIX asrning 1-yarmigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Bu davr eski o`zbek adabiy tilining shakllangan va ma`lum tarakiyotga yuz tutgan davridir.

III. O`zbek xalq tili taraqqiyotining so`nggi davri. Bu davr XIX asrning 2-yarmidan oktyabr` revolyutsiyasining g`alabasi va O`zSSR barpo etilgan davrni o`z ichiga oladi.

IV. Milliy O`zbek adabiy tili. Bu davrda O`zbekiston milliy tili shakllandi va taraqqiy etdi.

O`zbek tilining ilk davri va eski o`zbek tili.

X asr qarluq qabilalarining ittifoqi ancha kuchaydi va ular o'zlarining qoraxoniylar davlatini barpo etadilar. Ularning markazi shakllavdi. Albatta, bu protsess XI asrdagi qoraxoniylar davlatining mahalliyashtirish tendentsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq edi. Ilk davr o'zbek adabiy tili ikki xarakterda bo'lgan:

1) kitobiy adabiy til. Unda arabcha, forsha va qadimgi turkiy formalar ustundir. SHuning uchun undagi ko'pgina so'z va formalar biz uchun tushunarli emas.

2) xalq adabiy tili. Unda o'sha davr xalq tiliga xos forma va elementlarni uchratamiz.

Kitobiy adabiy til traditsiyasida diniy mistik va qisman didaktik asarlar yaratilgan.

Bunday asarlar jumlasiga «Tafsir», «Qissasul-anbiyo» va «O'g'uznoma» asarlarini kiritamiz. Fonetik jihatdan bu asarlar *d*-dialekti asosida yaratilgan. Keyingi davrda (XIV asr boshlarida) *y*-dialektiga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Xalq adabiy tili xalq jonli tiliga xos formalar asosida shakllandi. Unda xalq og'zaki ijodiga tegishli bo'lgan boy stilistik vositalar o'z aksini topgan. Bunga M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asariga kirgan qo'shiq, maqol va boshqa tipdagi tekstlar kiradi.

Bu davrning manbalariga. M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk»(XI asr), A.YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» (XII asr), Alining «Qissai YUusuf» (XIII asr), Rabg'o'ziyning «Qissasi Rabg'o'ziy» va «Qissasul anbiyo» (XIV) Qutbning «Xisrav va SHirin» (XIV asr) hamda turli davlat yorliqlari, hujjatlari kiradi.

YUqorida keltirilgan davrlar o'zaro ichki bog'langan, biri ikkinchisi uchun tarixiy zamon tayyorlagan. Bu davrlar ijtimoiy- tarixiy nuqtai-nazardangina emas, balki o'ziga xos lingvistik xususiyatlariga qarab ham farqlanadi. I davr tili uchun davrlashish hodisasi xarakterli bo'lsa, keyingi davrlar uchun *y* - lashish xarakterlidir.

Eski o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari borasida hozirgacha turli munozaralar mavjud .

SHuni aytish kerakki, lingvistik adabiyotlarda eski o`zbek tilining xususiyatlari haqida gap borganda buyuk Alisher -Navoiy asarlariga asoslaniladi, chunki Alisher Navoiy o`zbek xalqining ulug` mutafakkiri, atoqli shoiri va ulkan tilshunosi bo`lishi bilan birga eski o`zbek adabiy tiliga asos solgan, uni shakllantirish va rivojlantirish ishiga hammadan ko`ra ko`p hissa qo`shgan bir siymodir. SHuning uchun ham eski o`zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishi xaqqoniy ravishda Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan bog`liqdir.

«Haqiqatdan ham Alisher Navoiyning tili butun bir davrning tilidir, butun bir xalqning adabiy tilidir» (X.Doniyorov. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o`rganish masalasiga doir. A.N. va adabiy ta`sir masalasi. T, 1968.279).

Ma`lumki, Alisher Navoiy har qancha ulug` siymo bo`lishiga qaramay, u ham ma`lum bir xalqning vakili bo`lgan va uning tili ko`p shevalarni birlashtirganligi bilan birga, ma`lum shevaga ham tayangan, uning tilida o`sha ma`lum sheva yoki shevalarning izi boshqalarinikiga qaraganda ko`prok aks etgan. Demak, endi Alisher Navoiy tiliga asos bo`lgan sheva qaysi sheva edi degan masala kun tartibida ko`ndalang bo`ladi.

Bu masala olimlar o`rtasida tortishuvga sabab bo`lmokda. Bunga Zahriddin Muhammad Boburning Alisher Navoiy tili Andijon shevasiga mos kelsada, degan fikri asos bo`lmokda. Ma`lumki, Bobur har tomonlama bilimli, olim kishi bo`lgan. U o`zining «Boburnoma» degan mashhur asarida o`sha davrdagi ijtimoiy- tuzum, siyosiy voqealar, adabiy hayot va boshqa ko`pgina sohalarni ilmiy analiz qilib berish bilan birga, til sohasida ham ajoyib fikrlar aytgan. Bobur Andijon haqida gapirib SHunday deydi: «Eli turkdur. SHahr va bozorisida turkiy bilmas kishi yo`qtur. elining lafzu qalam bila rostdur. Ani uchun kim Mir Alisher Navoiyning muzannafoti, bovujudkim Hirida nash`u noma topibdur, bu til biladir» (1960. 60-bet).

Boburning bu fikri haqida munozara boshlagan mashhur tarixchi V.V.Bartol'd «Mir - Ali - SHir i politicheskaya jizn'» degan asarida Boburning bu so`zlarini o`sha davrdagi madanii shahar bulgan Andijonda to`g`ri til, ya`ni adabiy tilga yaqin til bilan gagshirishgan deb tushunmoq kerak, chunki Mir Alisher Andijonda bo`lgan emas, deb ko`rsatadi. A.YU.YAkubovskiy esa «CHert obshestvennoy i

kul'turnoy jizni epoxi Alishera Navoi»degan asarida «Bu o`rinda Bobur hech narsani bo`rttirib ko`rsatgan emas» deb ta`kidlaydi. Demak. V.V.Bartol'd Andijon shevasi Navoiy tiliga yaqin til degan fikrni ilgari sursa, A.YU.YAkubovskiy Bobur ma`lumotiga ishonmasdan ilojimiz yo`q, deb ko`rsatadi. Bu boradagi professor. F.Abdullaevning fikrlari bilan tanishaylik: U «XV asr o`zbek adabiy tilining dialektal asoslari» degan maqolasida Bobur ma`lumotiga bir necha antitezislar qo`yadi:

1. Alisher Navoiy hech qachon Andijonda bo`lmagan.
2. Boburning o`z asarlari tili mazkur shevaga yaqin deb faraz qilsak, Navoiy va Bobur asarlari tili o`rtasida ancha dialektal farqlar bor.
3. Alisher Navoiy yaratgan asarlar tili g`oyat murakkab va dialektal jihatdan rang-barang bo`lib, uning hajmi va salmog`i shu qadar zo`r ediki, uni bir dialekt, hatto butun bir lahja ramkasiga sig`dirib bo`lmaydi.
4. Alisher Navoiy asarlari tilida hozirgi O`zbekiston territoriyasiga hamda qo`shni respublikalarga tarqalgan jonli o`zbek shevalarining deyarli hammasining elementlari mavjud.
5. Hozirgi qozoq, tatar, uyg`ur, turkman, ozarbayjon, usmonli turk kabi tillarga xos bo`lgan leksik qatlam va grafik formalar XV asr o`zbek adabiy tilida anchagina mikdorda uchraydi, lekin bunday xususiyatlarning ko`pchiligi Andijon shevasida yo`q. Boburning o`z asarlarida ham bunday elementlar kamdan-kam uchraydi.
- 6.Navoiy asarlari tilida qadimgi uyg`ur va qadimgi [turkiy] yozuv yodgorliklari (runik yozuvlari)ga xos bo`lgan elementlar ham mavjudki, uning tarixiy ildizini faqat bir yoki bir grupp shevalardan axtarish kutilgan natijani bermaydi.
- 7.SHuningdek, Alisher Navoiy asarlari tilida boshqa yozuv yodgorliklarida uchramaydigan yoki juda kam uchraidigan fammatik elementlar borligi qayd qilingan, andijon shevasida ham boshqa o`zbek shevalarida ham ular hanuzgacha qayd qilinmadi, boshqa turkiy tillarda ham uchramadi.
8. Nihoyat, Navoiy asarlari tilida urug`dosh bo`lmagan tillardan olingan

soʻzlar oʻsha davrdagi adabiy til leksik qatlamining anchagina protsentini tashkil qiladi, ayrim grafik formalar, masalan, arab va fors-tojik graffik elementlari, jonli morfologik koʻrsatkichlar sifatida mavjud. Andijon shevasida esa bu qadar chet til elementlarining boʻlishi ehtimoldan juda uzoq.

Tilshunos va Navoiyshunoslarning bu masalaga aralashuvi bejiz emas, chunki:

1) Alisher Navoiyning tilini hech boʻlmasa soʻnggi davrdagi Andijon shevasi bilan chogʻishtirib oʻrganish imkoniyati yoʻq edi, Buning sababi shundaki, arab alifbesidagi harflar sistemasini turkiy tillardagi tovushlar sistemasini toʻliq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, arab alifbosidagi harflar turkiy tillardagi unlilarni aniq koʻrsatib boʻlmaydi. Ana shuning uchun ham Navoiyda til oldi e bilan, til orqa o, til oldi u bilan til orqa u tovushlari bir-biridan farq qilganligini aniqlash mushkul. Faqat «Muhokamatul-lugʻatayn» asarida Navoiyning oʻzbekcha unlilarning fors-tojikcha unlilar bilan chogʻishtirib, fors tilidagi bitta va ikkita «vov» (و), «yoy» (ي) ga nisbatan oʻzbek tilida 4 tadan tovush mos kelishi haqidagi fikri orqaligina yuqoridagi unlilarning til oldi va til orqa xususiyatlariga qarab farqlanganligini bilamiz.

3. Agar yuqoridagi masalalar aniqlangan taqdirda xam Alisher Navoiy tilining oʻsha davrdagi Andijon shevasiga toʻla mos ekanligani yoki uning toʻliq mos ekanligini aynan aniqlash juda katta qiyinchilik bilan boʻlar edi, chunki oʻtgan 500 yiddan koʻproq vaqt ichida Alisher Navoiyning asarlari tili hech oʻzgarishsiz bizga etib kelgan boʻlsa, bu oʻtgan vaqt ichida oʻzbek tilining andijon shevasi uning boshqa shevalari singari deyarli toʻxtovsiz ravishda turli oʻzgarishlarni boshidan kechirib kelmoqda.

Xususan, Navoiydan keyin tez orada mamlakatning Temuriylar koʻlidan ketganligi va shu munosabat bilan bogʻliq holda avval Dashti qipchoqda yashab kelgan va bu erdagi aholiga nisbatan son jihatdan koʻprok boʻlgan oʻzbeklarning (qipchoq va koʻchmanchi oʻzbeklarning) bu erga kelib oʻrnashishi va bu erdagi aholi bilan asrlar davomida aralashib ketganligi hisobga olinsa, Andijon shevasida,

shuningdek, boshqa o'zbek shevalarida ham o'tgan davr ichida qanchalik kuchli va katta o'zgarishlar sodir bo'lganini tushunib olish qiyin bo'lmaydi.

Professor V.Abdullaevning ko'rsatishicha, Alisher Navoiy Samarqandda ikki yil emas, balki 4-5 yil bo'lgan. Bu davr ichida deb ta'kidlaydi X.Doniyorov, u V.Abdullaev aytganidek, Samarqandning janub tomonlaridagina emas, balki uning sharq tomonlarida, ya'ni Andijon tomonlarida ham bo'lganligi ehtimol. O'sha davrdagi shahar shevalari ichida andijon shevasi adabiy tilga yaqin (qalam bila rost) shevalardan biri bo'lgan va Samarkdnd shevasi esa, o'sha paytda temuriylar davlatining poytaxtlaridan birining shevasi va sharqiy shevalardan biri sifatida hirot shevasiga nisbatan Andijon shevasiga ancha yaqin bo'lgan bo'lishi mumkin. SHuningdek, o'sha davrda Andijon va Samarqandning aloqalari ham ancha kuchli bo'lgan.

Alisher Navoiy Andijon shevasi bilan ham bolalik vaqtlaridanok, o'sha Hirotdayoq tanisha boshlagan bo'lishi mumkin.

CHunki Hirotga Avdijon tomondan juda ko'p ustalar, navkarlar, kosiblar va boshqa toifalarning borganligi, ular ichida ayniqsa, andijonlik shoirlar va mashshoqlar yaxshi obro'ga ega bo'lgan.

Demak, «qalam bila rost» sheva sifatida Andijon shevasi hali Alisher maktabga qatnab yurgan vaqtlaridayoq uning e'tiborini tortgan bo'lishi mumkin.

Alisher Navoiy Andijon shevasi bilan hali go'dakligida oila muhitidayoq tanilgan bo'lishi ham mumkin, chunki Alisherni tarbiyalaganlardan yoki unga qarindosh bo'lganlardan birortasining andijonlik bo'lishi ehtimoldan tashqari, Alisherning ota-onalari, uning oilasidagi kattalar va saroy kishilari, shu jumladan, barloslar gaplashgan sheva asosan o'sha davrdagi SHahrisabz, Kitob shevasi bo'lgan, chunki u erlar barloslarning makoni bo'lgan. SHunday ekan shahrisabz-kitob shevasi o'sha vaqtda Andijon shevasiga, Hirot katta Samarqand va Buxoro shevalariga nisbatan ham yaqin turgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Alisher Navoiy tilining Andijon shevasiga mos bo'lganligini isbotlovchi dalillardan biri shundan iboratki, o'sha vaqtda Andijon va SHahrisabz-Kitob shevalari

o`rtasidagina emas, Andijon bilan Samarqand va Buxoro hatto, Hirot shevalari o`rtasida ham keskin farqlar unchalik bo`lmagan, balki ular o`rtasida o`xshashliklar ancha ko`p bo`lgan. A.Navoiyning ta`kidlashicha, faqat Xorazm shevasigina boshqa shevalardan ajralib turgan. Lekin keyinchalik mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy etnik o`zgarishlar tufayli xususan, Alisher Navoiy vafotidan keyin tez vaqt ichida mamlakatning Dashti qipchoqdan kelgan o`zbeklar qo`liga o`tish va ularning butun mamlakat buylab, boshqa o`zbeklar bilan aralashib ketishlari natijasida), o`sha vaqtda bir-biri bilan yaqin bo`lgan shevalar asta-sekin boshqa shevalar bilan qo`yilishi, murakkab interatsiya va differentsiatsiya holatlarini boshdan kechirishlari natijasida ularning har qaysisi har xil yangi xususiyatlar kasb etgan. SHuning natijasida ular bir-biridan uzoqlasha borgan. SHuning uchun ham A.Navoiy asarlari tili xozirgi Andijon shevasiga o`xshamay qolganligi tasodifiy emas.

SHunday qilib, Alisher Navoiy asarlari tili Andijon shevasi tilidagi «y»lovchi shahar shevalariga mos keladi, chunki Navoiy zamonida y-lovchi tipdagi shahar markaz shevalari umumxalq o`zbek tilining negizini tashkil etgan.

SHahar markaz shevalariga esa Andijon, Namangan, Qo`qon, Toshkent, Buxoro, Samarqand, SHahrisabz, Kitob kabi shevalar kirar edi. Lekin shu bilan barobar eski o`zbek adabiy tili boqsha o`zbek shevalarining ham, chunonchi, janubiy Xorazm shevalarining va qipchoq shevalarining zarur elementlarini qabul qilgan. Bu jihatdan she`riy asarlar tili xarakterlidir. SHE`riy asarlar tilida proza asarlari tiliga nisbatan o`g`uz shevalarining ta`siri kuchliroqdir.

O`zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish

R E J A :

1. Masalaga kirishish.
2. Turkiy tillar tasnifi.
3. O`zbek tili tarixini davrlashtirish.
4. Qadimgi turkiy adabiy til.
5. Eski o`zbek adabiy tili.

6. Hozirgi o`zbek adabiy tili

Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o`zgarishlarni hisobga olmagan holda, adabiyot va san`at, fan va ijtimoiy tafakkur tarixi bilan bog`lanmay turib, o`zbek adabiy tilining tashkil topishi va rivojlanishini o`rganib bo`lmaydi. Chunki, adabiy til milliy madaniyat turlaridan biri sifatida jamiyat taraqqiyoti bilan bog`langandir.

O`zbek adabiy tili o`zining tashkil topishi va shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab hozirgi kunlargacha juda murakkab taraqqiyot yo`lini bosib o`tdi. Asrlar daomida o`zbek adabiy tilida yuz bergan o`zgarishlar asta-sekinlik bilan, miqdor o`zgarishlardan sifat o`zgarishlarga o`tish yo`li bilan davom etdi, yuzaga keldi. hunga ko`ra tilning ichki qurilishidagi o`zgarishlar bilan bog`liq ravishda o`zbek adabiy tilining rivojlanishi jarayonida bir-biridan farq qiladigan turlicha davrlar ajratiladi. Ma`lumki, adabiy til haqidagi fan jamiyatda xilma-xil ijtimoiy hodisalarning rivojlanish haqidagi, til va jamiyat, tilning rivojlanishiga har xil ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ijtimoiy omillarning ta`siri to`g`risidagi ta`limotga asoslanadi. Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari haqidagi ta`limot tilning xalq tarixi bilan bog`liq holda rivojlanishi to`g`risida ta`limot bilan mahkam bog`liq bo`lib, ular bir-birini to`ldiradi.

Demak, yuqorida ko`rsatilgan qoidlar asosida o`zbek adabiy tili tarixi fanini tuzish, tashkil etish jarayonida davrlashtirish masalasi g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, adabiy til tarixi shu tilda so`zlashuvchi xalq tarixi bilan adabiy tilning tuzilmasi, tarkibiy qurilishdagi o`zgarishlar bilan, shuni ngdek,

uning ijtimoiy vazifalari o`zgarishi bilan uzviy ravishda bog`langandir. hu sababli o`zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo`yicha olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy fikrlar, umumiy qoidalar bir-biridan keskin farq qilmaydi. Bu esa adabiy til qurilishdagi o`zgarishlarning uning ijtimoiy vazifasidagi o`zgarishlar bilan yoki adabiy til tarixini xalq tarixi bilan mahkam bo`lganligining yana bir marta tasdiqlaydi.

O`zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bir tomondan o`zbek xalqining tashkil topishi, etnik tarkibi, uning o`ziga xos murakkab tarixiy rivojlanishi jarayoni bilan bog`langan bo`lsa, ikkinchi tomondan qadimgi umumtarkiy adabiy til qurilishida hamda hozirgi turkiy tillar tasnifida o`zbek adabiy tilining tutugan o`rni, uning o`ziga xos xususiyatlari kabi masalalar bilan bog`langandir.

O`zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bevosita turkiy tillar tasnif qilish masalasi bilan bog`liq. Chunki o`zining lug`at boyligi, tovush tarkibi va grammatik xususiyatlari jihatidan ko`pchilik turkiy tillar bir-biriga juda yaqin turadi. Ammo ular o`ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq ham qiladi. Bu xususiyatlarni aniqlash esa turkiy tillar tasnifi bilan bog`liqdir.

Davrlashtirish uchun o`zbek tili va unga urug`dosh bo`lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o`zaro munosabatlarini o`rganish va tasniflash zarur.

Turkiy tillarni o`rganish va tasniflash asosan XIX asrdan boshlandi. Turkiy tillarni tasniflashda ko`proq jug`rofiy nuqtai nazardan asos qilib olinadi. Ma`lumi, jug`rofiy tasnifda qardosh tillarning xududiy yaqinligi yondosh yashash sharoiti

nazarda tutiladi. Ammo ularning ba`zilarida bu hodisaga qisman rioya qilmaslik hollari ham seziladi. Turkiy tillarni ilk bor ilmiy nuqtai nazardan tasnif qilgan olim V.V.Radlovdir. U o`zining tasnifida turkiy tillarni uch guruhga bo`ladi: 1) shimoliy guruh; 2) janubiy guruh; 3) qurama guruh.

So`nggi guruhni yana g`arbiy va sharqiy kichik guruhlariga ajratadi.

V.V.Radlov o`zining keyingi taraqqiyotlarida bu tasnifni qayta ishlab chiqadi, yana ham takomillashtiradi va turkiy tillarni to`rt guruhga bo`ladi:

1. Sharqiy guruh (bunga oltoy va cho`lim tillari, xakas, shor, tuva va enasoy turklarining tillari kiradi);
2. G`arbiy guruh (bunga Sibir tatarlari, boshqird, tatar, qirg`iz, qozoq va qoraqalpoq tillari kiradi);
3. O`rta Osiyo guruhi (bunga uyg`ur va o`zbek tillari kiradi);
4. Janubiy guruh (bunga turkman, ozarbayjon va turk tillari kiradi).

A.N.Samoylovich esa turkiy tillarni tasnif qilishda fonetik prinsipga asoslanadi. U turkiy tillarni olti guruhga bo`ladi:

- 1) R.guruhi. Bu tillarda qadimgi turkiy tildagi 3 tovush keyincha u **ga** o`tgan tovush **r** tovushi bilan aytiladi: azak – ayak (oyoq)- ura kabi. Bu guruhga eski bulg`or va hozirgi chuvash tillari kiradi.
- 2) D.guruhi. Bu tillarda **z** tovushi **d** tovushi bilan aytiladi. Bu guruhga uyg`ur, tuva, qaragaz, salar tillari, qadimgi uyg`ur va urxun-enasoy turklari kiradi.
- 3) Tau guruhi. Bu tillarda to`g` so`zi tau tarzida aytiladi. Bu guruhga oltoy, qirg`iz, ko`mik, qarachay-balqar, tatar, boshqird, karaim, nuqay, qozoq yoki umuman shimoliy-g`arbiy turkiy tillar kiradi.
- 4) Taglik guruhi. Bunda so`z sShunday aytiladi. Bu guruhga eski o`zbek tili, hozirgi uyg`ur va o`zbek tillari – janubiy-sharqiy turkiy tillar kiradi.
- 5) Taglik guruhi. Bunda so`z sShunday aytiladi. Bu guruhga Xorazm o`zbek tili shevasi, qipchoq-turkman tillari kiradi.

- 6) Ol guruhi. Bunda bo'l fe'li o'l tarzida aytiladi. Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz kabi janubiy g'arbiy turkiy tillar kiradi.

S.E. Malov o'z asarlarida turkiy tillar tasnifiga doir bir qator qiziqarli fikrlarni bayon qiladi. U mavjud tasniflarga qilingan o'zining qo'shimcha va ilovalariga eskirgan xususiyatlarning saqlanishi hamda yangi xususiyatlarning hosil bo'lishi jihatidan barcha turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi:

1. Eng qadimgi tillar.
2. Qadimgi tillar.
3. Yangi tillar.
4. Eng yangi tillar.

S.E.Malov o'z tasnifi uchun turkiy tillardagi til orqali g.g va bir- necha orqali qator unlilarning old qator tovushiga o'tishi, qadimgi tillarda jarangsiz undoshlarning, yangi tillarda esa jarangli undoshlarning ko'pligi kabi fonetik hodisalarni o'z tasnifi uchun asos qilib oladi.

Mana shu tasnif asosida S.E.Malov turkiy tillarning rivojlanish tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Turkiy tillarning d-lash davri. Bu hodisa qadimgi runiy va uyg'ur yozuvi yodgorliklari uchun xos xususiyatdir. So'z o'rtasi va oxirida U tovushi d tarzida aytiladi: adak (ayak),adir (ayir), kod(kuy) kabi.
2. O'tkinchi davr. Bu davrda turkiy tillar d-lash xodisasidan ya-lashga o'ta boshlaydi: kidim (kiyim, kedim) (keyin, adir) ayir kabi.
3. Turkiy tillarning y- lash davri. Bu davrda turkiy tillarning tabaqalanishi va ajralib chiqishi kuchayadi, alohida xalq tillarining tashkil topishga zamin tayyorlanadi.

Turkiy tillarni tasniflashda N.A. Baskakovning xizmatlari ayniqsa, samarali bo'ldi. Uning asarlariga turkiy tillarning ilmiy-nazariy jihatdan ancha mukammal geneologik tasnif beriladi. Bu tasnifga ko'ra turkiy tillar

dastlab ikkiga bo`linadi:

- 1) G`arbiy xun tarmog`i;
- 2) Sharqiy xun tarmog`i

G`arbiy xun tarmog`i to`rt shaxobchaga bo`linadi:

1. Bulg`or shaxobchasi. Bunga qadimgi bulg`or, xazar va hozirgi chuvash tili kiradi.
2. Qipchoq shaxobchasi, Bunga qaram, qo`mik, qirim tatarlari, tatar, boshqird, qoraqalpoq, qozoq tillari kiradi.
3. O`g`iz shaxobchasi. Bu shaxobchasiga qadimgi o`g`iz va hozirgi turkman, qaqauz, ozarbayjon, turk tillari kiradi.
4. Qarluq shaxobchasi. Bu shaxobcha tarkibiga qadimiy uyg`ur tili, eski o`zbek tili va hozirgi uyg`ur va o`zbek tillari kiradi.

harqiy xur tarmog`i ikki shaxobchaga bo`linadi:

1. Uyg`ur-o`g`iz shaxobchasi. Bunga qadimgi o`g`iz tili va hozirgi tuva, qaraqaz, yoqut, hakas, shor tillari kiradi.
2. Qirg`iz-qipchoq shaxobchasi. Bu shaxobchaga qadimgi va hozirgi qirg`iz tili va oltoy tillari kiradi.

N.A.Baskakov o`zining ana shu tasnif bilan bog`liq ravishda turkiy tillarning

rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga bo`ladi:

1. Oltoy davri (milodgacha III asrlar), turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi ilk bosqichi bo`lib, bu davrning muayyan sanalari fan tomonidan aniqlangan emas. Chunki tarixiy hujjatlar yo`q.
2. Xun davri (milodiy Y asrgacha)
3. Qadimiy turk davri (Y-X asrlargacha)
4. O`rta turk davri (X-XY asrlar)
5. Yangi turk davri (XIX-XX asrlar)
6. Eng yangi davr (XIX-XX asrlar)

Turkiy tillarni tasniflash taraqqiyot tarixini davrlashtirish bilan bog`liq

ravishda o`zbek adabiy tili tarixi ham olimlar tomonidan turlicha davrlashtirilgan.

Jumladan, S.E.Malov o`zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo`lib o`rganadi:

1. Uyg`ur adabiy tili
2. Chig`atoy adabiy tili
3. Uyg`ur adabiy tili

Bu davrlashtirishga ko`ra hozirgi o`zbek adabiy tili chig`atoy adabiy tilidan

kelib chiqqan. Chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tili esa o'z navbatida o'yg'ur adabiy tilidan kelib chiqqan.

A.N. Samoylovich o'zbek adabiy tilining tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Qoraxoniylar davri adabiy tili (X-XI). Bu davr qoraxoniylar davlatida shakllangan va keng qullangan sharqiy turkiy adabiy til va shu tilda yoziladigan asarlar bilan ajralib to'radi.
2. O'g'iz- qipchoq adabiy tili (XII-XX asrlar). Bu davr Xorazmda o'g'iz-qipchoq dialekti negizida rivojlangan g'arbiy turkiy adabiy til hamda bu erda yaratilgan asarlar bilan bog'langan.
3. o'rta Osiyo turkiy adabiy tili (XIV-XX asrlar). Bu davr tili shu asrlar davomida turkiy- eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan asarlar bilan bog'langan. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa O'rta Osiyo turkiy adabiy tilining davomi deb qaraladi.

A.M.Shcherbak o'zbek adabiy tili tarixini to'rt davrda bo'lib o'rganadi:

1. O'zbek adabiy tilining eng qadimgi davri (X-XIII asrlar). Bu davr asosan sharqiy turkiy adabiy til hamda ma'lum darajada g'arbiy turkiy adabiy til bilan bog'langan.
2. O'zbek adabiy tilining o'rta –«Chig'atoy» tili davri (XIV-XVII asrlar). Bu davr tili asosan eski o'zbek adabiy tili hamda shu tilda yozilgan asarlar bilan bog'langan.
3. O'zbek adabiy tilining yangi davri (XVII-XYIII asrlar). Bu davr xonliklar davri adabiy tillini qamrab oladi.
4. O'zbek adabiy tilining eng yangi davri(XIX-XX asrlar).

O.Usmonov o'zbek adabiy tilining tarixini besh davrga bo'ladi:

1. Qadimgi turkiy tili davri (VI-IX asrlar)
2. Qadimgi o'zbek tili davri (IX-XII asrlar)
3. Eski o'zbek tilining ilk davri.(XIII-XIV asrlar)
4. Eski o'zbek tili (XIV-XIX asrlar)
5. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

G.Abduraxmonov o'zbek adabiy tili tarixini quydagicha davrlashtiradi.

- I. eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr).
- II. Qadimgi turkiy til (VII-XI asrlar)
- III. Eski turkiy til (XI-XIII asrlar)
- IV. Eski o'zbek adabiy tili.(XIV-XIX asrlar)
- V. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX-XX asrlar)
- VI. Hozirgi zamon adabiy tili.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha davrlashtirish mumkin:

- I. Qadimgi turkiy adabiy til davri(VII asrdan-XIII asrgacha)
- II. Eski o`zbek adabiy tili davri (XIII-XIX asrlar)
- III. Hozirgi o`zbek adabiy tili davri (XIX-XX asrlar)

Savol va topshiriqlar:

1. O`zbek xalqi va tilining nomlanish tarixini gapirib bering.
2. X.Doniyorovning o`zbek so`zining kelib chiqishi va qo`llanishi haqidagi maqolasini topish va konspektlashtirish.
4. O`zbek adabiy tilini davrlashtirish xaqida gapirib bering.
5. O`zbek adabiy tilini davrlashtirishda olimlarning tasniflari va tamoyillari nimalardan iborat?
6. eski o`zbek tilining tayanch dialekti deganda nima tushunasiz?
7. eski o`zbek tilida fors-tojik va arab tili unsurlarining yanada kuchayib ketishiga sabab nima?

Tayanch tushunchalar

Sart – so`zining lug`aviy ma`nosi «o`troq» demakdir. M.Qoshg`ariy asarida «savdogar» ma`nosida ham qo`llagan. «Sart» so`zi O`rta Osiyoda o`troq yashovchi aholisiga nisbatan ham qo`llangan.

Turk- atamasi M.Qoshg`ariyning asarida keng ma`noda barcha turkiy qavmlarga nisbatan ishlatilgan bo`lsa, Alisher Navoiy hozirda o`zbek deb ataluvchi xalqni turk, tilini turkiy deb atagan.

Qarluq tili gruppasi – o`zbek tili uyg`ur tili bilan birgalikda qarluq tili

gruppasiga kiradi. Qarluq tili tarixiy jihatdan O`rta Osiyo gruppasiga, ayniqsa, g`arbiy xun shaxobchasiga kirgan tillar bilan oiladoshdir.

*Ilk davr o`zbek tili* - Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan ikki madaniy jihatdan rivojlangan xalq: sharkda uyg`ur va g`arbda turk-eron madaniyati bo`lib, bu madaniyat o`sha davr tiliga ham kuchli ta`sir qildi. Natijada sharkda qarluq, chigil, uyg`ur dialekti asosida sharqiy adabiy til rivojlandi. Movarounnahr va Xorazmda esa o`g`uz-qipchoq dialekti asosida g`arbiy adabiy til vujudga keldi.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O`qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санақулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

3-mavzu

Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari, uning ilmiy – tarihiy ahamiyati

1. *Eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi.*
2. *«Devoni lug`atut turk» asari tili xususiyatlari.*
3. *«Hibatul haqoyiq» asarida adabiy til me`yor masalasi.*
4. *«Qutadg`u bilig» asarida adabiy til me`yor masalasi.*

Turkiy kabila-urug`larning egakchiligida barpo bo`lgan qoraxoniylar davlati zamonida adabiy til traditsiyasiga bo`lgan munosabat kuchaydi. SHu davrgacha

O`rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy xalqlar adabiy tili masalasini forsiy til bajarib kelar edi. Lekin bu traditsiya qoraxoniylar siyosatiga zid kelar edi.

Shuning uchun qoraxoniylar davlatining hukmron doiralari turkiy tilda yozilgan har bir asarni ma`qullar va taqdirlar edi. Qoraxoniylar davlatida, turli qabilalar orasida chigillar, ayniqsa, muhim rol` o`ynar edi, chunki chigillar boshqa turkiy qabilalarga qaraganda madaniy jihatdan ustun edilar. Ularda yozuv traditsiyasi ancha keng tarqalgan edi. Shuning uchun ham qoraxoniylar zamonidan yozilgan dastlabki asar shu dialekt zaminida yozilgandir. Chigillar dialekti turkiy tillarning *d*-gruppasiga mansubdir. *D*-dialekti qadimgi turkiy tilda muhim ahamiyatga ega bo`lganligi ma`lum. SHu dialekt koraxoniylar zamonidagi adabiy traditsiyani yaratishda ham ahamiyatga ega bo`lgan. SHu traditsiya asosida «Qutadg`u bilig», «Hibatul haqoyiq» va XIV asrning o`rtalariga qadar ma`lum bo`lgan qator asarlar yozilgandir. Qoraxoniylar zamonida vujudga kelgan adabiy til traditsiyasi mo`g`ullar hukmronligi davrida ham davom etdi. Mo`g`ullar davlatida uyg`urlar butun madaniy ishlarni boshqarganlar. Uyg`urlar vositasida qoraxoniylar traditsiyasi uzoq asrlar davomida o`z xususiyatlarini saqlab qolgan. Lekin XIV asrga kelib O`rta Osiyodagi vaziyat bir muncha o`zgardi. Mo`g`ullar davlatining inqirozga yuz tutishi munosabati bilan O`rta Osiyo, Kavkaz va Qrimda, Kichik Osiyoda har xil turkiy davlatlar yuzaga keldi. Davlat chegaralarining aniqlanishi borgan sari shu territoriyadagi qabila-urug`lar asosida muayyan xalqlarning tarkib topish ishlari uchun zarur sharoit tug`dirib borgan. Mo`g`ullarning O`rta Osiyodagi siyosiy etakchiligi zaiflashib borgan sari adabiy tildagi koraxoniylar traditsiyasi ham o`zining avvalgi ahamiyatini yo`qotib bordi. Adabiy tilga mahalliy shevalar kuchli ta`sir etdi. SHuning natijasida XIV asr davomida adabiy tilning tayanch dialekti Sirdaryo bo`yidagi y-lashgan dialektni tashkil qildi. XIV asrning o`rtalaridan boshlab yuzaga kelgan yodgorliklar turkiy tilning y-dialekti zaminida yozilgandir. Bu dialektning dastlabki yodgorligi Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridir.

MAHMUD QOSHG`ARIYNING «DEVONU LUG`ATIT TURK» ASARI HAMDA

UNING TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI

XI asrda turkiy qabilalar orasidagi munosabat kuchaydi. Lekin tilda turli xil qabila va urug` tiliga oid formalar qo`llanilar edi. Ana shu davrda turkiy tilda ma`lum normalarni yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Ana shu talabni qondirish maqsadida M.Qoshg`ariy «Devonu lug`atit turk» asarini yaratdi va bu bilan turkiy xalqlarning tilshunosligiga hamda madaniyatiga ulkan hissa qo`shdi. Ma`lumki, bu asarning yuzaga kelishi mamlakatda qoraxoniylar hukmronligining o`rnatilishi va Somoniylar zamonasidagi madaniyat va ilmiy traditsiya qoraxoniylar davrida xam davom ettirilishi bilan bog`liq edi. Ana shu davrda M.Qoshg`ariy arab filologiyasini o`qib o`rgandi. U arab filologiyasini qanchalik o`rganib borsa, o`z ona tilini o`rganish bilan shu darajada qiziqib bordi. U uzoq yillar mobaynida shaharma-shahar, tog`ma-tog` kezib, u erlarda yashagan turkiy xalqlar hayotini, etnografiyasini va shu bilan bog`liq ravishda tilini o`rganib chiqdi. Har bir qabila tiliga xos bo`lgan dialektal xususiyatlarni aniqladi. «Men, deb yozadi M.K., - turklar, turkmanlar, o`ruzlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarini to`pladim. Turli xil so`z xususiyatlarini aniqladim. Men bu ishlarni til bilganim uchun emas, balki har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim, bo`lmasa, men tilda ularning etuklaridan, eng katta xushfahmlaridan usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, o`g`uzlar, yag`molar, qirg`izlarning tillari butunlay dilimga jo bo`ldi. Ularni puxta, bir asosda tartibga soldim»(DLT. I. 44-bet).

Maxmud Qoshg`ariy «Devon»da o`sha davrdagi turkiy qabilalar leksikasi, fonetikasi va fammatik qurilishini yoritib berdi.

«Devon»da M.Qoshg`ariy iste`molda bor so`zlarni izohlash bilan bir qatorda, har bir turkiy qabilaning o`ziga xos xususiyatini berish uchun alohida yo`l tanlaydi. Bu haqda shunday deydi: «Men har bir qabilaga mansub so`zlarni yasalish xususiyatlarini va qanday qo`llanishini qisqacha izohlab ko`rsatish uchun alohida yo`l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo`llanib kelgan she`rlardan, shodlik va motam kunlarida qo`llaniladigan xikmatli so`zlaridan, maqollaridan

keltirdim» (DLT, I, 47-bet) M.Qoshg`ariy so`z ma`nolarining kengayishi, etimologiyasi kabi hodisalar haqida ham to`xtalgan.

Mahmud Qoshg`ariy chetdan qabul qilingan so`zlarga ikki xil munosabatda bo`ladi. Predmet va tushuncha bilan bog`liq ravishda kirib kelgan so`zlarga ijobiy munosabatda bo`ladi. Tilda mavjud bo`lgan so`zlar o`rnida boshqa tildan olingan so`zni qo`llashga salbiy qaragan va bu holatni zararli, manfiy holat deb bilgan. Bunga ko`ra *bilge*, *bitik*, *urag`ut* kabi turkcha so`zlar o`rnida arabcha *olim*, *kitob*, *ayol* so`zlarini qo`llamaslik kerak.

M.Qoshg`ariy o`sha davr fonetikasiga doir qimmatli fikrlarni bayon qiladi. SHu davr alfaviti to`g`risida: «Turkiy tillarda qo`llaniladigan asosiy harflar soni 18 tadir. Xolbuki, tildagi tovushlar 18 ta emas, ko`pdir. Bu 18 harf etishmaydi. Bulardan boshqa tilda mavjud bo`lgan tovushlarni berish uchun yana 7 ta tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo`yib yoziladi» (DLTD , 47-48-bet). SHuningdek, M.Qoshg`ariy unli va undosh tovushlar, ularning xarakteristikasi, tovush almashinishi qonuniyatlari haqida o`rinli fikrlarni bayon qiladi.

«Devon»da turkiy tshshar morfologiyasi haqida ham ma`lumotlar bor. Unda so`z turkumlari va so`z yasovchi affikslar o`z davriga yarasha yoritilgan. M.K.Aristotel' fikriga tayanib, turkiy tilda 3 ta so`z turkumini ajratadi: ot, fe`l, yordamchi so`zlar. M.Qoshg`ariy sintaksis masalalarini «Devon»da yoritmaydi, chunki bunga bag`ishlab maxsus asar, «Javohirun-nahv fil-lug`atit turk» asarini yozgan, lekin u bizgacha etib kelmagan.

«Devonu lug`atit turk» asari 1914 yilda Turkiyaning Diyorbahr shahridan topiladi. Qo`lyozmani ko`chiruvchi Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning yozishicha, u nusxani M.Qoshg`ariyning o`z dastxatidan olgan.

«Devonu lug`atit turk» 1915-17 yillarda uch tomdan iborat qilib Istambulda nashr etiladi. SHu nashr asosida K.Brokkel'man 1928 yilda nemischaga tarjima qilib, uni nashr qiladi. 1939 yilda Anqarada Basim Atalay turk tiliga tarjima qiladi. 1960-63 yillarda-esa prof. S.Mutallibov «Devon»ning o`zbek tilidagi tarjimasini yaratdi.

«Devonu lugʻatit turk» turkiy xalqlar tillari tarixini oʻrganishda muhim manbadir. Ayni zamonda, uni oʻz davrining entsiklopedik asari deyish mumkin. Asarda turli qabila va xalqlarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi materiallari bordir. Bu asarni oʻrganish bilan Oʻrta Osiyo xalqlari va Oʻrta Osiyo madaniyatining kelib chiqishini yoritishda yuz bergan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Mazkur asarning tarixiy ahamiyati ham shundadir.

Muhimi shundaki, M.Qoshgʻariy tomonidan berilgan maʼlumotlar hozirgi turkiy tillarni oʻrganishda va ularning qiyosiy tarixiy grammatikasini yaratishda qimmatli manba boʻlib qoldi.

«QUTADGʻU BILIG» ASARINING TIL XUSUSIYATLARI

Oʻzbek adabiy tilining shakllanish davrini koʻrsatuvchi asarlar sirasiga Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarini kiritish mumkin.

«Qutadgu bilig» asari sheʼriy pandnoma boʻlib, podsho Kuntugʻdi, dono vazir Oytoʻldi, Oytoʻldining oʻgʻli Oʻgdilmish oʻrtasidagi suhbatdan iboratdir.

Bu asarning uch qoʻlyozma nusxasi fan ahliga maʼlum. Ulardan ikkitasi XV asrda koʻchirilgan, hozir Vena va Qohirada saqlanmokda. «Namangan nusxasi» deb nomlangan nusxa XSH-X1U asrlarda koʻchirilgan deb taxmin qilinadi. Ana shu nusxa asosida K.Karimov asarni hozirgi oʻzbek grafikasida nashrini tayyorlab, chop qildi.

«Qutadgʻu bilig» hajm jihatidan ham, janr jihatidan ham yangi asardir. Janr nuqtai nazardan yangi asar boʻlgan bu kitob adib oldiga asar tili ustida ishlash uchun muxlm talab qoʻydi. Bu talab, dastavval, oʻsha davrdagi tarqoq qabilalar tilida mavjud boʻlgan til faktlarini hisobga olish va shu davrda ham savodli boʻlgan xalqning barchasi uchun tushunarli boʻlishini taʼminlashdan iborat edi. Bu sharaflı vazifaning uddasidan chiqq olgan Yusuf Xos Hojib xalq ommasining soʻz qoʻllashdagi tajribasiga suyanib, stilistik silliqlikka erishdi. Shu nuqtai nazardan «Qutadgʻu

bilig» asarida Yusuf Xos Hojib o`sha davr tilini ma`lum bir sistemaga soldi va adabiy tilni rivojlantirishga o`zining xissasini qo`shdi.

Asarga asos bo`lgan dialekt va til masalasida turkologiyada turli qarashlar mavjud.

V.Radlov bu asar tilini u yoki bu til bilan yaqinlashtirgan bo`lsa-da, qat`iy bir fikr aytmaydi va asarning «oltoylashtirilgan» transkripsiyasini beradi. Chunki u asar tilini oltoy tillaridan sayxon tiliga yaqin, deb hisoblagan edi.

V.Radlov «Oltoy nazariyasi» ni yuzaga keltirgan sharqshunos edi. Bu nazariyaga ko`ra oltoy tilida so`z boshida va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsiz bo`ladi. Ammo intervokal pozitsiyada undoshlar jarangli bo`lishi mumkin. O`zining shu nazariyasiga asoslanib, «Qutadg`u bilig»ni transkripsiya qilib chikdi.

Radlovning «Qutadg`u bilig» asariga berilgan transkripsiyasi asosida 1891 yilda nemischa tarjimai e`lon qilindi. Radlovning bu qarashlari fanda ko`p e`tirozlarga uchradi. Bu haqda eng ishonchli dalillar Daniya olimi V.Tomsen tarafidan ko`rsatilgan edi. V.Tomsen XI asr turkiy tilining yodgorligiga hozirgi zamon oltoy tillarining xususiyatlaridan kelib chiqib yondashmaydi. Balki, u «Qutadgu bilig» tilining ichki xususiyatlariga suyanadi. Tomsen «Qutadgu bilig» asarini tekshirar ekan, u asardagi qofiyalarga ahamiyat berdi.

S.E.Malov bu asarni bir o`rinda chig`atoy tilida yozilgan asarlar qatoriga kiritdi, boshqa bir o`rinda uni uyg`ur-musulmon yodgorligi deb ataydi va uning arabcha ko`chirilgan nusxalari XI asr uyg`ur tilini ravshan aks ettiradi deb ta`kidlaydi. Sharqshunos olim Z.Valizoda «Turk va tatar tarixi» (Qozon, 1912) asarida bu asar tilini sof turk tili deb talqin qiladi. Tadqiqotchi A.A.Valitova mazkur asarni qoraxoniylar davri tilida yozilgan asar deb e`tirof qildi.

Q.Karimov «Qutadgu bilig»ning kirish qismidagi «Mochin olimlari va haqimlari qamuq ittifoq bo`ldilarkim, mashriq viloyatida Turkiston ellarida Bo`g`raxon tilincha bu kitobdin yaxshiroq hargizkim orso tasnif qilmadi. *Bu kitob qayu podshāqa yo qayu iqlimqa tekdi ersə goyat o`zlukindin nihāyatdin kichəkur kullu-kullu kindin... təkmə biri bir turluk laqab urdilar*»- degan jummalarga qarab,

bu asar tili Bug`roxon qo`l ostida birlashgan turk davlati tarkibiga kirgan hamma asosiy qabilalar uchun tushunarli bo`lganligini bayon qiladi. Demak, asar tili o`sha davr turk qabilalari tillari asosini o`zida aks ettirgan. Shuning uchun ham «Qutadg`u bilig»ni XI asrda yashagan biror xalqning yoki qabilaning yodgorligi deb qat`iy fikrga kelish qiyin. SHunga qaramasdan, asarda chigil qabilalarining tillari ustunlikka ega edi. Asar tilining struktura xususiyatlari o`sha davr normalarini aks ettirgan.

«Qutadg`u bilig» yodgorligida forscha so`zlarga nisbatan arabcha so`zlar ko`prokdir. Biroq, adibning ko`rsatishicha, asarda bor-yo`g`i 94 ta arabcha so`z bor.

Asarda O`rxun-Enisey yodgorligiga oid so`zlar anchagana: *bodun, qamuq, tæri (qonun), bayat (xudo), bayig` (past), bayiç (tushunarli), æb (shishilmoq), æd (vaqt),) od (taxt), æriz (tinç), otachi (tabib) jogu (urf-odat).*

Yusuf Xos Hojib yodgorliklarda omonim, sinonim va antonimlardan ham unumli foydalangan: *at (loshad`)* -*at (imya)* —*at (otmoq)*; *achig` (achchiq)* — *achig` (toza)* kabi omonimlar, *yaruq-qaraq, xosh// yaxshi-yaman, yumshaq-qatig` , achig`-tat`g`;* *beduk-qodu* kabi antonimlar, *achig`-silig (toza), tushar-pabuz-ersel* kabi omonimlarni uchratish mumkin. Dostondagi aksariyat so`zlar hozir ham (garchand fonetik jihatidan o`zgarsa-da) qo`llanadi.

Shu davr fonetik xususiyatiga ko`ra asarda 9 ta unli tovush (*i,æ,a,u,o, i,a,y,ø*) 28 ta undosh tovush qo`llangan.

Singarmonizm qonuniyati saqlangan. Morfologiyasi bo`yicha ko`zga tashlanadigan hodisa shundaki, unda kelishiklar ichida vosita kelishigi ham uchraydi:

Tirig ælgy æxir tæshænær yerig

Kishi ælsæ edgyn kær ati tirig.

Ma`nosi: Tirik oxiri o`ladi, erni to`shanadi, kishi yaxshilik bilan o`lsa, ko`rgin oti tirik qoladi. (96-6).

Umuman, «Qutadg`u bilig» asari XI asr qabila tillarini birlashtirishga va u tilni rivojlantirishga katta hissa bo`lib qo`shildi. SHuning uchun bu asar tilida o`zbek, uyg`ur, qirg`az kabi turkiy tillarga xos bo`lgan xususiyatlarni uchratamiz.

«HIBATUL XAQOYIQ» ASARINING TILI

Ulug' adib Axmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» yoki «Ajabatul-haqoyiq» asari badiiy soʻz sanʼati va oʻzbek adabiy tilining juda qimmatli yodgorligi hisoblanadi. Mazkur asarning yaratilish davri haqida turli qarashlar mavjud. S.E.Malov asar tilidagi arxaik elementlarga qarab, uni X asrga tegishli desa, N.A.Baskakov, Aziz Qayumovlar uni XII asrga, V.M.Nosilov esa XIII asrning I yarmida yaratilgan deb koʻrsatadilar. Ilmiy jamoatchilik ahliga asarning 3 ta qoʻlyozma nusxasi maʼlum.

1-nusxani 1444 yilda xorazmlik Zaynal Obid binni Sulton Baxshi Jurjoniylar Husayniy origanaldan koʻchirgan boʻlib, Stambulda Aya Sofiya kutubxonasida saqlanadi (Uygʻur yozuvida).

2-nusxa 1480 yilda SHayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan koʻchirilgan boʻlib, yuqoridagi kutubxonada saqlanadi (bu ham uygʻur yozuvida)

3-nusxa arab yozuvida koʻchirilgan boʻlib, Stambuldagi Toʻp-qabi kutubxonasida saqlanmokda. Bu uch nusxa asosida turkiyalik Rashid Raxmat Arat yuqoridagi yodgorlikning saylanma tekstini va tarjimasini yaratdi. V.M.Nosilovning fikricha, bu tekstning tarjimasi u qadar muvaffaqiyatli chiqqan emas.

Turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tili tarixini ilmiy ravishda chuqur oʻrganishda «Hibatul haqoyiq» asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Oʻsha davrdagi qabila tillarining xususiyatini aniqlash, ularning bir-biriga taʼsiri, rivojlanishi, oʻzaro qoʻshilib ketishi va markazlashishi asosida xalq (elat) tillarining, ayniqsa oʻzbek xalq (elat) tilining tashkil topish va shakllanish jarayonini belgilashda bu asarning ahamiyati nihoyatda kattadir. X-XP asrlarda maydonga kelgan asarlar bilan keyingi davrlarda yoki umuman, XIX asrgacha yaratilgan asarlarning tilini qiyosiy oʻrganish, ulardagi umumiylik va farqlarni aniqlashda ham yordam beradi.

«Hibatul haqoyiq» asarining tili, uning leksik xususiyati, tovush tarkibi va grammatik qurilishi, bir tomondan, «Qutadgʻu bilig» asariga yaqinlashsa, ikkinchi

tomondan, «Qisas-ul anbiyo»ga (XIII-XIV asrlar) o`xshab ketadi. Bu asarni chuqur o`rgangan E.E.Bertel's qadimgi o`zbek adabiy tilidan (aniqrog`i eski turkiy adabiy tildan) klassik o`zbek adabiy tiliga o`tishda «Hibatul haqoyiq» ko`prik vazifasini bajargan deb ko`rsatadi. Darhaqiqat, asar tiliga xos lug`aviy qatlamlar, fonetik va grammatik xususiyatlarning qarluq, chigil, yag`mo, uyg`ur tillari negizida tashkil topgan adabiy til bilan mushtaraklikka ega ekanligi, ayniqsa, keyingi asrlarda bitilgan asarlar tiliga yaqinligi kabilar eski turkiy adabiy tildan eski o`zbek adabiy tiliga o`tishda «Hibatul haqoyiq»ning ko`prik bo`lganligidan dalolat beradi.

Asar o`zining leksik xususiyatlari bilan o`sha davrdagi eski turkiy adabiy tilining lug`aviy boyligini aks ettiradi. Moddiy-madaniy hayotning turli sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi, hamma uchun tushunarli, sodda, yasama va qo`shma turkiy so`zlar asar lug`atining asosini tashkil qiladi: *ata, ana, ar'jsiz (foydassh), ezgu, bash, bezek, berim (berish), boz, 'ntn, yazug (gunoh), yuz, yigig, kichik, konul, negu, sevunch, tamag`, ulug`* kabi. SHu bilan birga, arab va fors-tojik tillaridan qabul qilingan so`zlar ham uchraydi: *saadat, saxavat, muruvvat, ma`ni, mehruban, karam, insaf, do'st, zamon, zoxid, dad, gul, vafa baxil, bina, aq'sh, amanat, aziz* kabi.

Asarning tili o`z fonetik xususiyatlari jihatidan X1-XSH asrlarda yaratilgan yodgorliklar bilan umumiylikka ega. SHu bilan birga, eski o`zbek adabiy tili uchun xarakterli bo`lgan xususiyatlarning ham vujudga kela boshlaganligini ko`rish mumkin. «Hibatul xaqoyik» asarining tilini o`rganish unda 9 ta unli mavjud ekanligini ko`rsatadi. Ko`p hollarda singarmonizmning lab ohangdoshligi buzilgan.

O`sha davrdagi boshqa yodgorliklarda bo`lganidek, asar tilida z undoshining saqlanganligini, uning birmuncha ustunligini ko`rish mumkin. Ayni zamonda, bu tovushning y ga o`ta boshlaganligi ham ko`rinadi: kezingi - keyingi, kezim - kiyim, qazgu - kayg`u, qozn - kuyi, qozub - qo`yib.

Achunda at ezgu qozub bardi kor,

(Dunyoda yaxshi ot qoldirib ketdi, ko`r)

Harisliqnn qoyur haris er qachan.

(Haris kishi xarislikni kachon qo`yadi).

Asarda sonor tovushlardan keyin jarangsiz t ning jarangli d undoshiga o`tish hodisasi ham XI-XIII asrlar yodgorliklari uchun xos xususiyat hisoblanadi: *emdi, qutuldi, sozyndin, ardəm, kəndy*.

Ko`rinadiki, «Hibatul xaqoyik» asari fonetik xususiyati jihatidan XI-XIII asrlarda yaratilgan boshqa yodgorliklarga o`xshasa xam, o`ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Asar morfologik xususiyatlari jihatidan quyidagilar bilan ajralib turadi: tushum kelishigi affiksining *-ug`*, *-yg* varianti arxaik shakl sifatida ancha siyrak uchraydi, asosan, *-im*, *-ni* shakllari qo`llanadi: *sozug* - *so`zni*, *bozug* - *buzni*.

Navadur sozug az bolur azl okush

(Qadrli so`z oz, hazil so`z ko`p bo`lur.)

-n, *-un* affiksli vosita kelishigi shakli qam ancha arxaiklashgan bo`lib, kam uchraydi

Asal tatrub eligin tamag` tatir tib.

(Qo`li bilan asal sdirib, taom berib.)

Jo`nalish kelishigining kadimgi turkiy til uchun xos bo`lgan —*g`aru*, -*gəry* shakllari qo`llanmaydi, asosan — *gə*, *-ga*, (*-kə*, *-qa*) *-ə*, *-a* affiksli shakllar ishlatiladi.

Asarda sifatdoshning *-təchi*, *-tachi* (*-dachi*, *dəchi*), *-g`li*, *-gli*, *-dug`*, *-dyg* affiksi bilan kadimgi shakllari ancha arxaiklashib qolgan, kam uchraydi. Aksincha, *-g`an*, *-gən* affiksli sifatdoshlar unumli shaklga aylangan, ammo uning kesimlik vazifasida kelishi deyarli uchramaydi.

-da affiksining chiqish kelishigi uchun qo`llanishi juda kam uchraydi. Olmoshlarda *bu-mu*, *oshul*, *kəndu-o`z*, *nəgu*, *neluk*, *qamug*, *anar-unga* kabi xarakterli xolatlarni ko`rish mumkin. Sifatning kiyosiy daraja shakli – *rək/rak* va -*ru* affikslari orqali ifodalangan: *okushrzk* - *ko`prok*., *kenru* - *kengroq* (*Kim ol*

yolsuz ərsə anna kənrü yol - Kim yo`lsiz bo`lsa, unga kengroq yo`l bor) kabi.

Demak, «Hibatul haqoyiq» asari leksik, fonetik va grammatik jihatdan birinchi navbatda, X-XII asrlarda qo`llangan turkiy adabiy tilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi, turkiy qabila tillarining ancha rivojlanaganligini, ma`lum tizimga kela boshlaganligini ko`rsatadi. SHu bilan birga, bu asar o`zining til xususiyatlari jihatdan ma`lum tafovut va farq bo`lishiga qaramay, ko`p jihatdan XIII-XVI asrlarda yaratilgan asarlarning tili bilan umumiylikka ega. Ayni vaqtda, bu asar orqali eski turkiy adabiy tildan eski o`zbek tiliga o`tishda katta kadam qo`yilganligini, unga yaqinlashib kelinganligi ham aniq bilinadi. Bu esa o`sha davrdagi turkiy qabila tillarining o`zaro yaqin munosabatini, ularning rivojlanishini natijasida dastlab o`zbek xalq (elat) tilining tashkil topishi tezlashganligini, shuningdek, boqsha turkiy elat tillarining shakllanish jarayoni davom etganligini tasdiklaydi.

Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat»da adib Axmad YUgnakiy haqida bunday deydi: «Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoikka go`yo ermish. Balki aksar turk ulusida xikmat va nuqtalari shoe`dur» va uning quyidagi baytini keltiradi:

Sonakka iliktur, erenge bilik,

Biliksiz eran ul iliksiz sonek

Savol va topshiriqlar:

1. eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi nimalardan iborat.
2. «Devoni lug`atut turk» asari va uning tili haqida gapiring.
3. «Hibatul haqoyiq» asarida adabiy til me`yor masalasi nimadan iborat.
4. «Qutadg`u bilig» asarida adabiy til me`yor masalasi nimadan iborat.
5. Oltoy nazariyasi va unga asos olimlar haqida gapirib bering.

Tayanch tushunchalar:

1. *Oltoy nazariyasi* – Oltoy nazariyasiga rus sharqshunos olimi V.Radlov asos solgan bo`lib, uning nazariyasiga ko`ra oltoy tillarida so`z boshida va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsiz bo`ladi.

2. *CHigillar* – turkiy qavmlardan biri bo`lib, madaniy jihatdan boshqa turkiy qavmlardan ancha ustun edilar, ya`ni ular o`z yozuv an`analariga ega edilar.

3. *d' dialekti* – chigillar dialekti sanalib, Qoraxoniylar zamonida vujudga kelgan adabiy tilga asos bo`ldi. Mo`g`ullar va ulardan keyingi adabiy tilda ham o`z xususiyatlarini ham saqlab qoldi.

4. *y dialekti* – mo`g`ullarning O`rta Osiyodagi mavqei pasayib mayda turkiy davlatlarning paydo bo`lishi bilan d' dialekti elementlari, ya`ni qoraxoniylar adabiy tili an`anasi ham o`zining avvalgi ahamiyatini yo`qota boshladi. Natijada XIV asrning o`rtalaridan boshlab adabiy til an`anasi sifatida y – dialekti yuzaga chiqdi.

4-MAVZU

O`ZBEK ADABIY TILINING XII ASRDAN KEYINGI TAKOMILI

Reja

1. Bu davrdagi tarixiy jarayon va adabiy til an`anasi.
2. Bu davrning tayanch dialekti masalasi.
3. «Qarluq-Xorazm» adabiy tili va uning manbalari
4. «Chig`atoy ulusi» adabiy tili va uning manbalari.
5. «Oltin O`rda» adabiy tili va uning manbalari.

O`zbek adabiy tilining XII asrdan so`nggi takomilida XIII-XIV asrlardagi tarixiy voqealarning roli kattadir.

Ma'lumki, *mo'g'ul* qabilalarining faolligi X asrdanoq osha boradi. Ularning qabilalaridan bo'lgan qoraxitoylar va XII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga bostirib kiradilar. Bu erda ular ikki tomondan kurash olib borishga majbur bo'ladilar. Bir tomondan, Xorazmshoh davlati bilan, ikkinchi tomondan, mo'g'ul urug'laridan naymanlar bilan. Xorazmshohlar bu kurashda ko'chmanchi qipchoqlar, o'g'uzlardan foydalanadilar va qoraxoniylarni siqib chiqaradilar. Lekin ular O'rta Osiyo, xususan, o'zbek elati sostavida Xitoy deb nomlangan urug'ni qoldirib ketdilar.

XIII asrning boshlarida esa O'rta Osiyoga mo'g'ullarning istilosi boshlanadi. V. Bartol'dning ta'kidlashicha, bu tarixiy voqea O'rta Osiyoda barpo bo'lgan davlatning tiliga ham ta'sir etdi va uning tili turkiy til bo'lib rasmiylashdi. Mo'g'ullar istilosi natijasida tuzilgan davlat *CHig'atoy davlati* deb yuritildi va XIV asrning oxirigacha Temuriylar imperiyasi tuzilguncha davom etdi. CHig'atoy davlati turkiy, eroniy til va madaniyatiga ega bo'lgan qabila va elatlar yashovchi territoriyada tashkil topdi va o'zining yozma adabiyot tilini yaratdiki, u Navoiy davridagi eski o'zbek adabiy tiliga baza bo'lib xizmat qildi.

CHig'atoy tili deb atalgan adabiy til ilmiy adabiyotlarda qoraxoniylar davrida tashkil topgan qarluq-chigil-uyg'ur va g'arbiy xorazm (o'g'uz) tilining davomi hamda taraqqiy etishi natijasida yuzaga keldi, deb e'tirof qilinadi. XII-XIV asrlar adabiy tiliga qoraxoniylar davri tili negiz qilib olinganligi uchun ham, tildagi «*d*»lashishga aylana boradi.

XIII asrda mo'g'ul qabilalarining ta'sirida Xorazm aholisining turkiy tilga o'tishi jarayoni tugallandi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida turkiy tillarda so'zlovchi aholilar faqat qishloqlarda va cho'l rayonlarda emas, balki O'rta Osiyo, Qashqarning yirik shaharlarida ham oshib bordi.

Bu esa badiiy adabiyotda kitobiy tilga nisbatan jonli xalq tiliga murojaat qilishni taqozo qila boshladi. SHu bilan birgalikda XIII- XIV asrlarda Xorazmni ham qo'shib olgan **Oltin O'rda** davlati tuziladi. Oltin O'rdaning bir qismi bo'lgan **Xorazmda adabiy til** qipchoq-o'g'uz tili elementlari asosida rivojlandi.

Xorazm orqali Oltin O`rdaning Movarounnahrta ta`siri kuchaydi. Natijada XIV asrga kelib O`rta Osiyoning markaziy qismi bilan Qashkar o`rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar uziladi.

O`zbek tilining taraqqiyotiga o`troq hayot kechiruvchi va ko`chmanchi qabilalar munosabati ta`sir etmasdan qolmadi.

Ko`chmanchi o`zbeklar O`zbekxon boshchiligida XIV asr boshlarida Movarounnahrta bir necha bor yurish qildi. Bu yurishlar Abulxayrxon va SHayboniyxon davrida yana xam kuchaydi.

Ko`chmanchi o`zbeklar ta`sirida «d» dialekti o`rnida «y» lashgan dialektga o`tish jarayon kuchaydi. Demak, qipchoq elementlari sezilarli o`rin egallay boshladi.

SHuningdek, Movarounnahrning g`arbi, shimoliy g`arbiga va janubiy Xorazmga o`g`uz kabilalarining ta`siri kuchaya boshladi. O`g`uzlar ham «y»lashgan dialektda gaplashar edilar.

Ana shu tarixiy jarayon natijasida qadimgi turkiy tilda mavjud bo`lgan, X-XII asr yodgorliklarida aks etgan, XII-XIV asr kitob tili tradiniyasiga aylanib ketgan «d» lashish XIV asr g`arbiy adabiy til (Xorazm) ana`nasi ta`sirida «y» lasha boshladi. Bu holat «O`g`uznoma» va Oltin O`rda tsikliga kiruvchi boshqa asarlar tilida xam uchraydi. Aksincha, qarluq-chigil-uyg`ur tili g`arbiy turkiy tillarga ta`siri ham bo`lgan. Bu ta`sir mo`g`ullargacha kuchli yuz bergan bo`lib, sharqiy adabiy tilning susayish bilan g`arbiy adabiy til, yoki N.A.Baskakov termini bilan aytganda qarluq-xorazm adabiy tilining taraqqiyoti boshlandi.

N.A.Baskakov fikricha, qarluq-xorazm adabiy tili keyinchalik eski o`zbek adabiy tilining yaratilishiga zamin bo`lgan.

QARLUQ-XORAZM ADABIY TILI VA UNING MANBALARI HAQIDA

Qoraxoniylar davlati hukmronligi tugagandan keyin Xorazmda qarluq-xorazm adabiy tili vujudga keldi. Bu til mo`g`ullar istilosidan so`ng ikki bir-biriga yaqin bo`lgan adabiy tillarning vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Ulardan biri Oltin

O`rda yoki Xorazm adabiy tili va ikkinchisi CHig`atoy ulusining tili. Karluq-xorazm adabiy tilining yodgorligi sifatida Rabg`o`ziyning «Qissasul-anbiyo», Alining «Qissai YUusuf», Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat» kabi asarlarni ko`rsatish mumkin. SHundan «Qissasul anbiyo» asarining til xususiyatlari bilan tanishamiz.

«QISSASUL ANBIYO» ASARINING TIL XUSUSIYATLARI.

Mo`g`ullar istilosi ma`lum darajada diniy reaksiyaning kuchayishiga olib keddi. Bu holat badiiy adabiyotga ham ta`sir qildi. Aksariyat adiblar diniy qonunlarni xalqqa tushunarli tilda yoritishga xarakat qildilar. Bunda ular qissa janridan foydalandilar. Qissalarda esa so`zlashuv tiliga ko`plab murojaat qila boshladilar. Natijada xalq tiliga xos elementlar ayrim diniy afsonaviy syujet asosida yozilgan asarlar uslubiga kirib keddi. SHu jihatdan Rabg`uziyning «Qissasul 20 anbiyo» asari xarakterlidir. Rabg`uziy XII asrning oxiri va XIV asrning boshlarida yashagan. Uning «Kissasul-anbiyo» asari shu davr tilini o`rganishda muhim manbadir. Bu asar 72 qissani o`z ichiga olib, unda «Qur`on» va boshqa diniy kitoblarni syujet saqlangandir.

Rabg`uziy islom dinini targ`ib qilish maqsadida xalqqa tushunarli bo`lsin uchun xalq so`zlashuv tiliga murojaat qiladi. Asarda xalq og`zaki ijodida mavjud bo`lgan qissa va latifalar stili ustun darajada o`z ifodasini topgan. Bu esa kitobiy til bilan xalq tilini bir-biriga yaqinlashtirish imkonini tug`dirar edi.

Rabg`uziy bayon etish uslubini juda soddalashtirgan va asarida xalq ertaklari uslubini tanlab, «Qissadan xissa» chiqarib boradi. Xalq maqollaridan ham ustalik bilan foydalangan.

«Qissai anbiyo» asari fonetik jihatidan d-lashishning kamayib, y-lashish hodisasidan kengrok qo`llangan davriga to`g`ri keladi. Ba`zi o`rinlarda har ikkalasi parallel qo`llangan: *idi-izi (janob-xudo), qaygu, qayguluq* va h.o.

Morfologik xususiyatlariga nazar tashlaganda quyidagilar qo`rinadi:

qaratqich kelishigi *-niH// -H// -nuH// -i-i/-/in* affiks variantlariga ega: *ArabnuH adabi bar. Ul elih avlari.*

jo`nalish kelishigi -g`aru//-g`əry affiks variantiga ega; *tashqaru, qayg`aru, ungaru (oldinga)*

Asarda kishilik olmoshlariga kelishik qo`shimchalari ikki marta qo`shilishi mumkin: *Bizindin qachtin. Sizindin kedim.*

Jamlik son -əgu affiksi bilan hosil qilingan: *ikəgy, ychəgy.*

Tartib son-inch: *birinch, ikinch.*

Ravishdoshning -madin (*matin*) affiksi bilan hosil qilingan varianti: *Atam səzin tutmadin.*

SHart fe`liining I shaxs ko`pligida -uz (*vuz*). SHaxs son qo`shimchasi qo`llangan: *Bu uch nəsinə aḡa arguman apparsauz gərek erdi* va h.o.

CHIG`ATOY ULUSINING ADABIY TILI

XIII asrda mug`ullar istilosidan so`ng Movarounnahrda Chig`atoy davlati tuzildi. Bu davlat idora ishlarini yuritishda qoraxoniylar davridagi adabiy tilga va Xorazmdagi adabiy tilga murojaat qiladi. Lekin ko`proq koraxoniylar davridagi tilga ahamiyat berildi. Bu holat ma`lum darajada qarluq-uyg`ur tili xususiyatlarining bu tidda singab qolishiga sabab bo`lgan, chunki uyg`urlar madaniy jihatdan yuqori turuvchi qabila bo`lgani uchun mo`g`ullar hukmronligi davrida davlatning madaniy hayotida va yozuv bilan bog`liq bo`lgan deyarli barcha ishlarda muhim o`rin tutgan. Saroy doirasidagi mansabdor kishilarning bolalari uyg`urlar qo`lida o`qiganlar.

Chig`atoy ulusining adabiy tili yodgorliklarida qadimiy kitobiy *d-o`rnida* z,y undoshlarining kelganligini ko`ramiz. SHuningdek, ayrimlarida turkman, ba`zilarida uyg`ur tili xususiyatlarini uchratamiz. Chig`atoy ulusi adabiy tilining yodgorliklari sifatida «Mukaddimat-ul adab», «Yusuf va Zulayho», «Ravnaq-ul Islom», «O`g`uznoma» kabi asarlarni ko`rsatish mumkin.

«O`G`UZNOMA» ASARINING TIL XUSUSIYATLARI

O`rta Osiyo turkiy xalqlari - o`g`uz va qarluq-uyg`ur dialektining qadimgi yodgorligi hisoblangan «O`g`uznoma»ning qachon va qaerda ko`chirilganligi xaqida

hozirgacha aniq ma'lumot yo'q. N.M.Mallaev bu asarni XIII- XIV asrlarda, A.M.Sherbak XV asrda kitobat qilgan deb ma'lumot beradilar.

Nemis olimi V.Bang «O'g'uznoma»ning til xususiyatlarini taxlil qilish asosida afsonaning tilini shartli ravishda yangi sharqiy turkiy til deb ataydi va P.Pellioning fikriga ancha yaqin mulohazani ilgari suradi. A.M.Shcherbak «O'g'uznoma»ning turli qo'lyozmalarini o'rganish, uning tilini boqsha asarlar bilan qiyoslash asosida shunday xulosaga keladi: asl nusxa ko'lyozmaning tili «y»lovchi shevada yozilgan, so'z negizining fonetik shakllanishida lablashmagan tovushlar ko'proq ishtirok etadi. Asar XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Turfon (Qashqar)da yozilgan.

Qabila ittifoqlarining birlashishi tamoyilining kuchayishi, buning natijasida ancha qat'iylashgan qarluq, uyg'ur, o'g'uz tili xususiyatlaridan tashqari, keyinroq kirib qolgan qipchoq unsurlari ham asar tilida aks etgan. Bu dialektlarning hammasi esa birgalikda eski o'zbek tilining negizini tashkil qiladi.

Asarda qadim zamonlarda yaratilgan mifologik afsonalar bilan birga dahshatli istilo va urushlar tasviri berilgan. Bu, ehtimol, Chingiz istilosining in'ikosi bo'lishi mumkin. Asar tilidagi mo'g'ul elementlari ham shundan dalolat beradi.

Asar tilida qarluq-uyg'ur, o'g'uz qabila ittifoqi xususiyatlarini uchratamiz. Afsona tilida yuqori-tor unlilardan so'ngi til orqa unlilarning qo'llanishini ko'ramiz: adug, tirig, tag` va x.o. Darhaqiqat, «O'g'uznoma» tilida nisbatan yangi fonetik, leksik va fannatik xususiyatlar anchagina uchraydi. Masalan, so'zda d, dz ga nisbatan y tovushining ustunligi hodisasini ko'rish mumkin: adg`ir, qon o`rnida ayg`ir, qoy ishlatiladi. Ammo bu holat hali qat'iy bo'lmay, ularning muvoziy qo'llanishi ham uchraydi: *ayg`ir, adug (ayiq) kabi. Unlilar uyg'unligi to'la saqlangan: urungudun son qalmlari (eshik) tzmurdun erdilar.* Undoshlarda jarangsizlanish hodisasi kuchli: atni keldurdi. Tan erte boddukta. So'z oxirida tor va keng unlilardan keyin tilrrqa *g`, g* tovushlari saqlanadi: tirig, olug, tag`, adug`. Kishilik olmoshlarining I shaxsida *b* undoshi *m* shaklida keladi: *baluqni (shahar) benga saqlab kelgil. Menge atam bu baluqn'!* Berub turur. Qaratqich kelishigining *-n'ı, -nuı* turlari ko'proq uchraydi:

bəshin əgʊlm, ogʻuz qagʻanniʁ ati, anuʁ bashi, qagannuʁ chərigi kabi.

Asarda tushum kelishigining qadimgi *-igʻ,—ig* affiksli shakli, *-i/-n,-/i/-n* affiksi orqali yasalgan shakli qoʻllanmaydi. Asarda *-duk, -dyk, -gʻu, -gy* affiksli sifatdoshlar uchrab turadi: *yibarguda erdi. Urushgʻudun son. Ogʻuz kərdyktə əzi kətti* kabi.

Tartib sonlarning ikkinchi (ikkinchi oʻrnida), *ychynchy, ychynchi* (*ychynch* oʻrnida) shakllari qoʻllangan. SHart feʼli asosan *-sa* (*-sar* oʻrnida) affiksi bilan keladi:

birinchisiga Kun at qoydʻshar, ikkinchisiga Ay at qaydʻshar..., kulsm, yshlasa kabi.

Bu yodgorlikda leksik jihatdan tapuq (xizmat), təlim (koʻp), tugʻ (bayroq), baluq (shahar), bərgu, qapugʻ, uqgʻulugʻ, chərig, muran (daryo), achqich (kalit), toqush, koruklug kabi eski turkiy, moʻgʻulcha soʻzlar uchraydi. Bu faktlar asarda qarluq-uygʻur tili xususiyatlarining ustun ekanligini koʻrsatadi. Asar tilida uchraydigan bir qator moʻgulcha soʻzlar esa oʻsha davrlarda turkiy tillarga kirib oʻzlashib qolgan yangi leksik qatlamni tashkil qiladi. «Oʻgʻuznoma» asarining tili faqat baʼzi bir xususiyatlari bilangina eski oʻzbek adabiy tilidan farq qiladi, u koʻproq qarluq-uygʻur tili anʼanalariga yaqin turadi. Demak, «Oʻgʻuznoma» asarining til materiallari orqali eski oʻzbek adabiy tilining qarluq-chigil-uygʻur til birligi bilan yaqin munosabatda, uzviy aloqador ekanligi aniqlanadi.

Soʻz oʻrtasida d-y tovushlari almashadi; *adug-ayugʻ*

Jamlik son: - *egu, uch egu, ik egu, besh egu.*

Harakat nomi: *-ish// -ish/-/sh* affikslari va h.o.

Afsona tilida X- XII asr yodgorligida uchrovchi tushum kelishigining *-igʻ//ig* I qurol vosita kelishigining *-in/-/n* affikslari bilan h.k. formalari uchraydi.

YUqoridagi faktlar «Oʻgʻuznoma» asarining XIII- XIV asr yodgorligi shu davr adabiy tilining namunasi deb karashga toʻla imkoniyat beradi.

«TAFSIR» ASARINING TILI VA USLUBI

Eski o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri Qarshi shahrida topilgan «Tafsir» asari hisoblanadi. Bu asar «O'rta Osiyo Tafsiri» deb ham yuritiladi.

«Tafsir» - «Qur'on»ning so'zma-so'z tarjimasi, izohlar, sharxlar va tushuntirishlardan iboratdir. «Tafsir»da 18-suradan boshlab «Qur'on» tarjimasi va sharxlar va izohlar beriladi. Asarning birinchi qismida har bir suradan keyin uning mazmuni bilan bog'liq xikoyalar berilgan. Ikkinchi qismida esa suralardan izohlar va she'riy parchalar berilgan. Kitobda «Tafsir»ni tartib bergan va ko'chirgan kishilarning nomi ko'rsatilmagan. Asarning yozilgan vaqtini belgilash juda qiyin, uning matnida bu haqda hech qanday ma'lumot yo'q. SHuningdek, asarning birinchi asl nusxa qo'lyozmasi ham aniqlangan emas. «Tafsir»ning til xususiyatlariga asoslanib, V.V.Bartol'd uning XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» dostonidan ham ilgariroq yozilgan bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Turk olimi A.Erdogan «Tafsir»ning lug'at tarkibi jihatidan «Devonu lug'otit turk» leksikasiga yaqin ekanligiga, unda diniy tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralarning turkiy tilga tarjima qilib berilganligiga asoslanib, uning asl nusxasi X-XI asrlarda yozilgan degan fikrni bayon qiladi. «Tafsir» tiliga xos bir qator leksik va morfologik xususiyatlarning «Hibatul haqoyiq» asarning tiliga ancha yaqinligini hisobga olib, S.E.Malov bu asarni XII asr yodgorligi deb hisoblaydi. Bu asarning tili to'g'risida katta ish olib borgan A.K.Borovkov «Tafsir»ning dastlabki davri X asr oxiri bo'lib, asarda mo'g'ullar va keyinroq Temuriylar davriga xos so'z va atamalarning qo'llanishi hamda uning fonetikasi va morfologiyasida uchraydigan yangiliklar mazkur Qarshi ko'lyozmasi XV asrda qayta ko'chirilgan bo'lishi mumkin, deb izohlaydi. SHunga ko'ra u «Tafsir»ni XP-XSH asrlarning yodgorligi deb qaraydi.

SHuni qayd etish kerakki, til xususiyatlari jihatidan «Tafsir, asosan, adabiy *d/dz/* tiliga xos bo'lgan X1-XSH asr yodgorliklariga yaqin turadi. SHu bilan birga bu asarda juda ko'p xollarda *d/dz/*ning *y* ga o'tishi hodisasi ham uchraydi: adshr - ayshr, adnr - aynr kabi. Bundan tashqari, asarning bir qator leksik va morfologik

xususiyatlari ham uning tili shu davrlarda yaratilgan «Devonu lugʻotit turk», «Hibatul haqoyiq», «Qutadgʻu bilig» kabi yodgorliklarning tilga yaqin ekanligidan guvohlik beradi. Masalan, «Tafsir»da *tabaru* (tomon), *bodun* (xalq), *arigʻ*, *asigʻ* (foйда), *tumlugʻ* (sovuq) singari koʻplab oʻsha davr yodgorliklari tili uchun xos boʻlgan soʻz va iboralar qoʻllangan. Tushum kelishigining *-igʻ*, *-ig* affiksli shakllari uchramaydi. Kishilik olmoshining joʻnalish kelishigida *anar* (aydi, anar) shakli uchraydi. Aniq oʻtgan zamon feʼlining birinchi shaxs koʻpligi *bardimiz*, *kaldimiz* (*qamugʻ bərdimiz aḥar hikmat bilig*) shaklida ham kelgan.

Asar tilida ham sharqiy turkiy (qarluq-uygʻur), ham gʻarbiy turkiy (oʻgʻuz-turkman) fonetik, morfologik va leksik unsurlarning muvoziy holda qoʻllanishi koʻp uchraydi: inkor bildiruvchi *ermas*, va *ermaz*, *tagul* va *dagul*, *ilgəry* va *iləry*, *ant* va *And*, *tarigʻ* va *darigʻ* *tagra* va *dagara* (*tevarak*) kabilar.

SHarqiy turkiy va gʻarbiy turkiy til unsurlarining bunday aralash holda ishlatilishi faqat «Tafsir» tili uchungina xarakteri emas. SHu davrlarda maydonga kelgan Alining «Qissai YUusuf», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xisrav va SHirin» kabi qator adabiy yodgorliklarida shunday hodisani - sharqiy va gʻarbiy «turkiy unsurlarning aralash holda kullanganligini koʻrish mumkin. Bu hol XSH-XU asrlarda sharqiy qarluq-chigil-uygʻur tili va gʻarbiy oʻgʻuz-qipchoq tillarining qoʻshilib ketishi asosida eski oʻzbek adabiy tili tashkil topganligini tasdiklaydi.

OLTIN OʻRDA ADABIY TILI

Oltin Oʻrda adabiy tili qarluq-xorazm adabiy tili taʼsirida rivojlandi. SHuning uchun Oltin Oʻrda tsikliga kiruvchi yodgorliklarni koʻpchilik adabiyotlarda Xorazm yodnomalari deb ham yuritiladi. Xorazm yodgorliklarida qoraxoniylar davri adabiy tili, oʻgʻuz, qipchoq elementlari aralashgan, bu bilan esa umumxalq tili grafik kurilishi va leksikasini boyitgan.

Xorazm yodgorliklari umumiy bir adabiy normaga ega emas. Asarning yozilgan oʻrniga qarab, fonetik grammatik va leksikasi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan. Masalan; «Muhabbatnoma» va «Nahjul Farodis» kabi asarlarda oʻgʻuz va qipchoq elementlari aralash holda qoʻllansa, «Xisrav va SHirin», «Meʼrojnom»

(Muhammad payg`ambarning Makkadan Quddusga borishi va Quddusdan ko`kka chiqishi haqidagi noma) kabi asarlarda o`g`uz, qipchoq hamda koraxoniylar davri tilining aralash qo`llanilganini ko`ramiz.

Oltin O`rda adabiy tilining eng xarakterli yodgorliklaridan biri Qutbning «Xisrav va SHirin» dostonidir.

«XISRAV VA SHIRIN» DOSTONINING TIL XUSUSIYATLARI

A.M.SHcherbak asar tili Oltin O`rda turkumiga kiradigan «Muhabbatnoma» va «Tashshuqnoma» asarlari tilidan lug`aviy, fonetik va morfologik jihatdan farqlanishi, ayni zamonda qoraxoniylar davri yodgorliklari bo`lgan YUsuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» va Ahmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari bilan bir qatorda turishini aytadi, lekin qayd etilgan asarlar tili bilan qiyoslangan faktlarni keltirmaydi, balki «Xusrav va SHirin» dostoni tiliga xos bo`lgan ayrim fonetik va morfologik xususiyatlarini sanab o`tadi, xolos.

«Xusrav va SHirin» dostoni va umuman, XIV asr yodgorliklari ustida maxsus tadqiqot ishi olib borgan e.I.Fozilov ham asar tilining «Devonu lug`otit turk», «Qutadg`u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlari tilining xususiyatlari bilan ayrim umumiy tomonlarga ega ekanligini ko`rsatadi hamda o`sha xususiyatlarni sanab o`tadi. SHu bilan birga, e.I.Fozilov Xorazm yodgorliklarining dialektal asoslari to`g`risida

fikr bildirib, unda o`g`uz, qipchoq, bulg`or, uyg`ur unsurlarining sinonimik qo`llanishini ta`kidlaydi hamda P.M.Melioranskiyning «dialektal rang-baranglik» haqidagi fikriga to`la qo`shiladi.

SHu munosabat bilan ayrim mulohazalarni bildirish o`rinli bo`ladi. «Husrav va SHirin» asari ma`lum adabiy til an`anasi yuzaga-kelgan davrda yaratilgan. Bu davrda adabiy tilda endigina me`yorlar tizimi paydo bo`la boshlagan edi, ayni zamonda, qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy til an`anasining ta`siri kuchli edi, chunki o`sha davrda o`zini olim va fozil sanagan har bir kishi butun sharqqa mashxur bo`lgan «Qutadg`u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlarini o`rganmasdan,

undan bahra olmasdan qolmas edi. Ma`lumki, sanab o`tilgan asarlar tilida ham qarluq ham chigil dialektlarining xususiyatlari aks etgan, SHu jixtdan ham «Xusrav va SHirin» dostoni tilida uyg`ur tili unsurlari bo`lgan. Aslida uyur tili unsurlari to`gridan-to`g`ri uyg`ur tili yoki uning dialekti ta`sirida emas, balki mavjud adabiy til an`anasi tufayli yuzaga kelgan. Anglashiladiki, asar tili shevasi xususida gap borar ekan, «dialektlar rang-barangligi» haqida emas, balki o`g`uz-qipchoq shevasining qisman ta`siri haqida so`z yuritish mumkin bo`ladi.

SHu munosabat bilan yana bir fiktga oydinlik kiritishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. O`zbek adabiy tili tarixiga nazar tashlasak, XSH-X1U asarlarda endigina eski turkiy adabiy tildan ajralib chiqa boshlagan eski o`zbek adabiy tilining «qarluq-xorazm adabiy tili «CHig`atoy ulusi adabiy tili», «Oltin O`rda adabiy tili» degan yorliqlar bilan yuritilganini ko`ramiz. Sirtidan qaraganda, o`zbek adabiy tili xususida deyarli gap bormayotgandek tuyuladi. Nima uchun bir adabiy tilni turlicha nomlash zarur bo`ladi? Aslida bunga hojat yo`q, chunki XSH- XIV asrlarda garchi ma`lum darajada dialektal farqlar mavjud bo`lsa-da, ularni turli-tuman adabiy til manbai sifatida karash mumkin emas. Bu kisha davrdagi adabiy tilning turlicha nomlanishida, ayniqsa, «CHig`atoy», «Oltin O`rda» nomlari bilan yuritilishida ilmiy-lisoniy asos yo`q bo`lib, u ko`proq bosqinchilik siyosati bilan bog`langan edi. SHu tufayli XSH- XIV asrlarda yaratilgan va yuqoridagidek turlicha nomlanib kelingan asarlar tilini adabiy til nuqtai nazaridan umulashtirib o`rganish kerak, lekin o`ziga xos tomonlari bo`rttirib ko`rsatilishi lozim, deb hisoblaymiz.

N.M. Mallaev «Xusrav va SHirin» dostoni XIV asr o`zbek adabiy tili va Xorazm dialektining muhim yodgorligi ekanligini ta`kidlaydi. Bu fikr ham izoh talab qiladi. Umuman olganda, har bir badiiy asarni ma`lum dialekt bilan bog`lab qo`yish mumkin emas, chunki avval ta`kidlaganimizdek, badiiy asar til an`anasi asosida yuzaga keladi, ya`ni ma`lum dialektning badiiy asari haqida so`z yuritib bo`lmaydi. SHu ma`noda «Xusrav va SHirin» dostonining tili Xorazm dialekti asosida yaratilgan deb aytish qiyin. Ikkinchi tomondan, har bir asar muallifi muayyan dialektning vakili bo`lganligi uchun ham asarida o`z dialekti unsurlaridan foydalanishi aniq. Bu esa badiiy asarni ma`lum dialekt bilangina bog`lab qo`yish uchun asos bo`la olmaydi.

N.M. Mallaevning yuqoridagi fikri adabiyotchilarga xos mubolag`a bilan aytilganini ta`kidlash o`rinli bo`ladi.

Asar tilining fonetik jihatdan kaysi dialektga aloqadorligi masalasi ham e`tiborni tortadi. Bu masalada ham ixtilofli fikrlar mavjud. A.M.SHcherbak asar tilida qorishiq undoshining keng qo`llanishini ta`kidlaydi, lekin U. Tursunov va B.O`rinboevlar Oltin o`rda adabiy tilining dialektal o`ziga xosligini ko`rsatishda undoshining «y» undoshiga mos kelishi bilan izohlaydilar. Ularning bu fikri bevosita «Xusrav va SHirin» dostoniga ham tegishlidir. Bizningcha, bu masalaga e.Najib to`la aniqlik kiritgan edi. e.Najib ajoyib faktni keltiradi. Uning ko`rsatashicha, asarda 67 ta so`zda undoshi qayd qilingan. SHundan 29 tasi takrorlanmaydigan so`zlar (o`zaklar) bo`lib, 11 tasida «y» muqobillari, 2 tasida esa «z» muqobillari mavjud. Demak, 16 tasida «y» undoshiga o`tmagan, ya`ni muqobil bo`lmagan undoshli so`z qayd qilingan.

Q.Mahmudov XP1- XIV asrlar yodgorliklari fonetikasini o`rganar ekan, «Xusrav va SHirin» dostonida /dz/ undoshi bilan yonma-yon qo`llanganini aytadi, lekin «y» undoshi bilan yonma-yon qo`llanganini aytadi, lekin «y» undoshi bilan almashgan o`rinlarga misol keltirmaydi, aksincha «d» undoshli so`zlarga — adaq, —qadg`u misollarini keltirish bilan chegaralanadi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, asarda hamon dz — lashish saqlanadi. Misollarga murojat qilamiz: *adz—ism, egarlamoq, ədzgarlamak— egarlamoq, ədzgulik — yaxshilik, udzimaq -uxlamoq umidz—umid, shadzliq— shodlik, qudzi - quyi, kydzəky —kuyov, pochcha va boshqalar.* Matndan misollar keltiramiz.

Adaqi yer yyzini barcha kezmish,

Feyaek anıñ ishin roy'shcha tyzmish. (138)

Og`ul ədgy yaman che qilsa andin,

Kəry öz og`li yandurg`ay jazasin. (141)

Pərilər birlə yetti ersə ul hur,

DOSTON TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

E.Najib doston tilida 2500 turkiy soʻzlar qoʻllanganligini qoʻrsatadi. Bu raqam ichiga soʻzlarning variantda yozilishini ham kiritgan. Masalan: aktachi, tabib), (ev) va boshqalar.

Doston leksikasida umumturkiy soʻzlar 39 % ni tashkil etadi, qolgan soʻzlar esa oʻgʻuz (12), qipchoq (8), janubi-sharqiy dialektga oid (21), oʻgʻuz (3), sharqiy klpchoq (14) unsurlaridan iborat. Turkiy soʻzlar doston tilida taxminan 65 % tashkil qiladi. SHu bilan birgalikda doston leksikasida quyidagi qatlamlar koʻzga tashlanadi:

1. Turk-moʻgʻul tillari davriga oid soʻzlar. Maʼlumki, turkiy tillar moʻgʻul tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil etadi. SHuning uchun ham asar tilida (umuman, har bir turkiy tilda) turkiy va moʻgʻul tillari uchun umumiy leksik qatlam mavjud. Buni quyidagi soʻzlar misolida koʻrsatish mumkin: *Adaq, idi (hokim), eren (kishilar), arpa, art, erte (erta) arsyaaan, armtmak (tozalamoq), asan (eson), al (qizil), altun, aldagʻ (aldoqchi), alms, alma, empæk, uminj (umid), anbar (saroy), av (ov), uzuk (gʻam), ork (asos), urugʻ (oila), ulus, elchi, bagʻ (bogʻich), bal (asal), bilik, tabaq (ovqat), tabgʻ (xizmat), sormaq (soʻrmoq), sunmek (taklif qilmoq), qatn (qattiq), qan, qaraq (koʻz qorachigʻi), qarshm (saroy), qargʻu (koʻr), qamugʻ (barcha), qonragʻu (qoʻngʻiroq), qir (choʻl), keræk, kœks (koʻkrak), kichi (kichik), mal (boylik), yyryk, yyz, yil, yimish (meva) va boshqalar.*

2. Arabcha-foscha soʻzlar. Doston tilida arabcha-forscha soʻzlarning boʻlishi ikki munosabat bilan izohlanadi, yaʼni asar bevosita fors-tojik tilidan tarjima qilinganligi tufayli ham fors-tojikcha soʻzlardan foydalanish zaruriyati boʻlgan; ikkinchidan, muallif yashagan vohada turkiy til fors-tojik tilini allaqachon siqib chiqargan boʻlsa-da, bu til unsurlari hali isteʼmolda boʻlgan. Arab tili unsurlari esa bevosita islom dini taʼsirida hamda fors-tojik tili orqali oʻzlashib qolgan. Asar tilida quyidagi arabcha/soʻzlar qoʻllanadi: *ajal, āxir, āadam, asbāb, atrāf, imin (tinchlik), hukm, xazina/azaz, adl, fālæk, quvvat, qaysar, vasiyat, yas (motam).*

Quyidagi kabi forscha soʻzlar qoʻllangan: *ārām, āzād, tāj, taxt, xasta,*

xumār (maslik), dushvār, rustā (qishloq), magar va boshqalar

Asarda sinonimlarni qo'llashga ham e'tibor berilgan. Quyida sinonimlar qatoridan ba'zilarini keltiramiz: *adih-əhın (boshqa), əkysh-ingən-təlim (ko'p), yig'li-səgəl (kasallik), uzaq-alis-yirak (uzoq), el-ulus (el), yazmaq-yan'shmaq (yanglishmok)*.

Juft so'zlar ham qo'llangan: *arti-arqasi, ash-su altun-kymysh, ayaq-chanaq (idish), ichi-tashi, erkək-tishi (er-xotin), barim-yoqim (mol-dunyo), biru bar (xudo), kəz-qulaq, malu tavar (boylik), artuq-əksyk (ortiq-kam)*.

DOSTON TILINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Doston tilida asosan 9ta unli, arab-fors so'zlaridagi ā bilan birgalikda 10 ta unli qo'llangan : *a, ā, ə, o, ɵ, u, ʏ, i, i, e (e)*. Bunda alif *a, ā, i, i, u, ʏ, o, ɵ* unlilarini *yoy i, i, e (e), ā* unlilarini Vov esa *u, ʏ, o, ɵ* unlilarini, *hoyi havvaz e, a* unlilarini ifoda qilishda qatnashgan. Bu transkriptsiya beyagilarining izohi o'zbek tilining tarixiy grammatikasiga oid asarlarda berilganligi tufayli ularga maxsus to'xtalmasdan dostonidan quyidagi misollarni keltirish bilan chegaralanamiz:

Ataga kim bu yanlig` qilsa xizmat

Oz ogl'sh'sh an'shtek tapg`a izzat (141)

Adl belgusi bilgurdi ozində,

Jahan tutmaq nishanm ham yuzində. (141)

27 Bu kichik matnda yuqoridagi barcha unlilar aks etgan.

Adabiyotlarda (*dz*) -*d* undoshining turkiy tillarda qo'llanishi haqida aynan bir xil fikr bayon qilinadi, ya'ni bu undoshning qadimgi turkiy tilda bo'lmaganligi, lekin turkiy urug'lardan biri bo'lgan chigillar dialektiga xos ekanligi aytiladi va *d-d-z* taraqqiyoti ko'rsatiladi. Haqiqatan ham, qadimgi turkiy til bo'yicha yaratilgan darsliklarda (*dz*) undoshi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Ayrim ishlarda undoshining paydo bo'lishi XI—XII asrlar bilan belgilanadi.

Endi bu undosh keyingi hodisami? degan haqli savol tug'iladi. SHuni aytish kerakki, tilda toshush tarkibi aslida murakkablik tomoniga emas, balki

soddalik sari tarakqiy etadi. agar bu fikrdan kelib chiqadigan bo'lsak, undoshi *d* undoshining taraqqiyotidan hosil bo'lgan deb hisoblash mumkin emas.

«Xusrav va SHirin» dostoni tilida singarmonizm qonuniyati to'la amal qilgan. Ma'lumki, singarmonizmning ikki turi mavjud. Turkiy so'zlarda tanglay uyg'unligi to'la saqlanadi:

Kel, emdi sen bu opkələri qoyg`il,

Bir ancha ham nifāq, bilə uzr qil. (273)

Bu baytda *emdi, opkelerni, koyg`sh, ancha, bile* so'zlarida tanglay uyg'unligi saqlangan lekin arab, fors tillarida o'zlashgan so'zlarda (o'zak va qo'shimchalarda) bu qonuniyatning amal qilishi kat'iy emas. Arabcha va forscha so'zlarda tanglay uyg'unligiga rioya qilinishi bundan chekinishni va bundan chekinishni quyidagi misollarda ko'rsatishga harakat qilamiz:

1. O'zak (arabcha, forscha) va qo'shimcha (turkiy)larda tanglay uyg'unligi saqlanadi:

Ne səz kim aydin ul yerlik yerində,

Xatāsi yoq bu səzlərnin birində. (225)

2. Turkiy o'shimcha arabcha, forscha so'zning oxirgi bo'g'iniga uyg'unlashadi:

Yelib yelteḡ ravān ul tag`qa yetti,

Belin bag`ladi istidadin etti. (235)

Vəfālig` qulni bir yoli unutma,

Sut orniqa yana ag`u tatutma. (238)

Lab uyg'unligiga ham amal qilingan. Barcha bo'g'inlarda lab uyg'unligi saqlanadi:

Qamug` tırlyḡ kərkyḡ bir illākim darig` ul,

Tabar tekmə kishilər tabg`inḡa yol. (256)

CHiqib siz tash eshikdā olluruḥuz,

Yavuq yetse, baqib yaxshi kōrḡḡz, (263)

2. Qo`shimcha so`zning oxirgi lablangan bo`g`ini uyunlashadi:

Va lekin men turub chiqqm`shda kedin,

Tonub kedurub qaravashlardan birin. 256)

Yazukluq qullar istig`farm haqqi,

Hajilliq yishisi zāri haqqi (261)

3. Lab uyg`unligi buziladi:

Hanuz shukriḥni aytu bilməgəymən,

Tumandin birin aytu bilməgəymən. 261)

Lab uyg`unligidan chekinish holatlari qonuniy emas, balki uning qonuniyatlarini o`rganish til bilimimizning navbatdagi vazifalaridan biridir.

Morfologik xususiyatlar

Doston morfologiyasida, bir tomondan, eski turkiy til an`analari saqlandi, ikkinchi tomondan, keyinchalik u eski o`zbek adabiy tilida me`yorga aylangan morfologik shakllar bilan boyidi.

Doston tilida ham «Devonu lug`atit turk», «Qutadgu bilig», «Hibatul xaqoyiq»tiliga xos bo`lgan quyidagi til xususiyatlarini ko`ramiz: Qaratqich kelishigi *-im* qo`shimchasi bilan ham hosil qilingan:

Qulin g`ura menim yetkəngə berdi,

SHəkər shura menim tekəngə berdi. (140)

Tushum kelishigining ba`zan *-g /—ig* qo`shimchasi bilan hosil qilingan shakli uchraydi:

Jahān tapti ersə jānni ushbu yerik (g), 29

Nedin bizlərgə kōrinḡr tushdā aytek. (310)

Bu misolda **yerik** soʻzidagi *-ig* qoʻshimchasi keyingi satrdagi *aytek* soʻziga qofiya qilinishi munosabati bilan jarangsiz undosh bilan berilgan, lekin yozuvda har ikkala soʻz kof (س) bilan yozilgan. Demak, muallif yozuvdagi kofiyani saqlash uchun kofni ishlatishga majbur boʻlgan. SHuningdek, bu qoʻshimcha doston tili uchun tipik emas. Maʼlum boʻladiki, bu oʻrinda muallif qofiya talabi bilan arxaik tushum kelishigi qoʻshimchasidan foydalanishga majbur boʻlgan.

Vosita kelishigidan unumli foydalanilgan:

Nizamiy nazmi yanlmgʻ tuz sozunni, Anʻsh bilgut xanina
bu ozunni. (135)

Aniḥ soʻzi bu erda u bilan, oʻsha bilan degan maʼnoni bildirgan.

Ajun xushluklarmndin konlm kechti,

Öz eligin bashina tupraq sachti. (206)

Asar tilida chiqish kelishigi *-din -din -tin -tin* qoʻshimchalari bilan hosil qilinganligi normaga muvofiq keladi. SHu bilan bir qatorda doston tilida qadimgi turkiy tilda bu qoʻshimchalar bilan yondosh qoʻllangan *-dan/ -dān* qoʻshimchasi uchraydi. Bu qoʻshimcha varianti qoʻllanishining ikki sababi haqida fikr yuritish mumkin:

1. Bevosita qadimgi turkiy til unsurlarining saqlanib qolishi deb ham tushunish mumkin.

2. Lozim boʻlgan oʻrinlarda toʻla kofiya va vaznni saqlash uchun ham bu variantda foydalanilgan boʻlishi mumkin.

Yana shahzādaniḥ xizmatchi ogʻlan,

Kychəmləb gʻura almish teyy bagʻdan. (139)

Bunda *ogʻlan* va *bagʻdan* soʻzlarining toʻla qofiyasiga erishish niyatida shoir *-dan* qoʻshimchasidan foydalangan. Buni quyidagi baytlarda ham koʻrish mumkin:

Sabaq almish havāda qushlar andan,

Suvda ivrəkchə qorqmaz bolsa tofan. (145)

CHechəkni tāza erkən termədim men,

Yel eltti nāgahān kezləndi kəzdən. (146)

Demak, asar tilida *–dən* variantining qoʻllanishini yuqoridagi ikkinchi sabab bilan bogʻlanish mutlaqo toʻgʻri boʻladi.

Joʻnalish kelishigani shakllantiruvchi koʻrsatkich sifatida *–kə -qa* qoʻshimchalarining qoʻllanishi asar tilining meʼyorini aks ettiradi, yaʼni til oldi unlili asosga *–kə*, til orqa unlili asosga *-qa* varianti qoʻshilgan.

Ukush səz barcha hālda yaxshi bolmaz,

Teyu sabr ishkə bagʻlab qildʻlar rāz. (181)

Munuhtek ayti ul səz aygʻchi pir,

Netekkim chiqti sahrāqa jahāngir. (180)

Demak, kadimgi turkiy tilga xos bu xodisa «Xusrav va SHirin» asarida ham davom etgan.

hgʻa - xizmatingʻa, tobingʻa (184) kabi koʻrinishga ega boʻlgan oʻrinlarga ham duch kelish mumkin. Bu koʻrsatkich arab alifbosida ham nunu kofu alif, nunu gʻaynu alif bilan berilgan.

Bunda ikki xil fikr yurtish lozim buladi:

1. Bu soʻzlardagi *n* undoshini oralik (interkalyar) tovush deb tushunish mumkin, chunki bu tovush hozirgi oʻzbek tilida ham qoʻllanib kelmokda.

2. eski oʻzbek yozuvida ham hozirgi oʻzbek yozuvida ham shunday nokulayliklar mavjudki, jonli tiliga xos boʻlgan barcha imkoniyatlarni berish qiyin. (Bunday qiyichilik dunyodagi deyarli barcha yozuvlarda mavjud.) Buni maʼlum darajada transkripsion belgilar bilangina amalga oshirish mumkin. SHu munosabat bilan qadimgi turkiy tilda ham boʻlgan, mazkur doston tilida ham davom etgan joʻnalish kelishigining *–nə-na* variantlarini arab yozuvida ham, xozirgi oʻzbek yozuvida ham oʻquvchiga etkazish qiyin, yaʼni *–hə -ngʻa* () shaklida yozuvida

namoyon bo'lishi kutilgan natijani bermaydi. Afsuski, kotiblarning —*nə -na* qo'shimchasini nuni kofu alif hamda g'aynu hoyi havvaz bilan berishdan boshqa iloji ham yo'q edi.

Tartib sonning qadimgi turkiy til xos bo'lgan *-nch* qo'shimchasi bilan hosil qilingan varianti qayd qilinadi:

Ikinch elgə alib ul teshəsini,
Yana bashlar uzaqi peshəsini. (239)

Ortirma darajasi sifati *kəd, yavlaq, asru, asri (juda)* ravishlari bilan ham hosil qilingan:

Fələk astinda kezdim muncha afak,
Ajayib kərdym ichrə yavlaq. (143)
Bu o'rinda *yavlaq* so'zi ajayib sifatiga aloqador.
Qamug' barcha shahdin alur mālu xirajin,
Agar berməsə tushrur bashda taj'yu.
Yana ush bizgə davlat yari keldi,
Ne kim saqindi o'z bash'āa keldi. (213)

Fe'ning amaliy shakllarida hozirgi davrda mavjud bo'lgan qo'shimchalar bilan birga qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan qo'shimchalar ham qo'llangan:

-ig'li /—igli sifatdosh qo'shimchasi:

Qayu majlisdakim səzləsə ul ay,
Oqig'lilar qilur erdi təlim vay. (227)

-u —u, -yu -yu ravishdosh qo'shimchasi:

Bu yaŋlig' səzlər aytu, yig'lag'u zār,
Yuzin surat oŋinda yergə surtar.(239)

-madin ravishdosh qo'shimchasi:

Axir ush ikkimizdin özge kim bar,

Saq'nmadin saqinmaq nedin, ey yār. (195)

SHart maylning 11 shaxs birligida -naḥ –nəḥ qo'shimchasining qo'llanishi ham doston tilining o'ziga xosligidir:

Agar kert-u musulmān ersənəen bir,

Nedin qilmazsen ul āvāzi təkbiṛ. (260)

Ush andin aydi: «Ey farzāna Farhād,

Kerəkkim qilsaḥan emdi meni shād». (288)

Buyruq-istak mayli feg'lining 111 shaxsida -su -sy qo'shimchasi katnashgan.

Buyurdi kelsy teb barbatchini shāḥ,

Achiq bolsun tedi kelginchə dargāḥ. (215)

Kishi kirməs bag'chilar bag'ina,

Tavar syməesynlər ham terlanlarina. (138)

Lekin -sun -syn qo'shimchasi ham qo'llanganligi yuqorodagi misollardan ko'rinib turibdi.

So'z shakllarida o'g'uz guruhi tillarining fonetik xususiyatlari saqlanadi:

a) bo'lishsizlik shaklidan so'ng kelasi zamon sifatdoshi -z qo'shimchasi bilan hosil qiluradi:

Qamug'din ozrub ul xidmat jahānniḥ,

Kechyrməz erdi xidmatsiz zamāniḥ. (138)

b) hozirgi-kelasi zamon fe'li bo'lishsizi -man -men qo'shimchasi bilan qo'llangan:

Melikmən yazuqni bilmən tedi hech,

Ayittlar kechə kim qaldi ul kech. (139)

Forsiy morfologik unsurlardan ham, ya'ni «yoye ishorat» shaklidan ham foydalanilgan:

Xanim birlə məlikə atina bir

Kitabe qıl ka qıl tedi tadbir. (135)

Agar uchtmāxda hure ersə mashhur

Ul el uchtmāx eryl ul fitnalar hur. (145)

Savol va topshiriqlar:

1. XIV asrdagi tarixiy jarayon va adabiy til an'anasi haqida gapirib bering.
2. Bu davrning tayanch dialekti deganda nimani tushunasiz?
5. XI-XIV asrlarda adabiy tilning «Qoraxoniylar», «Oltin O'rda» va «CHig'atoy» nomlari bilan atalishi va uning sabablari nimadan iborat. Bu davr yozuv yodgorliklarini sanang.

Tayanch tushunchalar:

Karluq-xorazm adabiy tili - qoraxoniylar davlati hukmronligi tugagandan keyin vujudga kelgan adabiy til bo'lib, bu til mo'g'ullar istilosidan so'ng ikki bir-biriga yaqin bo'lgan adabiy tillarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri Oltin O'rda yoki Xorazm adabiy tili va ikkinchisi CHig'atoy ulusining tili.

Oltin O'rda adabiy tili – XII-XIV asrlarda Xorazmni ham qo'shib olgan Oltin O'rda davlati tuziladi. Oltin O'rdaning bir qismi bo'lgan Xorazmda adabiy til qipchoq-o'g'uz tili elementlari asosida rivojlandi. Shuning uchun Oltin O'rda tsikliga kiruvchi yodgorliklarni ko'pchilik adabiyotlarda Xorazm yodnomalari deb ham yuritiladi.

CHig'atoy adabiy tili – Mo'g'ullar istilosi natijasida tuzilgan davlat CHig'atoy davlati deb yuritila boshlandi. CHig'atoy adabiy tili ilmiy adabiyotlarda qoraxoniylar davrida tashkil topgan karluq-chigil-uyg'ur va g'arbiy xorazm tilining

davomi hamda taraqqiy etishi natijasida paydo bo`ldi, deb e`tirof etiladi.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O‘qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоков Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

5-MAVZU

O`zbek xalqi va uning nomlanish tarixi

Reja:

1. *O`zbek xalqi va tilining turli xil nomlanishining sabablari.*
2. *O`zbek adabiy tilining davrlashtirish masalasi.*
3. *O`zbek adabiy tilini davrlashtirishda olimlarning tasniflari va tamoyillari.*
4. *O`zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari:*
 - a) *ilk davr (XI-XIV) asrlar va eski o`zbek tili.*
5. *eski o`zbek tilining tayanch dialekti masalasi.*
6. *eski o`zbek tilida fors-tojik va arab tili unsurlarining yanada kuchayib ketishi.*

O`zbek xalqi va o`z tilining nomlanishi. O`zbek xalqi, millati nomini olgan xalq juda qadimiy tarixga ega bo`lgandek, ular tilining nomlanishi ham har xil davrlarda turlicha bo`lgan. «O`zbek» degan nomning mazkur millatga va uning tiliga nisbatan qo`llanishi Oktyabr' inqilobidan keyin boshlandi. Ungacha Evropa turkshunoslari O`zbekistonning o`troq aholisiga nisbatan sart so`zini qo`llaganlar. «Sart» so`zining lug`aviy ma`nosi hali munozaralidir. M.Qoshg`ariy uni «Savdogar» ma`nosida qo`llanganligani bildiradi. U.Tursunov va B.O`rinboevlar sanskritcha sartavan (karvonboshi) so`zidan olinganligini aytadilar.

Sart so`zi har holda etnik nom emas. Bu nom shahar aholisiga ko`chmanchilar va sahroyilar tomonidan qo`yilgandir. SHuning uchun sart Navoiy va Bobur sart atamasini tojik-forslarga nisbatan qo`llaganlar. Umuman, XVI asrgacha O`rta Osiyo shaharlarida yashovchi tojik aholini sart deyilgan. SHayboniyxon istilosidan keyin bu erlardagi o`troq turkiy aholi ham ko`chmanchi o`zbeklar tomonidan sart deb yuritilgani ma`lum.

SHuningdek, o`zbek tili hamda o`zbek adabiy tili tarixda davriga qarab turk, turkiy, turkcha, turkistoncha chig`atoy, O`rta Osiyo turkiysi kabi nomlar bilan atalib kelgan. Mahalliy xalqlar o`zbek deb ataluvchi xalqni «turk» va uning tilini «turkiy» deb yuritganlar. Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug`aytayn» asarida o`zbek xalqini, turk va uning tilini turk tili deb ataydi. Masalan: «... *mening ta`bim turk lafziga muloyim tushgan uchun ta`rifida mubolag`a izhor qilurmen. Bu garib ma`ni adosida turkchada bu matla` borkim*»

«Turk» nomi M.Qoshg`ariyning «Devonu lug`atit turk» asaridayoq keng ma`noda hamma turkiy xalqlarga nisbatan va tor ma`noda SHarqiy turklarga nisbatan qo`llangan. «O`zbek» nomi esa hozirgi o`zbek xalqining bir kismini tashkil etuvchi qipchoq urug`iga mansub bo`lgan qabilalarga nisbatan ishlatilgan.

Turk nomi O`rta Osiyo, Krzog`iston, Kavkaz, Volga bo`yi xalqlariga nisbatan ham qo`llanganligidan, o`zbek tilini ulardan farqlash uchun *turkistoncha*, *chig`atoycha*, *O`rta Osiyo turkchasi* deb nomlaganlar.

*CHig`atoy* atamasi mo`gullar istilosidan keyin paydo bo`lgan. CHingizxon vafotidan oldinroq bosib olgan o`lkalarni o`g`il va nabiralari o`rtasida taksimlagan. SHunda O`rta Osiyo va SHimoliy Afg`oniston o`rtancha farzandi CHig`atoyga berilgan. CHig`atoyxon tasarrufiga qaraydigan erlar CHig`atoy yurti, eli; elatlar esa CHig`atoy ulusi; bu hududda yaratilgan adabiy, tarixiy asarlar asta sekin, davrlar o`tishi bilan chig`atoy adabiyoti, uning tili sun`iy ravishda chig`atoy tili nomi bilan yuritiladigan bo`lgan. Demak, CHig`atoy atamasi hukmdor nomi bilan bog`langan atamadir.

Navoiy «CHor devon»ida CHig`atoy, Jo`ji atamaları urug`, qabila nomlarini bildirgani haqida ma`lumot berilgan: «*Turk krvm-lari Jo`jidur, Inoq, CHig`atoy*».

Adabiyotshunoslikda *chig`atoy adabiyoti va chig`atoy tili, chig`atoy turkiysi* atamaları uchraydi. Bunda, ya`ni chig`atoy adabiyoti atamasi qo`llansa, o`zbek mumtoz adabiyoti deb tushunmoq kerak. CHig`atoy tili, chig`atoy turkiysi atamasi uchrab kolsa, uning eski o`zbek adabiy tili o`rnida ishlatilganini anglaymiz.

O`zbek xalqining kelib chiqishi tarixi, uning nomlanish tarixi xususida S. P. Tolstov, A.YU. YAkubovskiy, YA. G`. G`ulomov, L.V. Oshanin, M. Vahobov, A.Asqarov, B.Ahmedov, I. Jabborov kabi olimlarning har xil tarzdagi tadqiqotlari mavjud. O`zbek atamasi garchi «o`zi-bek» -o`ziga bek, mustaqil beglik kabi ma`nolarni bildirgan so`z deb yuritila boshlagan bo`lsa ham, qadim bu so`z nimani anglatgani aniq emas.

O`zbek so`zining kelib chikishi va qo`llanishi haqida hozircha eng so`nggi ma`lumot professor X.Doniyorov maqolasida ancha batafsil beriladi. Maqolada biz uchun yangi fikr muallifning o`zbek atamasining XI asrda ham ishlatilgani haqidagi aniq manbalarga suyanib keltirgan mulohazasidir. SHuningdek, bu nom bilan ataluvchi qavmlarning hozirgi O`zbekiston, O`rta Osiyo va hatto arab mamlakatlari xududida ham ancha ilgaridan beri yashab kelayotganligiga quyidagi misollar juda yorqin dalil bo`la oladi. Masalan, XI asrda Suriyada yashagan arab tarixchisi Isoma ibn Munqizning «Kitob-al e`tibor» («Ibratli kitob») degan asarida yozilishicha,

«o`zbek» qavmiga mansub bo`lgan kishilar o`sha vaqtdayoq Arabistonda ancha mavke egallaganlar va evropaliklarning salb yurishlarida musulmonlar tomonida turib jang qilganlar.

Navoiydan keyin XVI asr boshlarida o`zbek xalqi va uning tili o`zbek nomi bilan ham yuritilgan. Buni Muhammad Solixning «SHayboniynoma»sidan keltirilgan quyidagi baytdan ham bilish mumkin:

Holi aning eri Turkistondur O`zbek
eliga muazzam xondur.

SHayboniy Dashti qipchoqdan bostirib kirgandan so`ng ko`chmanchilar bilan erli qabilalar aralashib ketadilar. SHu tufayli o`zbek degan nom keyinchalik keng qo`llana boshlagan. O`zbek xalqi va uning tili qaysi nom bilan atalmasin, shu xalqning birdan-bir aloqa vositasi bo`lib keldi.

6-MAVZU

XIV ASRNING 2-YARMIDAN KEYINGI ADABIY JARAYON VA ADABIY TIL

Reja:

- 1. Bu davrdagi ijtimoiy-madaniy hayot.*
- 2. eski o`zbek adabiy tilining bu davr manbalari va tili.*

Turkologiya adabiyotlarida o`zbek adabiy tilining XI-XV asrlar hatto XIX asrning II-yarmiga qadar bo`lgan davrini nomlash va talkin qilishda turli fikrlar mavjud. Ma`lum bo`ladiki, hozirgi fanda eski o`zbek tili deb atalib kelgan adabiy tilning xronologik doirasini belgilash masalasi haligacha hal etilgan emas. Ba`zi turkologlar eski o`zbek tilining xronologik doirasini XI-XIX asrning II yarmiga qadar davr bilan belgilaydilar. Bu fikrni Venger turkologlaridan G.Vamber maydonga tashlagan. Ayrimlari esa shu tilning xronologik doirasini XI-XV asrlar bilan chegaralaydilar. SHuningdek, shu asrlar tilini maxsus nom bilan, ya`ni CHig`atoy nomi bilan ataydilar. Bu fikr turkshunoslik adabiyotlarida ancha tarqalgan fikr bo`lib, bu hozir ham ba`zi turkologlar tomonidan qo`llanib kelmokda.

CHig`atoy nomi CHig`atoy usulidagi adabiy til bilan bog`langan edi. Ma`lumki, CHig`atoy ulusining tili eski o`zbek tilining vujudga kelishida muhim rol o`ynagani haqidagi fikr bilan avval tanishib o`tgan edik.

O`rta Osiyo turkiy tillaridagi o`ziga xoslik va ajralish protsessi Temur va temuriylar davrida yanada sur`atlashgan edi.

SHu o`lkada yangi adabiy til traditsiyasi shakllangan. Bu traditsiya qoraxoniylar zamonidagi adabiy traditsiyadan o`zining «y» lashish traditsiyasi bilan farq qilgan, ya`ni bu traditsiya «y» dialekti zaminida shakllangan edi. Mo`g`ul davlatining siyosiy jihatdan zaiflashishi va hokimiyat mahalliy hukmdorlar qo`liga o`tishi bilan bog`liq ravishda adabiy tilga maxalliy dialektlarning ta`siri yanada kuchaydi. SHu ta`sirning yorqin namunasini «Xisrav va SHirin» asarida ham ko`rgan bo`lsak, Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarida yanada yorqinroq ko`ramiz.

«Xisrav va SHirin» dostonida qoraxoniylar adabiy tili traditsiyasining ta`siri kuchliroq sezilsa, «Muhabbatnoma» asarida fonetik va morfologik formalarda shu traditsiya mag`lubiyatga uchraydi.

XORAZMIYNING «MUHABBATNOMA» ASARI TILI

Xorazmiy o`zbek adabiyotida nomachilik janriga asos solgan san`atkordir. Ayni vaqtda she`riyatda ikki tillilikka ham asos solgan so`z ustasidir. U Jonibekning mahalliy bekларidan bo`lgan Muhammad Xojabekning iltimosiga ko`ra dajriy 754, melodiy 1353 yilda mashhur «Muhabbatnoma» asarini yozgan. Ma`lum kirish kism, asarning yozilish tarixi, «Muhammad Xojabek madhiyasi», ulardan keyin esa nomalar yozilgan. Nomalarning tuzilishi ham eski traditsion tartibda: oldin noma, keyin g`azal, undan keyin masnaviylar berilgan va har qaysi noma:

Saburdin yaxshi yo`qtur pasha qilsam,

Bu yo`lda sabr yo`q andesha qilsam - degan baytli naqorat bilan xotima qilingan. «Muhabbatnoma» 3 nomasi fors-tojik tilida yozilgan. Bu asar dastlabki reja bo`yicha 10 nomadan iborat edi, lekin noma tugatilgach, muallif qo`shimcha sifatida yana bir noma yozib, asarni 11 nomadan iborat qiladi.

Xorazmiy asarning xalqqa tushunarli bo`lishi uchun o`sha davr o`zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalangan. SHe`r yor vasli oshiq kechinmalarini tasvirlashda xilma-xil badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalanadi.

SHoir xalq tiliga xos o`xshatishni, metofofa va jonlantirish bilan bog`lab bera olgandir:

SHakkarmu ʻarniʻiz yo qand, yo jān,

Uyalur la`lingizdin ābu hayvān.

O`zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalangan shoir omonim so`zlar vositasida orginal so`z o`yinlari hosil qiladi:

Ashar yeldin sening yelgəndə atıñ,

Quyash yangliq jahānim tutti atıñ.

Boyung sarvu sanubartek beling qil,

Vafā qilg`an kishilərgə vafā kil.

«Muhabbatnoma» XIV asr adabiy tilining yodgorligi bo`lib, unda g`arbiy va janubiy tillarga xos xususiyatlar uchraydi.

Jo`nalish kelishigi qo`shimchasi *-ə//nə, -a//na*, tarzida: *əllinə* (qo`liga), *gavharina* (gavhariga), *nurinə* (nuriga), *bu tənə* (bu tanga).

Tushum kelishigi affiksi *-i* variantida: *kənglymi, ʻezimi*. Ravishdoshning *-gəch//g`ach*, buyruq-istak mayli *fe`li -əli//ali* (*barali, ketəli*) shart *fe`li -sar/sər* (*solisar, bolsar*) affikslari bilan shakllanadi.

Hozirgi kelasi zamon *fe`lining* bo`lishsizligi qisqargan holda keladi: *yavutman* (*yaqinlashtirmaydi*), *unutman* (*unutmayman*).

Sifatning (kelasi-zamon) *-yʻr//yur* affiksi bilan yasalgan turi ham uchraydi: *sayrayur, yasanlaytur-siginar*.

Asar leksikasida o`ziga xos xususiyatlar ko`zga tashlanadi: *SHunqar-burgut, boyla-shunday qilib, yuban-ikqilanmoq, ukush-ko`k, asru-juda, yaqtu-yoru. Yavut-yaqinlashmoq, uram-kucha, taqn-jumladan, dudaq-lab*. YUqoridagi til

hodisalarining ayrimlari uygʻur tiliga ham xosdir.

YUqoridagilardan koʻrinib turibdiki, «Muhabbatnoma» asarida ham XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida Xorazm va Muvaraunnahrda hukm surgan kitobiy-poetik til traditsiyasi davom ettirilgan. SHuning uchun unda qipchoq-oʻgʻuz va qisman uygʻur tili xususiyatlarini uchratamiz. «Muhabbatnoma» XIV asr oʻzbek adabiy tiliga katta xissa boʻlib qoʻshildi va ayni zamonda eski oʻzbek tilining keyingi taraqqiyotida muhim rol oʻynadi.

Buyuk Alisher Navoiy «Muhokamat-ul lugʻatayn»da oʻzbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus «meng» soʻzi borligini aytib, «Muhabbatnoma»dan quyidagi baytni keltiradi:

Aning kim el enganda meḡ yaratti,

Boyi birlə sachina teḡ yaratti.

Koʻrinadiki, Navoiy tomonidan «Muhokamatul-lugʻatayin» asarida shu misralarning keltirilishi shu davrda asarning til jihatdan boy ekanligidan dalolat beradi.

«Muhabbatnoma» eski oʻzbek adabiy tilini boshlab beruvchi asar sifatidagina emas, balki ayni zamonda oʻzbek adabiyoti tarixiga, ayniqsa, nomachilik janri tarakqiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatgan asardir. Uning bevosita taʼsirida Said Ahmadning «Taashshuqnoma» (XV asr), Xoʻjandiyning «Latofatnoma» (XIU-XU asr), Amiriyning «Dahnoma» (XV asr) kabi asarlar yaratilgan.

Demak, Xorazmiy oʻzbek adabiyotida nomachilik janriga asos solgan shoirdir.

OʻZBEK ADABIY TILINING MUKAMMALLASHISHIDA LUTFIY IJODINING ROLI

Oʻz davrining «Malik-ul-kalomi» deb atalgan Lutfiy oʻzining ulkan faoliyatini oʻzbek dunyoviy adabiyotiga bagʻishladi va shu yoʻl bilan oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshdi. U oʻzbek va fors-tojik tilidagi lirik sheʼrlar, devonlari «Gul va Navroʻz» hamda «Zafarnoma» tarjimalarining muallifidir.

Lutfiy gʻazallari, dostonlarining tili juda engil va xalqqa tushunarlidir.

Lutfiy g`azallarining va umuman she`riyatining mazmunliligini, badiiyligini xalq og`zaki ijodi materiallaridan hamda jonli tilga xos bo`lgan so`z va iboralardan unumli foydalangan.

Lutfiy she`ridagi misralar ma`nosini kuchaytirish, ta`kidlab ko`rsatish uchun ko`proq turkiy so`z va so`z birikmalaridan radif sifatida foydalanadi. Masalan;

Partavedur ul tabassumdinki jān derlar ani,

Soyai sarving durur hamki ravān derlar ani.

YOki:

Mahvashim, bir nazar etsəng, ne nimaḥ ʻeksygysi,

Banda sari guzar etsəng, ne niməng ʻeksygysi va h.o.

Lutfiy asarlari leksikasida asosiy o`rinni turkiy so`zlar tashkil etadi. Ma`lumki, o`zbek klassik adabiyoti asarlari leksikasida fors-tojik va arabcha so`zlar umumleksikaning aksariyat qismini tashkil qiladi. Lekin Lutfiy ijodida buning aksi ko`rinadi. Masalan, «Tā jamāliḥdin tushubturmen», «ʻOltıryur hijrān meni» jummalari bilan boshlanuvchi g`azallarida 191 leksema katnashgan bo`lib (ayrim so`zlarning takrori ham hisobga olingan), shundan 104 tasi turkiydir. Ma`lum bo`ladiki, Lutfiy ijodida turkiy so`zlar 55 va undan ortiqroq protsentni tashkil etadi.

Lutfiy asarlarining dialektal negizi masalasi ham ancha chigal masalalardan biridir. Lutfiy ijodini ma`lum bir shevaga keskin ravishda bog`lab bo`lmasa-da, unga singarmonizmli shevalar asos bo`lganligini aniqlaymiz. Uning she`rlarida lab va palatal singarmonizmga ko`plab misol keltirish mumkin: Masalan, til oldi lablangan unlilar uyushib keladi;

Kəḥyl tā āraziḡ`a boldi mushtāq,

Kəzymdə gāh qizil gyldyr, gāhi aq (128-bet).

Til orqa lablangan unlilar uyushib keladi.

Meni kərdyrgəli ul kəzi otluk (o`tluk)

Kəngylni tash etər, g`amzani chaqmaq (128).

Qog`ul (qoyg`ul) xatā yolni dag` mushk izdama sabā,

CHin sachidek chy mushk Xitād Xotanda yoq.

Aksariyat so`z va so`z formalarida palatol garmoniya saqlanadi.

Bashimg`a sāya sal, ey sarvi chalāk (kelishgan)

Ki gyldektur yaqam hajr ilkidin chāk.

Lutfiy asarlarida qadimgi turkiy qamda o`g`uz grupp tillarga xos leksik morfologik xususiyatlar aks etgan. qadimgi turkiy tilga oid *dudoq* (110) *qamuq*, *irin*, *qaroq*, *yozuq*, *o`gun* (Yyzigə sachtin ychyn tegmäsyn parishānlik), yovutmak. O`g`uz grupp tillar va shevalarga oid grammatik formalar: jo`nalish kelishigining -ə (*a*) affiksi bilan ifodalanishi.

Qorqarki, rahmi kelzə kəgum tungi yashina,

Yashtek sorar meni barur olsam chy qashina.

YOki:

Aqiqiḥni sorayin desam, aytur:

«Yaman andishalikni fikrina baq».

Qadimgi turkiy tilga oid vosita kelishigi elementlari ham uchraydi:

Sensizin qilmay tahammul nāla qilsam, qilma ayb,

Gar bu yuk yuklansa taqqa, kelgəy avdin yuz sadā.

YOki:

Nigārā, sensizin mandin (har kimdin) ne hāsīl?

Agar jān bolmasa tandin ne hāsīl ?

Kelasi zamon fe`lining g`arbiy tillarga xos formasi Lutfiy ijodida ko`plab qo`llangan:

Qaram ak ham vafāsizlar bikin

Bolmag`aysan ichi kufri tashidin. (314-bet)

YOki:

Tapqamen deb vaslidin bir kun davā

Tartaram dāim firāqiḥ dardini. (310-bet)

Maʼlum boʻladiki, Lutfiy asarlari tili eski oʻzbek tili xususiyatlarini boshlab beruvchi vosita boʻlib xizmat qilsa, asarlarining soddaligi xalq ogʻzaki ijodidan unumli foydalanishi asar tilining qam sodda va xalqqa tushunarli boʻlishini taʼminlagan.

Lutfiyning til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati haqida, «Oʻzbek adabiyoti tarixi» asari mukammal maʼlumot beradi.

ATOIYNING TUTGAN OʻRNI

«Nazm dengizining tubiga shoʻngʻib, sheʼriy durlar» yaratishiga intilgan Atoiy oʻzbek dunyoviy adabiyotining Navoiyga qadar etishgan atokli namoyandalaridandir.

Atoiy adabiy merosi bilan tanishar ekanmiz, uning xalq ogʻzaki ijodini yaxshi bilganligi va ulardan ijodiy foydanlanganligini sezamiz.

Atoiy xalq qoʻshiqlarining tili soddaligi, ravonligi va musiqiyligidan xam ilhomlanadi va uni oʻrganadi. U oʻzining 260 ta gʻazalidan 109 tasini xalq qoʻshiklari avznida yaratgan. Bu narsa uning xalq, tili boyliklaridan bahramand boʻlib, ijod etganligini koʻrsatadi.

Atoiy xalq maqollari va taʼbirlariga katta eʼtibor beradi. U xalq makollaridan foydalanish bilan oʻz gʻazallarining mazmunini ham, tili badiyiligi ham boyitdi. Atoiy xalq maqollarini aynan keltiradi va ularning mazmunini sheʼriy misralarga singdyradi:

Boldi bagʻrim suv gʻamingdin, yaxshiliq, sal sugʻa,

Axir, ey gyl, xirmānni, albatta, Zar ekkən orar,

Vasl noshi dunyāda bolmas, Ataiy, nishsiz.

Bundan tashqari, Atoiy xalq tiliga xos hazil-mutoyiba tarzida aytilgan misralardan, kontrast usulidan foydalandi. Lekin u engil kulgiga jiddiy tus

beradi. «Yʻyzigə kəp tikə baqsam, maḥa kʻylib aytur», «Ataiy, ne Kuzi toymas gadā emishtuksen?»

Atoiʻy xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanib, original oʻxshatish, kinoya, mubolagʻa, tajoxuli orifona, lof kabi badiiy tasvir vositalarini yaratadi.

SHoir omonim soʻzlar va turli birikmalar vositasi bilan chiroyli soʻz oʻyinlari yasaydi va goʻzal mumtoz tuyuklar namunasini yaratdi.

Desangkim: «Jān sipar qilgʻʻl Atayim».

Turubmen ushmunaq ʻoldʻyr, at ayim...

Yʻyzingai, ey malāhat xann, bir ach,

Toya kərsyn seni bu mustāxiq ach.

Atoiʻy asarlarining tili Oltin Oʻrda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. CHunki Atoiʻyda qipchoq tili unsurlari ustun darajada edi.

Atoiʻy gʻazallarida quyidagi til xususiyatlarini uchratish mumkin. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi *-ga* (*-gə*, *-kə*) —*qa* affikslari bilan birga *-a* shaklida ham uchraydi: *kənlʻymə*, *yʻyzimə*, *yʻyzinə*, *bizə*, *sizə*, kabi.

Mim agʻzi bila zulfi qaddi lam – alifdan

Ey vay, netəy xasta kəngəl qaldi alamgʻa

Joʻnalish kelishigining *-a*, *-na*, *-ma* kabi qoʻshimchalari hozirgi j- lovchi oʻzbek shevalarida ham uchraydi. Lekin bu shakl aslida oʻgʻuz tiliga xos xususiyatdir.

Oʻrin - payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalaridan oldin bir *n* tovushi ortgiriladi.

Garchi āhuyi Xotandir bexatā bilman nedin,

CHinu Māchin lālazārinda qilur sayrān kəziḥ.

Ul sanamkim syv yaqasinda paritek olturur,

Gʻāyati nāzuklikindin syv bilə yytsə bolur.

Sifatdosh yasovchi qoʻshimcha *-gan* shaklida ham, *-an* shaklida

ham uchraydi. Masalan: *qilan* — *qilg`an*, *alan* - *alg`an* kabi.

Buyruq fe`lining birinchi shaxs ko`pligi fe`l negizlariga *-aling* affiksini qo`shish orqali yasaladi: *boraling*, *kelaling*, *alaling* kabi.

Bu holat «Muhabbatnoma» da ham uchraydi.

Atoiy g`azallarida leksik jihatdan quyidagi so`zlarni uchratish mumkin: *ukush -ko`p*, *ariq - toza*, *baqmaq-qaramoq*, *meҳ-xolning kattasi*, *qamuq-hamma*, *asruk-mast*, *dudoq-lab*, *ajun-dunyo*, *neҳ-narsa*, *iydgāh-sayilgoh* kabilar.

Umuman, Atoiy g`azallari tilida XV asr boshidagi o`zbek adabiy tiliga xos xususiyatlar uchraydi. SHoir o`z asarlari bilan XV asr o`zbek dunyoviy adabiyotigagina emas, balki o`zbek adabiy tili tarakxiyotigagina ham munosib hissa qo`shdi.

O`ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA SHOIR SAKKOKIYNING TUTGAN O`RNI

Alisher Navoiy ta`biri bilan aytganda, Movarounnahrda shuhrat topgan shoirlardan biri Sakkokiylardir. U Ulug`bek zamonida yashab ijod etgan. SHoir g`azallar va qasidalar bitgan.

Sakkokiy ham Atoiy kabi xalq tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original tasviriy vositalar yaratishga intiladi. U tazod, tanosib, jonlantirish, laf va nashr kabi usullardan foydalanadi, o`xshatish, mubolag`a, majoz va boshka turdagi tasviriy vositalarga murojaat qiladi. Natijada, xalq og`zaki ijodiga xos bo`lgan xalq, qo`shiqlari uslubida g`azallar yaratdi.

Sakkokiy tuyuq janrida asarlar bitmagan bo`lsa-da, yozgan g`azallaridan uning so`z o`yiniga usta shoirligi ko`zga tashlanadi. U xalq maqollari bilan o`z g`azallarining mazmunini ham, tilini ham boyitdi.

Sakkokiy siyosiy lirikaning adabiy janri bo`lgan qasida yozish sohasida ham qalam tebratdi. Ma`lumki, qasida davlat arboblari, siyosiy va harbiy voqealarga bag`ishlab yoziladi. Ulug`bekka atab yozgan qasidalarida shoir uning ilmiy va siyosiy faoliyatini maqtaydi. Ulurbekni «Sulaymāni zamān», «No`shiravān»,

«Mutāsek», «SHubān», «Atādin mehribān», «Xurshidi zamān» kabi sifatlar bilan ulugʻlaydi. Qasidaga xos bunday uslubni Sakkokiydan keyingi shoirlar ham davom ettirdilar.

Sakkokiy asarlarida qipchoq tili unsurlariga nisbatan oʻgʻuz tili yoki gʻarbiy adabiy til anʼanasining taʼsiri kuchlidir. Bu asarlarda *ayla*, *qalma* kabi koʻmakchi feʼllar uchraydi:

Gʻyl yʻyizingni ārzulab yʻyz kōzni gʻylzār ayladi.

SHuningdek, oʻtgan zamon sifatdoshi feʼl negiziga *-mish* affiksini qoʻshish orqali yasalgan.

Maʼlumki, bu qoʻshimcha urxun-enasoy yozuvlarida ham, undan keyingi yodnomalar tilida ham keng qoʻllanadi. Sakkokiydan keyingi shoirlarda esa bu qoʻshimcha siyrak uchraydi. Masalan, «Tun chaman ichrē niqābin almish ul gʻyl yʻyzidēn». «Bol» feʼli va uning oʻgʻuz tillariga xos boʻlgan «ol» shakli shoir asarlarila parallel qoʻllanadi:

Adālat bagʻi sabz oldi, chʻy Noʻshiravān keldi.

Sakkokiy asarlarida keluvchi «bikin», «yaʼnligʻ» soʻzlari «kabi», «oʻxshash» degan maʼnolarni ifodalaydi. Bu soʻzlar Alisher Navoiygacha boʻlgan shoirlarning hammasida uchraydi. Sakkokiy asarlarining yana oʻziga xos tomoni shundaki, Atoiy tiliga nisbatan unda tojikcha-forscha soʻz va iboralar koʻp uchraydi. Masalan: *koʻhkan - togʻ qoʻporuvchi, jankan-jon oluvchi, garat-barbod, tura-koqil* kabilar.

Umuman, Sakkokiy ham oʻzbek adabiy tilini rivojlantirishga samarali xissa qoʻshgan shoirlardan biridir.

OʻZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA SHOIR DURBEKNING TUTGAN

OʻRNI

Durbekning nomi XX asrning 20-yillarigacha maʼlum emas edi. Uning «YUusuf va Zulayho» dostonining dastlabki qoʻlyozmasi topilgach, shoir adabiyotshunos va tilshunos olimlarning diqqatini jalb etadi. Doston 1409 yilda Balxda yozilgani haqida maʼlumotlar mavjud.

Durbek dostonida Balx shahrining qamal qilinishi, qamalda qolgan xalq bilan birga bo`lib yuz berayotgan voqealarning guvohi bo`lganligi haqida bayon qiladi. Dostonida tarixiy voqalar gavdalandirilishi bilan birga YUsuf va Zulayhoning sof ishqiy-romantik kechinmalari bayon qilinadi. Dostonning tili judda sodda, ravon. Xalq og`zaki ijodi namunalari va yozma adabiyot asarlarida bo`lgani kabi Durbekning mazkur asarida ham xalq tili elementlaridan foydalandi. Asar tili xalq tili bilan hamohangdir.

Durbek dostoni tilida quyidagi xususiyatlarni ko`rishimiz mumkin.

Jo`nalish kelishigi kushimchasi *-ga (-gə, -kə) -qa* affikslari bilan birga *-a* shaklida ham uchraydi: *kəksinə, qolima* kabi.

Durbek o`zbek poetik tili taraqqiyoti uchun kurashgan shoirlardan biridir. U doston ustida ishlaganda tilning tushunarli va ravon bo`lishi uchun harakat qilgan. Doston o`zbek poetik tilining Navoiygacha bo`lgan takomilini o`rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Durbek xalq o`rtasida mavjud bo`lgan va adabiyotda kam qo`llanadigan so`zlarni poeziya olamiga olib kirgan. Jumladan, Durbekka bo`lgan o`zbek shoirlari poeziyasida uchramaydigan *otogo* so`zi asarda ishlatilgan. Bu so`z turk xalqlari tilida, shu jumladan, o`zbek shevalarida ham mavjud edi.

Jam`i otog`ou onogoni ham,

Kim edilar borchasi zosi haram.

SHuningdek, shoir asarida sinonimlardan unumli foydalangan ko`r so`zi bilar bir qatorda basir so`zi ishlatilgan.

Ājiz edi bedilu zāru zajir,

Ko`z yashidin kəzləri edi basir.

Dostonida arxaizmlarga aylanib borayotgan so`zlardan ham unumli foydalangan. Jumladan, *bakovul, yasovul, cherik, ilik* kabi so`zlar ham uchraydi. Bunday so`zlarning asarda ishlatilishi Durbekning xalq tiliga murojaat qilganligidan dalolat beradi.

Doston o`quvchilarga tushunarli tilda yozilgan bo`lishiga qaramay, unda arab, fors tillari elementlaridan foydalanilgani asar tili leksikasida ko`rinib turadi. Bir qizi bor erdi, maxl xovariy, Orazig`a shamsu qamar mushtariy. YUzi kuyosh erdi, vale bezavol. Barcha funun bobida sohib kamol. Hosili umri ul edi shohning, Oti ulayho edi ul moxling.

SHuningdek, asarda «yaxshi emas oy bulutga nihon», «to`ti kibi erdi asiri qafas», «bulbuli bo`lgan asir dar qafas», «toza jarohat uza septi namak», «umidim gulidin tug`di xor» kabi misralarda xalq maqol va iboralarning ta`siri borligi sezilib turadi.

O`ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA SHOIR GADOIYNING TUTGAN O`RNI

XV asrdagi o`zbek she`riyati namoyandalaridan biri shoir Gadoiydir. Navoiy «Majolisun nafois» tazkirasida yozadi: Mavlono Gadoiy - turkigo`ydur, balki mashohirindur. Bobir mirzo zamonida she`ri shuhrat tutti. Tazkiradan ma`lum bo`lishicha, Gadoiy 806 (1403-1404) yilda dunyoga kelgan. SHoirning qaerda va kanday ta`lim olgani, ijod qilgani haqida hech qanday ma`lumot yo`k,

SHoir o`z she`rlarini sodda va ravon tilda yozgan. U aslo uslubiy jimjimadorlikka intilmagan. Uning she`rlarida yuksak samimiyat va so`z san`atining alohida jozibadorligini ta`min etuvchi musiqiy ohang yaqqol sezilib turadi. Gadoiy she`rlaridagi til soddaligi va qofiya erkinligi xalq poetik me`yorlari bilan yaqindan aloqadorligi seziladi.

Gadoiy dostoni tilida quyidagi xususiyatlarni ko`rishimiz mumkin.

Jo`nalish kelishigi qushimchasi *-ga (-gə, -kə) -qa* affikslari bilan birga *-a* shaklida xam uchraydi: *kimə, jāna, farqina* kabi.

Gadoiy asarlarida *bilan* ko`makchisining *birlə, ilə, bilə, -lə* kabi muqobillari bor.

Zamāne subhidam andesha birlə hamnishin boldum.

Ki, muddatlar aniḡ-lə bolmish erdim har qayan hamrāh.

SHuningdek, Gadoiy asarlarida fors, arabiy til elementlaridan unumli foydalangan:

Ey g`amzasi fitna, kœzi fattān, œzi āfat, rahm ayla bu jāna,
Xatm o`ldi səhə saltanati mulki latāfat, ey shāhi yagāna.

YOki,

Vasli nigāru fasli bahāru sharābu nāb,
Har kimgə dast bersə, zihi, baxti kamyāb.

Savol va topshiriqlar:

1. Bu davrdagi ijtimoiy-madaniy hayot haqida gapirib bering.
2. Bu davr o`zbek tilining tayanch dialekti masalasi haqida nima deysiz?
3. eski o`zbek adabiy tilining bu davr manbalariga oid bo`lgan xususiyatlar nimadan iborat?

Tayanch tushunchalar:

Arxaizm – hozirda mavjud narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalari arxaizmlar deyiladi. Masalan: ulus (xalq), lang (cho`loq), firqa (partiya), tilmoch (tarjimon) va h. eskirgan so`zlar bildirgan narsa hodisalar hozirgi hayotda bor bo`lgani sababli, o`z-o`zidan, tilda ularni ataydigan zamonaviy so`zlar bo`ladi.

Qasida – qasida lirik tur janrlaridan biri bo`lib, arab tilidagi قصd so`zidan olingan niyat, intilish, ma`nolarini ifoda qiladi. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantanali uslubda yoziladigan asar sanaladi. Qasida arab, fors, va turkiy xalqlar adabiyotida, jumladan, o`zbek adabiyotida keng tarqalgan janrdir.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O‘qituvchi, 2008.

- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

7 -MAVZU

O`ZBEK ADABIY TILI TARIXIDA ALISHER NAVOIY IJODINING ROLI

Reja:

1. O`zbek adabiy tilining mumtoz davridagi tarixiy sharoit.
2. Alisher Navoiy o`zbek tilining asoschisi.
3. Alisher Navoiyning asarlarida o`zbek tili me`yorlarining belgilanishi.
4. Alisher Navoiyning asarlarida «turkiy», «turkcha» atamalarining qo`llanishi va ma`nolari.

A.Navoiy zamonasidagi badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod etgan va shu sohalarda original asarlar yaratgan buyuk so`z san`atkoridir. Navoiy o`z asarlari orqali sermazmun maktab yaratgan buyuk iste`dod egasidir. Navoiy Husayn Bayqaro saroyida ish ko`rgan adabiyot jamiyatining tashkilotchisi va ustoz edi. SHu jamiyatdan o`z atrofiga zamondosh shoir va yozuvchilarni to`plab ular bilan forsoj va turk-o`zbek shoirlarining ijodlari haqida, adabiyotning turli masalalari to`grisida, til va uslub haqida sermazmun va jozibali suhbatlar olib borar edi. Bu suhbatlar Navoiyning aytishicha, jonli munozaralarga aylanib ketar edi. Bundan esa Navoiy har choq xursand va mamnun bo`lgan. Navoiy zamondosh shoir, yozuvchilarning buyuk homiysi va ustoz edi. SHoir va yozuvchilarning shaxsiy munozaraviy suhbatlarida biror chigil masala tug`ilib qolgudek bo`lsa hamda o`rtada hal qilinmasa, shu masalani uzil-kesil hal qilish uchun suhbatdoshlar Alisher

Navoiyga murojaat kilardilar. Ular Navoiyning tiyran fikridan har doim o`zlariga kerakli fikrlarni topa olar edilar. Deyarli 40 yil davomida olib borilgan shu suhbatlar turk-o`zbek badiiy adabiyotida to`plangan boy tajriba, adabiyotning turli janrlarida to`plangan o`zining shaxsiy tajribalari keyinchalik «Xamsa», «Xazoyinul maoniy», «Mezon-ul avzon», «Majolis-un-nafois», «Muhokamat-ul-lug`atayin», kabi asarlarni yozish uchun Navoiyga asos bo`lgandir. SHu yuqorida ko`rsatilgan asarlarning yozilishi uchun bo`lgan boshqa sabablar Navoiy yashagan va ijod etgan davrdagi tarixiy sharoitlar bilan bog`likdir. Bir vaqtlar shuhrat qozongan va qo`shni davlatlarga ko`rqinch tug`dirib kelgan temuriylar davlati Navoiy ko`z oldida inqirozga yuz tuga boshladi. Temuriylar o`rtasidagi uzluksiz kurashlar davlatning harbiy- iqtisodiy qudratini zaiflashtirib yuborgan edi. Adabiyotda va adabiy tilda etakchilik xamon traditsion forsigo`y shoirlar ko`lida edi. Maktab va madrasalarda arab va fors tili o`rganilib, ular bilan birga fors poeziyasi haqida ma`lumot olinar edi. O`zbeklar orasidan chiqqan shoirlar o`zlarining dastlabki asarlarini ona tilida emas, balki fors tilida yozar edilar. Fors tili esa asrlar mobaynida fors tilida yozgan so`z ustalari tarafidan ishlanib, sayqal berib kelingan til edi. SHuning uchun ham fors poeziyasida tarbiyalangan turk-o`zbek shoirlari uchun o`z ona tilida yozishdan ko`ra badiiy jihatdan ishlangan fors tilida yozish oson edi. Bunga odatlanib qolgan ko`pgina turk-o`zbek shoirlari o`z asarlarini forsiy til bilan yozib kelgan. Alisher Navoiy «Majolis-un-nafois» asarida 459 ta shoir haqida ma`lumot berib, shundan 2-majlisda 91 shoirdan 16 ta shoirning turk-o`zbek tilida, 3-majlisda 175 ta shoirdan faqat 3 tasigina turkigo`y ekanligini aytadi. SHu keltirilgan ma`lumotdan ham ko`rinib turibdiki, o`zbeklar ichidan etishib chiqqan so`z ustalari o`z ona tilida asar yozishga kam e`tibor berganlar. Bu hol siyosiy jihatdan ham temuriylar davlatiga ma`lum darajada putur egkazar edi. SHunday sharoitda o`zbek tilini mensimas, uning burdini tushirishga, bu til avom tili, dag`al til, ilmiy va badiiy tushunchalarni ifoda qilish kudratiga ega bo`lmagan til, degan fikrlar ilgari surilar edi.

SHularga qarshi Navoiy o`zbek tilining badiiy qudratini adabiyotning butun vositalari orqali isbot etdi. U yuksak badiiy ijodiyotning timsoli sifatida «Xazoyinul maoniy», «Xamsa» va shu kabi sharq poeziyasida shuhrat qozongan

mavzularda asar yozib, o`zbek tilining qudratini keng namoyish qildi va shuhratini yoydi. SHu asosda yozuv tilini umumxalq tiliga moslashtirdi. Bu haqda Navoiyning o`zi ham ko`p asarlarida ko`rsatib o`tgan O`zbek tilining qudratini oshirgani va xalq, tilini kitobiy til bilan yaqinlashtirgani haqida «Lison-ut-tayr» asarida shunday deydi.

Tyrk nazmida chy tartib men alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Navoiy xalq madaniyatini ko`tara olishdagi qudratli vositalardan biri ona tili ekanini zamondoshlari orasida birinchi bo`lib tarixiy jihatdan tushundi va o`zining shu fikriga butun faoliyati sodiq qoldi. Navoiyning maqsadi badiiy jihatdan ishlanmagan xalq tilini badiiy ishlash va uni forsiy til darajasiga ko`tarish hamda shu asosda ona tilining shon-shuhratini keng yoyishdir. Navoiy deyarli har bir dostonida, til masalasiga alohida e`tibor bergan. Masalan: «Layli va Majnun»da shunday deyiladi:

CHyn forsi erdi nuqta shavqi,

Azraq erdi anda tyrk zavqin.

Men tyrkchə bashlaban rivāyat,

Qildi bu fasānani hikāyat.

Kim shuhrat chyn jahāng`a bolg`ay

Tyrkiy ilə dag`i bahra olg`ay.

Navoiy badiiy adabiyotning butun sohasida ijod etib, xar sohada o`ziga xos originallik yaratgan va shu asosda o`zbek tilining badiiy kudratini imkoniyatini keng namoyish qildi.

Navoiy o`zbek tilining himoyachisi va targ`ibotchisi sifatida ham nazariy ham praktik ishlarni amalga oshirdi, SHuning uchun buyuk turkolog N.I.Il'minskiy uni «Ona tili uchun kurashda yagona va bahodir jangchi edi», -deb ta`riflagan edi.

NAVOIY ASARLARIDA O`ZBEK TILI LEKSIK VA GRAMMATIK ME`YORLARINING BELGILANISHI

Alisher Navoiy ilmiy asarlar arab tilida va badiiy asarlar fors-tojik tilida yozish traditsiyaga aylangan bir davrda o'zbek tilining ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsata bildi. Fors-tojik tilining qaysi janr va uslubida asarlar yaratilgan bo'lsa, Navoiy ham o'sha janr uslubda asarlar yaratib, bu masalada fors-tojik shoir va yozuvchilari bilan ijodiy musobaqalashdi. «Mezon-ul-avzon» asarida shunday yozadi:

«Ajam shuarosi va furs fusahosi (chiroyli so'zlovchilar) har qaysi uslubdakim, so'z arusiga (keliniga) jilva va namoyish berib edilarkim, ma'ni abkorig'a (klzlariga) ziynat va oroyish ko'rguzub erdilar, chig'atoy lafzi bilan raqam urdum».

O'z asarlarida Navoiy o'zbek tilining leksik jihatdan fors-tojik tili kabi boy ekanligini ta'kidlaydi va uning misoli sifatida bir necha sinonim qatorlarni keltiradi. Bu haqda «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida «Bu gaz lafzdurki, g'arib maqosida (maqsadlar) adosida (bayonida) ta'yin qilibturlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar». YA'ni bu asarda keltirilgan 100 ta fe'lning noaniq formasi haqida gap boradiki, ularning har qaysisi o'zining sinonimik qatoriga ega ekanligi bu kabi xususiyat forsiy tilda uchramasligi qayd qilingan. Masalan, *ichmoq fe'liga sipqarmoq, tomshimoq* kabi fe'llarning sinonim bo'lishini uqtiradi:

Sāqiyo tut bādakim, bir lahza ozymdin baray

SHart bu kim, har nechə tutsang labālab sipqaray.

YOki:

Soqiyo, chy ichib, mengə turar qosh,

Tamshiy-tamshiy ani qilay no'sh.

SHuningdek, *yig'lamaq* so'zining ham *bohsamaq, iħramaq, siħramaq, siqtamaq, ynyrmək, inichkirmək* kabi sinonimlarini keltiradi.

Navoiy o'z ijodiyotida tildagi omonimlardan ham turli stilistik maqsadlarda foydalangan.

Jush-tush (son), yarim kun, tāmān.

Yan-yanmaq, yanbash;

Yaq-yaqmaq, tāmān, yag`.

Navoiy o`z asarlarida faqat omonim, sinonim so`zlarni emas, balki fors tilida bo`lmagan so`zlardan foydalandi. Masalan, *cho`kur (jiyda)*, *qabaq, meḡ, ildirin (yaxshi)*, *chaqin (yaxshi)*.

Bashlarig`a gyl sachsang, alardin yūzyḡa tikān sachilur,

Agar ul gyl sachmag`an bas qilsaḡ, bag`riḡg`a chokur toqilur.

(Maqbubul-qulub)

YOki:

Firaqiḡ ichrə ulus ertəməkkə, ey māhim

CHoain durur damimu, ildirim durur āhim.

(Maxbubul-kulub).

Bunay so`zlarni leksik norma sifatida adabiy tilda qo`lladi: Navoiy leksik normalarni belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy so`zlarni o`z asarlariga singdirdi. Ular quyidagilar:

1. Oziq-ovqat nomlari: *qaymaq, qatlama, bulamiq, qurut, ulaba, mantu, quymaq, o`rkamach, qimiz, suzma, boza, umach, komach*.
2. CHorvachilikka oid so`zlar: *tubuchak, arg`umaq, yaqa, yabu, taju, toy, g`uana, tulan, chirg`a, lang`a, jabildir, xāna, toqum, chilvir*.
3. Kiyim-bosh nomlari: *dastār, qalpaq, navro`zi, tōppi, shirdaq, jalak, dakla, qur, terlik*.
4. Ov hayvonlari nomlari: *kiyik, tong`uz, huna, qilchaqchi, suykun, bug`u, maral, āhu, gavazi, xuk, guraz* va boqshalar.

SHuni ta`kidlab o`tish lozimki, Alisher Navoiy o`zbek tili leksik boyliklari bilan birga fors-tojik, arab tili leksik boyliklaridan ham o`z o`rnida foydalandi. Ayrim tushunchalarni (adabiy) belgilashda ajnabiy til leksik boyliklaridan

foydalanishni shart deb bildi, chunki adabiy janr va uslub fors-tojik va arabcha soʻzlardan foydalanishni shart qilib qoʻyar edi.

A.Navoiy adabiy tilning grammatik normalarini beyagilashda ham samarali ishlar qildi. Buni quyidagi hollarda koʻramiz.

1.Tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigi affikslari oʻz oʻrnida qoʻllangan. Maʼlumki, Navoiyga zamondosh boʻlgan shoirlar ijodida qaratqich oʻrnida tushum kelishigi koʻrsatkichi qoʻllangan oʻrinlari ham boʻlgan Masalan, *Ushbu erda saʼ toʻdani(ng) ustiga chiqib* (B N), *Lutfiyni(ng) niyati uldurki* (L) va h.o.

2 CHiqish kelishigi faqat —*din//din//tin//tin* variantlarda qoʻllandi Maʼlumki, Navoiygacha bu kelishik —*dun//dyn//tun//tyn, dan//dān//tan//tān* kabi variantli affikslarga ham ega edi

Solishtiring Mahmud Qoshgʻariyda *suvdan sezdan*, «Oʻgʻuznoma»da *kop toqushgudun soʻ, anuʻ kēzi kēktyn kēkre Serdi* va h.o.

3 Birgalik nisbat — *sh* affiksi bilan ifodalanadi: *qachishmaq tapishmaq, chapishmaq.*

4 Orttirma nisbat -*t*, affiksi bilan ifodalanadi *gogurt, buyurt*

5 Sifatdosh -*gu//qu//ku* *bargʻku, bilgʻ, aytku;*

6 Navoiy asarlarida ravishdosh yasovchi -*gach//gāch, kēch//qach* affiksi keng qoʻllandi *aylāgāch, yetkēch*

YUqoridagilardan tashqari soʻz yasovchi affikslarining qoʻllanishi doirasi kengaygan:

-*chi//chi* affiksi kasb-xunarga, lavozim va ovchilik bilan bogʻliq soʻzlarni yasagan *qushchi, barschi, qoʻriqchi, qorchi, suvchi, yurtchi, xazinachi, axtachi, turnachi* va h.o.

-*vul* saroy lavozimlari otlarini yasagan *yakkovul (yoʻl boshlovchi), kintavul (qoʻrgon qorovuli) bakāvul, qaravul, yasavul*

- *e* affiksi abstrakt oti yasagan *iasal qoʻshin safi, qabāl (qamal),*

tutqal (xazinachi) tusqal (soqchi).

Navoiy ijodidan bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

YUqoridagi faktlar shundan dalolat beradiki, A Navoiy o`zbek tili imkoniyatlaridan juda keng foydalanishi natijasida o`zbek tili leksikasi va grammatik qurilishi ma`lum bir normaga tushdi. SHuning uchun ham Alisher Navoiy haqli ravishda o`zbek adabiy tilining asoschisi deb ataymiz Navoiy asarlari orqali eski o`zbek adabiy tili o`zining yuqori pog`onasiga ko`tarildi. Navoiy asrlar mobaynida turkiy tillarda qo`llanib kelgan boy manbalardan keng foydalandi. Uning tili qadimgi SHarqiy Turkiston tilidan, shuningdek, qadimgi uyg`ur tili ta`siridan, asosiy leksik va grammatik xususiyatlaridan qutulgan bo`lsa ham, ba`zi poetik talablarga ko`ra uning tilida arxaik elementlar ishlatilgandir. Arxaik elementlar deyilganda, SHarqiy Turkiston, shu jumladan qadimgi uyg`ur va qadimgi turkiy tillarga oid leksik va grammatik hodisalar kiradi.

Arxaik elementlar poetik nutqda ko`p vaqt dabdabali tus berish, tildagi ta`sirchanlikni, ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qilib keldi. SHu nuqtai nazardan Navoiy uz asarlari tilida bunday elementlarga murojaat qilgan Navoiy tilida *ari*, *o`gon*, *ugush*, *qamu*, *uksuk-kom*, *bitik asi* kabi leksik arxaizmlar qullangan Misollar;

Kalāmi nechəakim, sāfu arig`dur

Mang`a nuqsāndin o`zga ne asig`dur (Farxod va SHirin)

YOki

Nag`malar turkāna sōz etildi ugush

Mastlig`din oylakim, xushnag`ma kush (Lison-ut-tayr)

SHuningdek, SHarqiy Turkiston tiliga xos bo`lgan *-gu//g`u//qu//ku* kabi morfologik elementlar ham uchraydi *o`qig`u*, *degu*, *yaqqu*, *eshitku*

Navoiy tilida tartib sonning - *inch* (*birinch*, *uchinch*) affiksi bilan ifodalangan varianti xam qayd qilinadi.

YUqoridagi leksik va grammatik elementlar A Navoiy tilida o`z o`rnida

va uslub talabi bilangina qoʻllangan.

Alisher Navoiy turkiy tillar madaniy merosi va boyligidan ham ustalik bilan foydalandi Navoiy tilida qipchoq, oʻgʻuz elementlari alohida oʻrin tutadi. Bular keng tarqalgandir. Bu xodisa yolgʻiz Navoiy asarlari tili uchungina emas, balki eski oʻzbek poetik tili uchun ham xosdir.

Akademik Radlov Navoiy tilidagi gʻarbiy yoki oʻgʻuz tili elementlari masalasida ikki fikrni ilgari suradi. Birinchi fikrga karaganda, Navoiy tili oʻgʻuz deb atalgan adabiy tillar, yaʼni, ozarbayjon, turkman, usmonli turk kabi tillarga taʼsir qilib, buning natijasida mazkur oʻgʻuz elementlari yuqorida koʻrsatilgan tillarga tarqalgan. Bunda akademik Radlov Navoiy tilining gʻarbiy tillarga taʼsirini koʻzda tutadi. Ikkinchi fikrga qaraganda, Navoiy zamonida gʻarbiy turklarda shunday bir adabiy til markazi boʻlganki, bu adabiy til turli yoʻllar bilan Navoiy tiliga taʼsir koʻrsatgan bulishi mumkin.

Masala Navoiy asarlari uchun tayanch boʻlgan dialekt asosida hal qilinishi mumkin. Navoiy tilida, shuningdek, eski oʻzbek poetik tilida oʻgʻuz tilining elementlari keng miqyosda qoʻllangan, lekin bu elementlar Navoiy va unga zamondosh adiblar tiliga tashqi jarayonning taʼsirida paydo boʻlib qolmagan, aksincha, bunday elementlar oʻzbek tilining oʻgʻuz shevalari orqali tilga kirgandir.

Maʼlumki, XIII-XIV asrlarda Xorazmda adabiy til markazi paydo boʻldi. Bu markaz «y»lashgan dialekt zaminida vujudga kelishi bilan birga oʻgʻuz tilining leksik elementlarini va qator morfologik formalarini oʻzlashtirgan edi. Oʻgʻuz dialektining bevosita taʼsiri «Muhabbatnoma», «Xisrav va SHirin» va XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan shoirlar tilida keng tarqalgandir. Bu traditsiya tabiiy Navoiy tilida xam davom etgan. Masalan, *ev(uy)*, *oʻl (boʻl)*, *uyumagʻ (uxlamoq)*.

Ishq dardigʻa Navāiy kibi magʻrur oʻlmang

Өzni har mahvash uchun shiftai hāl öyləməñiz.

(T.A.II,I 405-bet)

YUqoridagi kabi hodisa Lutfiy va boshqa shoirlar ijodida ham keng

tarqalgandir. Navoiy tilida tarixan qadimgi turkiy tilga, lekin Navoiy davrida g`arbiy tillar xususiyatiga aylangan sifatdoshning —*mish* affiksi bilan ifodalangan formasi qayd qilinadi:

Har yaram jismimda bir xayrān kōz olmish hālīma

Turfa kōrkim, muncha hayrān kōzgā hayrāndur kōzgā.

G`arbiy tillarga xos yana quyidagi morfologik xususiyatlar uchraydi:

I shaxsda shaxs-son affiksining qisqargan shakli:

Sarvi āzādimni bag` ichrā xirāmān istērām,

Sabzasin sarsabzu gyl bargini xandān istērām

(II,1 239-bet)

shaxs hozirgi-kelasi zamon formasining qo`llanishida ham g`arbiy tillarga xos xususiyat saqlanadi bilmon, istaman

Ey Navāiy, hech bilmankim, unag`aymu kōngyl

Ancha-muncha ajnabiy sōzlōrni irshād āylōdim

Ozarbayjon, usmonli turk tillariga xos bo`lgan infinitivning bo`lishsiz formasi ham uchraydi:

Asl uldurki, sanamlar sari kōz salmāg`āsen

ey Navāiy, tilōsōng kōrmēmāk aslā āfat.

...Dam urmamaq kerak (Maxbubul kulub)

Navoiy tilida o`g`uz elementlaridan tashqari qipchoq tillariga xos elementlar ham uchraydi. Lekin ular juda oz miqdordadir hamda ular Navoiy tilining umumiy taraqqiyotiga u kadar ta`sir qilolmaydi.

NAVOIYNING ARAB VA FORS TILLARIGA MUNOSABATI

Navoiy turkiy til elementlaridan tashqari fors va arab tillarining madaniy merosidan xam keng foydalangan. Arabcha-forscha elementlarning ko`pchiligi

Navoiy tilini tabiiy ancha murakkablashtirgan.

Klassik janr sistemasida va poeziyaning arabcha vazn o'lvohlaridan foydalanish Navoiyga poetik erkinlik bergan. Bundan tashqari o'sha davr talabiga ko'ra poetik asarlar ko'tarinki, dabdabali uslub bilan yozilishi kerak edi. Badiiy traditsiya ta'siri natijasida poetik uslub xalq tilidan kisman bo'lsa-da, uzilib qolganligi taassurotni beradi. SHuning uchun Navoiy poetik tematika sohasida eski traditsiyadan chetga chiqqan bo'lsa-da, til va uslub masalalarida klassik traditsiya chegarasidan chetga chiqqan olmadi. Alisher Navoiy o'zining poetik asarlarida, jumladan, «CHor devon», «Xamsa» asarlarida o'zbek tilini fors-tojik adabiy tili kabi ishlashga va unga dabdabali tus berishga harakat qildi. Bularning hammasi arab va fors tillarining elementlariga keng yo'l ochib berdi.

Navoiy asarlarida arabcha-forscha leksik elementlar bilan birga morfologik elementlar qo'llangan. Navoiy tilida otlarning aniqlik va noaniqlik formalari mavjud. Noaniqlik formasi *-i* affiksi bilan hosil qilingan. Bu affiks o'zbek tiliga tojik tilidan o'tgan bo'lib, eronshunoslikda «yoyi vaxdat» (birlik yoyi) deb ataladi. Masalan, «*Karam (saxovat) bir jafākashniḥ shiddati (qiyinchilik) yukin kytārmākdyr va ani ul suubatdin (qiyinchilik) etkārmākdyr*» (Mahbub-ul qulub) Bu o'rinda noaniqlik ma'nosi analitik usul bilan ya'ni so'z oldiga bir so'zini keltirish bilan hosil qilingan. *Rindi xarābātiyki (aysh-shiratdan sōzini tortmaydigan), may ichmaq bilō otar avqāti, hubābdek (ko'pikdek) bāda havāsi bashida surāhidek (sharobdan) bash qoyar eri sāg'ar (qadaq) qashida dayrda (mayxona) har qayanki bazme kōryb, sabukashlik (may tashish) vasilasi (vositasi) bilō ōzin etkurub* («Mahbub-ul qulub»)

«*Bu tāifadin agar qari dadakturki (dadak-oqsoch) yasalurg'a rāg'ibdur (moyil) va agar arpae almas eshākdyr, naqshin afsāru julg'a (to'qim) tālibdur (muhtoj)*» jumllalaridagi *bazm*, *arpa* suzlariga forscha yoyi vahdat qo'shilib noaniqlikni bildirgan.

YOyi vahdat tarixan qadimgi fors tilida «bir» so'zi ma'nosida qo'llanuvchi «ayva» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, hind-evropa tillaridagi noaniqlikni ko'makchisi (artikli) (nemischa *lih*, *lihe* inglizcha *a*, *ap*, frantsuzcha *ip*, *ipe*) bilan

o`zakdoshdir.

«Ayva» so`zi qadimgi fors tilida otdan keyin qo`llanib, unga birlik, noaniqlik ma`nosini bergan. CHunonchi, «bir shoh» deyilmoqchi bo`lsa, «xiloyotiya ayva» deyilgan.

Mana shu yoyi vahdat eski o`zbek tiliga ham o`tib, oliy uslubda noaniqlik ma`nosini anglatgan. Bu affiks Navoiyning «Mehribone topmadim» g`azalida ayniqsa ravshan ko`rinadi.

Aniqlik formasi dariy tilidan o`zlashtirilgan «yoyi ishorat» deb ataluvchi aniqlik affiksi *-i* bilan ifodalangan. Bu affiks hozirgi o`zbek tilida *nimaiki* so`zidagina saqlanib qolgan. «YOyi ishorat»noaniqlik affiksi «yoyi vahdat»dan grafik ifodasi jihatidan ham, talaffuzda ham farq qilmaydi. YOye ishorat ham urg`usiz cho`ziq *i* kabi talaffuz qilinadi.

Bu affiks shaklan yoyi vaxdatga o`xshasa ham, o`zicha mustaqil affiks bo`lib, tarixan va ma`no jihatidan undan tamomila farq qiladi. YOyi ishorat qadimgi fors tilida mustaqil so`z-ko`rsatish olmoshi «ayva» so`zidir. Bu ko`rsatish olmoshi asta-sekin ixchamlashib dariy tilining o`zidayoq *-i* shaklini olgan:

SHayxi riyāiy (riyokor) jilvanāmāyi misidur altin bilā rukash, tashi xushnamaga ichi nāxash. («Mahbub-ul qulub»). «*qanāat chashmandur kim...*» («Mahbub-ul qulub»). Bu o`rinda shunday mis (aniq), shereday chashma (buloq) degan ma`no anglatiladi.

Muannas affiksi *-a* (jenskiy rod).

Navoiy tilida arab tilidan o`zlashtirilgan xotin-qizlar jinsini bildiradigan *-a* affiksi keng qo`llangan: *salita* (uyatsiz qiz), *qabiha*, *mayxo`ra*, *badkāra* va boshqalar.

Ko`plik formalarida. Arabcha flektiv formalar qo`llangan: *hāl-ahvāl*, *faqir-fuqarā*, *kitāb-kutub*, *muallimun-muallimuna*, *ārif-ārifin*, va boshqalar.

Ikqilik affiksi *-ayn lug`atayn*, *kavnayn* (ikki dunyo) *kātibayn* (ikki kātib) va h.o.

Bulardan tashqari ko`p sonli so`z yasovchi arabcha va forsha so`z

yasovchi affiks va formantlardan foydalanilgan.

Aytib o`tilgandek, Navoiy tilida arab-fors tillarining so`z va iboralari ko`p uchraydi. SHunisi xarakterliki, bunday elementlar faqatgina dabdabali uslub talabiga ko`ra emas, balki bunday so`zlarning ko`pchiligi ma`noni kuchaytirish, obrazni va poetik ta`sirchanlikni oshirish uchun ham qo`llangan. Navoiy qo`llagan arabcha-forscha so`zlarning ma`lum qismi adabiy tilda keng o`zlashgan va asrlar osha hozirgi zamon tilida ham tub so`zlar qatoriga kirib ketgandir.

«MUHOKAMAT-UL-LUG`ATAYN» ASARI

Alisher Navoiy «CHor devon», «Xamsa», «Mahbub-ul qulub», «Majolis-un nafois», «Mezon-ul avzon» kabi asarlari bilan o`zbek adabiy tilini praktik jihatdan isbotlagan bo`lsa, «Muhokamat-ul lug`atayn» asarida uni nazariy jihatdan tushuntirib berdi. SHu jihatdan uning mazkur asari zo`r ilmiy qimmatga egadir. «Muhokamat-ul lug`atayn» Navoiy hayotining so`nggi yillarida yozilgandir, ya`ni hijriy 905, melodiy 1499 yilda yozilgan.

Asarda turkiy (o`zbek) til bilan sort (fors-tojik) tilini muholasa qiladi. Asar muallifi haqidagi kirish so`zidan boshlanadi. Bunda avvalo tilning mazmuni, shakli haqida gapirib, uning birligini, ya`ni til shakl, mazmun jihatdan bir bo`lgandagina o`z vazifasini o`tay olishligini aytadi. So`ng inson tilining vazifasi haqida so`zlab, bunda arab tilining ahamiyatiga alohida e`tibor beradi. So`ngra tilning kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Bu sohada Navoiy zamonasida hukmron bo`lgan islom oxolostikasiga asoslanadi. SHunga ko`ra uning fikrlarida ilmiy haqiqatdan ko`ra afsona kuchliroq seziladi. Tillarning kelib chiqishini Nuh payg`ambarning umumjahon to`fonida yolg`iz qolishi va tillarning manbaini uning o`g`illari YAfas, Xom, Som nomlari bilan bog`laydi.

Navoiyning bu qarashi qadimgi grek falsafasida ham, Islom falsafiy-tarixiy asarlarida ham keng tarqalgan edi. Navoiy esa ulardan unumli foydalangan. SHundan keyin turklarning kelib chiqishi, turkiy tilning xususiyatlari, uning sort (tojik) tili bilan munosabati, ba`zi o`rinlarda turkiy tilning orqalligi haqida fikr yuritadi. Buning isboti sifatida turkiy tildagi sinonim, omonimlarning taraqqiy

topganligini keltiradi. Umuman, Navoiyning mazkur asarida olg`a surilgan asosiy g`oyalar quyidagilardan iboratdir:

1. O`zbek tilini fors-tojik tili bilan chog`ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko`rsatib, o`zbek tilida asarlar yozishga boshqalarni ham chaqiradi.

2. Navoiy **ikki** tilni chog`ishtirar ekan, o`zbek tili lug`at boyligining ustunligini ko`rsatdi. Asarda 100 ta fe`l keltirilib analiz qilinadi, shuningdek, o`zbek tilining boshqa leksik qatlamlarida, ya`ni qushchilik, chorvachilik, kiyim-kechakka oid ko`pgina so`zlarning rivoj topganligini isbotlab beradi. SHuning uchun ham turkiy tilni u xazina deb ataydi. Lekin bu xazinaning atrofini, Navoiy tili bilan aytganda, «ilonlar» va «tikonlar» o`rab olgan. Navoiy ana shu so`zlarni «ilon va tikonlar»dan tozalab o`z asarida qo`llar hamda bu ishga boshqalarni ham chaqiradi.

3. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o`zbek tilining so`z yasash borasida ustun ekanligini namoyish qildi. Bunda *-chi* va *-vul* affikslarining so`z yasash roli, ayniksa, buyuk ekanligini ko`rsatadi.

4. Grammatik formalarning hosil qilinishida *-sh*, *-t*, *-l*

Affikslarining ahamiyati haqida ham qimmatli ma`lumot beradi. Masalan, Birgalik nisbat hosil qiluvchi affiks haqida shunday deydi: *Ammā kylmitrāk kalimātni adā qilali: arab tiliniḡ sarfiy istilāhiniḡ abvābida bir bābdirki, aḡa mufāala bābi ot quyupturlarki lafz bir mazkur bolur, ammā ikki kishi fe`liga mushtamildirki (o`z ichiga oluvchi), bir nav` vāqea bolg`ay. Andaqki, «muāzara»(munozaralashish, tortishish, qarshi kelish) va «mushāarā (she`r aytishish)», «muqābal»(qarshi kelish) va «muhākama» (gaplashish) va kulmey bābdur va munda azim vafāid (foydali) hāsil. Va fārsigo`ylar muncha fasāhat va balāg`at da`vāsi bilē bu fāydadin mahrum. Ammā tyrk bulag`asi va fāydag`a maarruh qilibdurlar va masdarg`a bir ish harfi ilhāq qilmaq bilē ul maqsudni tapibdurlar. Andaqki, «chapishmaq» va «tapishmaq» va «quchushmaq» va «opushmaq» va bu shoe lafzdur* (A.Navoiy.Tanlangan asarlar. 14-tom. ` , 1967y, 116-bet)

Z.O`zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir qimmatli fikrlar mavjud: vov harfining to`rt xil (undosh bilan besh xil) talaffuz qilinishi, yoyning uch xil (*i,i,e*)

talaffuz qilinishi haqida fikr yuritadi.

5. Omonimlar haqida shunday deydi:

«Va kək lafzini ham necha ma`ni bilə iste`māl qilurlar. Biri kək-āsmānni derlər. Yana kək āhangdur. Yana kək tegrədə kəkləmdyr. Yana kək qadag`ni derlər, yana kək sabza va olangni dag`i derlər» va h.o.

6. O`zbek tilining yuqoridagi imkoniyatlarini isbotlashda Navoiy fors-tojik tilini hech vaqt kamsitmaydi, balki unga xhramat bilan qaraydi.

«Muhokamatul-lug`atayn»da Navoiyning dialogik karashlari o`zining yorqin ifodasini topgan. Navoiy til masalalariga tilshunos sifatida emas, balki adabiyotshunos sifatida yondoshgan. Bu asari bilan o`zbek adabiy tilini nazariy jihatdan ishlab chiqish zarur ekanligani o`rtaga tashlab, bu masalani hal qilmasdan turib, adabiy tilni yaratish va uni rivojlantirish masalasi bilan shug`ullanish mushkul ekanini ta`kidlaydi. SHu jihatdan «Muhokamatul lug`atayn» o`zbek adabiy tilining balog`atga stishida va etishtirishida uning keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga molik bo`ldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy tilining dialektal xususiyatlari nimalardan iborat?
2. XV asrning 2-yarmidagi tarixiy sharoit haqida gapirib bering.
3. Alisher Navoiy o`zbek tilining asoschisi deganda nima nazarda tutiladi?
4. Alisher Navoiy asarlarida o`zbek tili me`yorlari qanday belgilangan?
5. Alisher Navoiy o`z asarlarida qo`llagan «turkiy», «turkcha» atamalarining qanday ma`nolarda qo`llangan?

Tayanch tushunchalar:

Atama – ilm-fan, texnika, qishloq xo`jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo`lgan so`z yoki so`z birikmasi atama deyiladi. Har bir fan, kasb-hunar o`z terminlariga ega, shu terminlar jami iborat leksikada.

Leksika – tildagi so`larning jami leksikani tashkil etadi. Leksikologiya

tilshunoslikning leksikani o`rganuvchi sohasidir.

O`g`uz tili – turkiy xalqlarning ikki katta guruhga, sharqiy va g`arbiy xunnga bo`linishi natijasida tillar o`rtasida tafovutlar ham sezilarli darajada o`zgardi. O`g`uz tilli turkiy xalqlar g`arbiy tillar guruhiga kiradi.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O'qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санақулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

8-MAVZU

XVI ASRDA BUYUK ALISHER NAVOIY TRADITSIYASI VA O`ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTINI O`RGANISHDA BOBUR, MUHAMMAD SOLIH ASARLARINING AHAMIYATI

Reja:

1. XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an`ananing davom zttirilishi.
2. Bobur asarlari tili. Bobur asarlari tilida turkiy so`zlarning ishlatilishi.
3. Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari
4. XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so`zlar.

XVI asrga kelib temuriylar avlodlari o`rtasida uzluksiz davom etgan ziddiyatlar, mamlakat ichidagi turli xarakterga ega bo`lgan qarama qarshiliklar temuriylar davlatining iqtisodiy-siyosiy hayotini, harbiy qudratini zaiflashtirib

yubordi. Tarixdan ma'lumki, XV-XVI asrlarda temuriylardan bo'lgan, Boburning otasi Umar SHayx Mirzo Farg'ona ulusining hukmdori bo'lgan. U aka-ukalari - Hisor hokimi Sulton Maxmud Mirzo, Samarqand hokimi Sulton Mahmud Mirzo, Samarqand hokimi Ahmad Mirzo, Qobul xokimi Ulug'bek Mirzolar bilan taxt talashib, jiddiy kurashlar olib borar edi. Bularning hammasi tashqi xujum uchun hamda uning engil muvaffaqiyati uchun keng imkoniyat tug'dirardi. Natijada SHayboniylar tomonidan temuriylar davlati emirilib, uning o'rnida SHayboniylar hukmronligi boshlandi, SHayboniylar davrida ham tashqi jihatdan markazlashgan davlat tuzilsa ham u uzoq davom etmadi. Bu Abulxayrxon o'limidan yaqqol sezilgan edi.

XVI asr boshlaridayoq O'zbekiston territoriyasida Xorazm va Buxoro xonliklari vujudga keldi.

Xorazm xonligining dastlabki poytaxti Ko'hna Urganch bo'lib, XVII asrning 70-yillarida Amudaryoning bir tarmog'i qurib qolgach, poytaxti Xevaga ko'chirildi. SHundan beri Xeva xonligi deb ataldi.

Buxoro xonligining poytaxti Samarqand bo'lib, Ashtarxoniylar uni Buxoroga ko'chiradilar. Mamlakat 2 xonlikka bo'linib ketgach, o'rtadagi kurashlar yanada kuchayib ketadi. Natijada XVII asrning boshlarida Qo'qon Buxoro xonligidan ajrab chiqadi.

Xonliklar o'rtasidagi uzluksiz mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari, uning iqtisodiy qudratini zaiflashtirib yubordi. Bu holat mamlakatning madaniy taraqqiyotiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Bir zamonlar madaniyat o'chog'i bo'lib tanilgan Xorazm CHingiz askarlari tomonidan, keyinchalik Temur lashkarlari tarafidan xarobaga aylantirilgan edi. Lekin bu davrlarda adabiy harakatchilik so'nmadi, aksincha ulug' Navoiy traditsiyasi davom qilib keldi.

A.Navoiy ijodiga bo'lgan xurmat uning o'z zamonida boshlangan edi. Badiiy adabiyotda va adabiy tilda uning traditsiyasi ayniqsa uning kichik zamondoshi Z.M.Bobur tomondan davom ettirildi.

Bobur o'zining lirik shoirligi va XVI asr prozasining namunasi bo'lgan «Boburnoma» asari bilan o'zbek adabiyoti va tili tarixida o'chmas iz qoldirgan

soʻz sanʼatkoridir. Bobur tili va uslubi xalqchilligi bilan xarakterlanadi. U yaratgan asarlar tor intelligentlar doirasida emas, balki koʻpchilikka tushunarli boʻlgan. U sodda yozish bilan birga boshqalarni ham sodda yozishga chaqirdi. SHu jihatdan uning oʻz oʻgʻli Xumoyunga yozgan maktubidagi bir fikri xarakterlidir. Xumoyun tili otasi tiliga qaraganda ancha ogʻir, uning asarlarida arabcha-forscha soʻz va iboralar koʻp ishlatilgan. Xumoyunning shu xatini tanqid qilib, Bobur shunday yozadi : «Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq boʻlur, ham oʻkugʻuchigʻa».

Boburning sodda uslub va til bilan yozishning talab qilishi va bunga oʻzining amal qilishi progressiv voqeadir. Badiiy uslubning soddaligi Bobur asarlarining oʻquvchiga tez anglashilarli boʻlishiga, badiiy tasvir vositalarining ommabop boʻlishiga olib keldi.

Bobur lirik sheʼrlarining tili haligacha tadqiqot obʼekti boʻlgan emas. SHunga qaramasdan, uning lirikasi xalqqa tushunarli til va uslubda yozilganligini koʻramiz. Masalan,

Tushumda chʻyn quyashdek āraziḥni kerd̄m otrudin

Tilarmen tā qiyamat achmagʻaymen k̄zni uyqudin.

Sening vasliḥdin ayru tyshḡeli bargʻan sari artar

Tahassur arqadin, mehnat yanimdin, hajr otrudin.

Bobur lirikasida ham arabcha-forscha soʻzlar qoʻllangan. Lekin Navoiy asarlaridagiga nisbatan kamroqdir. Masalan, «Ne hush boʻlgʻayki» matlali gʻazal 63 ta soʻz qatnashgan boʻlib, undan 5 tasi kishi nomlari, 35 ta turkiy, 23 ta arabcha-forscha soʻzlardir. Ayrim gʻazallarida bu nisbat yana ham ortib borishi qoʻllangan arabcha-forscha soʻzlar ham shu davr shuningdek hozirgi davr oʻkuvchilariga tushunarlidir. Quyidagi gʻazalga diqqat qiling:

Keldi ul vaqtiki bashimni alib ketḡaymen

Ālam ichr̄e ayagʻim etḡenich̄e etḡaymen.

Ist̄er̄em ʻezni aziz elḡe k̄rynm̄esliktin

Nechə əzymni ulus kəzidə xār etgəymen?
Xalq yyz javr ilə ishlər bugarur kāsh elniñ
Ne yyzin kərgəmenu ne səzin eshitgəymen
Har sari barsa bu devāna kəh̄yl, ayb etməs
Oyla devāna eməskim ani berkitgəymen.
Demə Baburga netərsen bash alib ketməkn
Tangrining xosti mundaq esə men netgəymen?

Ko`rinib turibdiki, bu g`azaldagi barcha so`zlar alohida izohga muhtoj emas. SHu jihatdan «Boburnoma» asari tili ham xarakterlidir.

«Boburnoma»ning 14 ga yaqin qo`lyozma nusxalari mavjud bo`lib, ularning ko`pchiligi XVII-XVIII asrlarda ko`chirilgandır. Bular hozir Leningrad, Kal`kutta, Haydarobod, London kabi shaharlarda saqlanadi. Uning bir nusxasi 1737 yilda ko`chirilgan bo`lib, shu nusxa asosida 1875 yilda N.II`minskiy Qozonda nashr qildi. Haydarobod nusxasi asosida ingliz olimi A.Beverij 1905 yilda Londonda asarni nashr qilgan. «Boburnoma»ning Qozon va London nusxalari asosida 1948-49, 1960 va 1965 yillarda grafikasida nashr etildi.

«Boburnoma» XVI asr prozasining nodir yodgorligi bo`lib, faqat XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealarni to`g`ri aks ettirish jihatidangina qimmatli bo`lib qolmay, u o`sha davrdagi o`zbek tilining xususiyatini ko`rsatib beruvchi manba hamdir. Z.M.Bobur bu asar orqali xalq jonli tilining boyliklarini chuqur o`rganib va egallab olganligani, adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qilganligini ko`ramiz. Bunda u xalq og`zaki ijodiga xos maqol va iboralarni ko`plab qo`lladi. Masalan, *Dushman ne deməs, tushga ne kirməs. Deh kajvu, daraxshon kujo?* Va boshqalar.

Bobur tilining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligidir. Buning uchun u so`zlarni tanlab ishlatishga oz so`z bilan ko`proq fikrni bayon etishga harakat qildi. O`zbek tilining so`z boyligidan ijodiy foydalanib, undagi sinonim, omonim va antonim so`zlardan keng va o`rinli foydalandi.

Bobur asarida sodda gapni ko`proq qo`lladi. qo`llangan qo`shma gaplar ham tuzilishiga ko`ra sodda gaplarga o`xshash bo`lib, osonlik bilan tarkibiy komponentlarga ajraladi. Masalan,

Tā anda etkuncha, mening bilən sekiz kishi qalin edi va h.o.

Bobur badiiy mahorat va uslub jihatdan emas, balki til faktlaridan foydalanish masalalarida ham Navoiy traditsiyalaridan davom ettirdi. Bular quyidagilarda ko`rinadi:

1. Bobur ham arabcha-forscha so`zlarni o`z asarlarida ma`lum maqsadda-ifoda kuchini oshirish, poetik ta`sirchanlikni kuchaytirish maqsadida qo`llagan.

2. Navoiy vositalariga amal qilib, turkiy til imkoniyatlaridan yana ham kengroq foydalandi va xalq, tilida ayrim bor til faktlarini adabiy tilga olib kirdi. Ular tubandagilardir;

a) —*lar* affiksi fe`l oldidagi sifatlarda keltirildi. Bu esa shu sifat ma`nosini kuchaytirilishini ta`minladi.

Özga tofang andāzlar atmaqqa kōrsätib yaxshilar atdilar.

b) *-tadan* affiksi taqsim son hosil qilindi.

g) belgilash olmoshlaridan tugal, bor (borcha) so`zlari qo`llandi va h.o.

d) *dag`i*, *va*, *yo*, *-ki* kabi bog`lovchilari keng qo`llandi va h.o.

Z. Navoiy kabi uyg`ur tiliga xos bo`lgan *-gu* affiksidan foydalandi: *kelgym*, *kelgysi* va h.o. Bunda ham u ijodiy foydalanib, uning murakkab formalarini *-gylik*, *-gysiz*, *-gydek* kabi so`z yasovchi affikslar hosil qildi.

«Boburnoma» leksikasi ham juda boy unda hayvonot olami, tabiat hodisalari, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid ko`plab leksik elementlarni uchratish mumkin.

Bobur asarida ko`p uchraydigan so`zlar quyidagilardir: *yavuq* (*yaqin*), *cherik* (*askar*), *qabamaq* (*qamamoq*), *ilik* (*qo`l*), *ulus* (*xalq*), *qazaqliq* (*darbadarlik*), *qasaba* (*shaharcha*) va h.o.

SHunday qilib, Bobur lirikada turkiy suzlarni ko`plab qo`llab, o`quvchilar

diqqatini o`ziga jalb qilgan bo`lsa, «Boburnoma» asari bilan o`zbek badiiy prozasi sohasida etarli tajribaga ega bo`lmagan bir davrda proza tilida katta muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritdi.

«SHayboniynoma» XVI asr adabiyoti va tilining nodir yodgorligidir. Bu asar avtori Muhammad Solih esa o`z zamonasining eng ma`rifatli kishilaridan bo`lishi bilan birga talantli shoiri ham bo`lgan. U o`z ijodini g`azallar yozish bilan boshladi. Lekin uning g`azallari bizgacha etib kelmagan. Doston 76 bobdan iborat bo`lib, 4456 baytdan tashkil topgan. Dostonning 1-bobi munajat, 15 bobi lirik chekinishlar va qolgan 60 bobi esa tarixiy voqealarga bag`ishlangan. Poemaning boshqa dostonlardan farqi shundaki, bunda asar asosiga afsonaviy voqea va hodisalar emas, balki shoir o`z ko`zi bilan ko`rgan voqealar olingan.

«SHayboniynoma»ning qo`lyozma nusxalari ko`p emas. Hozirgacha 1510 yilda Qosim ismli kotib tomonidan ko`chirilgan Vena nusxasidan foydalanib kelinmoqda. SHu nusxa asosida 1885 yilda Vamberi dostonni Venada nemischa tarjimasini bilan nashr qildirdi. Vamberi nashri asosida P.M.Melibranskiy 1904 yilda Peterburgda ikkinchi marta chop qildi. P.M.Melibranskiy nashri asosida ba`zi aniqliklar bilan hozirgi o`zbek grafikasida nashr qildi.

«SHayboniynoma» tilida o`zbek adabiy tili boyliklarining barcha tomonlari ko`rinadi.

Navoiy traditsiyalaridan unumli foydalangan Muxammad Solih adabiy tilni xalq jonli tilida qo`llanayotgan grammatik va leksik elementlar hisobiga boyitdi.

U tildagi sinonimlardan maqsadga muvofiq foydalandi. Masalan, *dushman so`zi* — *xasm, jov, aduv, yogi*; *xalq so`zi* — *ulus, el, raiyat* kabi sinonimlar bilan berilgan.

Muhammad Solih quyidagi til elementlarini adabiy tilga olib keldi; 1. Jamlovchi son *-ala* affiksi bilan hosil qilingan;

Mashvarat ayladilar tørtäläsi

Fikrini sayladilar tørtäläsi. (157-bet)

2. Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlipsha -g'il — gil affikslari qo'llandi:

3. Buyruk-istak mayli birinchi shaxs ko'pligida - ali, -alin affiksi qo'llandi: *kechali, alali, alalin*.

4. Ko'makchilardan *qat(i), yza, tegi* kabi so'zlar qo'llandi:

5. Singarmonizmning lab garmoniyasi turi 2 bo'g'indan keyin ham qo'llanadi:

Yygryshyb har saridan ettilər

Qorim ag`zida maqām ettilər. (252)

M.Solihning «SHayboniynoma» asariga leksik jihatdan yondoshsak, u o'z asarida forsha-arabcha so'zlarni ozroq ishlatishga, mumkin qadar jonli tildagi so'zlarni ko'proq ishlatishga harakat qilganini ko'ramiz. Dostonda iste'moldan chiqqan boshlagan, badiiy adabiyotda siyrak uchraydigan quyidagi so'zlarni uchratamiz, *ob ag`a (bobo), abag`a (amaki), qabqa (darvoza), yag` (dushman)*.

Mazkur doston orqali maishiy sohaga, harbiy texnikaga va boshqa sohalarga so'z va terminlar o'zbek adabiy tiliga kirib keldi. Masalan, qurol nomlari - *sag`it, dubulg`a, maḥlayliq,, zānuband*; jangchilar turadigan joy nomlari - *peshxāna, sarāparda, bavarjixāna, shāmiyona*; ot-ulov nomlari - *qo`tos, ejishi, ubchin*; may idishi nomlari - *ko`raki, mashraba*; mato nomlari - *joja, alocha*; palos nomlari — *debā, gāli, mafrash, nāmādi shatranjip*; urug` va qabila nomlari - *burqut, mang`it, nayman, do`rmon, o`tun, jaloyir, qorliq, sulduz, nukuz* va boshqalar.

Umuman, Muhammad Solih Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun kurash yo'lini davom ettirgan shoirlardan biridir.

XIV-XVI ASRLAR ADABIY TILIDA

ARABCHA, FORSCHA SO`ZLAR

Akademik V.Radlov eski o'zbek tili, chig`atoy tili, usmonli turk tili kabi turkiy, arab va fors elementlarining aralashuvidan hosil bo'lgan su`niy bir til degan fikrni ilgari suradi.

Ma'lumki bunday elementlarning shu davr adabiy tilida mavjud bo'lishi turli tarixiy

sharoitlar bilan bog'liqdir. Albatta, bunga sabab fors-tojik adabiyoti bilan o'zbek adabiyotining yaqinligi buldi. SHu tufayli XIV asrning 2-yarmi va XV asrdan boshlab qadimgi turkiy so'zlar zamonalar talablariga muvofiq arabcha va forscha so'zlar bilan almashtiriladi. Bundan tabiiy ko'pchilikni diniy-ilohiy tushunchalar ifodasi bo'lgan so'zlar tashkil qiladi: *idi-ega, xudo, alla, taolo; uchmaq-jannat, behisht, tamug-do'zax* kabilar.

Qadimgi turkiy so'zlarning arabcha-forscha so'zlar bilan almashtirilishi diniy tushunchalar doirasida emas, balki hayotiy so'zlar doirasida ham yuz bergan: *baliq-shahar, asig-fāyda, achun-dunyo, irin-lab* va h.o.

O'zbek tili o'zining shakllanishi va rivojlanishi protsessida qadim zamonlardan buyon O'zbekiston tarixi bilan taqdir bog'lab kelgan ko'pgina tillar bilan munosabatda bo'lib keldi. SHu protsessda aloqador tillardan zaruriy so'z va iboralar o'zbek tilining lug'at sostaviga kelib qo'shildi.

O'rta Osiyoning va O'zbekistonning sho'rolar tuzumi davrigacha qabul qilingan so'zlarning asosiy qismini arab, fors-tojik tilidan olingan so'zlar tashkil qiladi. Bu so'z va iboralar hamda ular bilan bog'liq holda kirib kelgan ayrim grammatik formalar zamonlar o'tishi bilan o'zbek tilining tub elementlari qatoriga o'tib keggandir. Arab va fors tillarining ta'sir doirasi ayniqsa XV asrda kuchaydi. Ma'lumki, o'zbeklar o'ratasida feodal munosabatlarning rivojlanib borishi va u bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanib borishi arabcha va forscha so'z, iboralarining tilga kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi. Tojik va o'zbek adabiyotining o'zaro yaqinlik munosabati o'zbek tilidagi badiiy adabiyotning misli ko'rinmagan darajada rivoj topishi, o'zbek klassik adabiyotining tug'ilishi va taraqqiy etishi bilan arabcha va forscha so'zlar o'zbek tilida keng va chukur ildiz yoyib keldi. O'zbek adabiy tilida bu hol XIV asrdan boshlab XU-XU1 asrlarda ochiqroq ko'rindi. Xuddi shu davrga kelib forsiy tili deb atalgan eski tojik adabiy tili va adabiyoti o'zbek savodxonlari orasida keng tarqaldi, shuhrat qozondi. Bu hol o'zbek adabiyotiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Arab tilining poetik elementlari ham o'zbek tiliga tojik tili orqali kirib keldi. O'zbek tilida yozilgan yodgorliklarning syujet va janriga qarab ularning lug'at sostavi har xil bo'lgan. Ba'zi yodgorliklar tilida arabcha va tojikcha so'zlar 95 foiz va undan ortiq edi. Lekin ular grammatik struktura jihatidan shubhasiz o'zbek tilining qonuniyatlariga bo'ysinar

edi. SHuning uchun ham ularni o`zbek tili yodgorligi deb yuritiladi. Bunday hodisani poetik asarlar tilida uchratish mumkin. Masalan Navoiyning;

Harārat jonima ul ātashin la`l āhgarindindur
Aḥa taskin ham iz ravzasiniḥ kavsarindindur
Sachiḥniḥ tiyra shāmidan yūzyḥ subhida yol tapmaq
Bināgo`shuḥ dag`i durri tabafro`z axtarindindur.
Taxurā bādasi derlār erur jānbaxshu ruqafzā
Magarkim chachini ul mayg`a la`liḥ sag`arindindur.

YUqoridagi uch baytda 33 ta so`z formasi qatnashgan bo`lib, shundan 9 tasigina turkiy (o`zbekcha) kolganlari esa arabcha-forscha so`zlardir.

Atoyidan olingan quyidagi 2 baytda esa so`zlarning deyarli barchasi arabcha-forschadir.

Dilrabā la`liḥ sharābi āb kavsardin latif
Qāmating naqli dag`i sarvu sanubardin latif
Sarhai xusnung qashida munfail avrāqi gul
Nuqtai xāliḥ abiri mushki anbardin latif.

Bunda faqat dag`i, qosh, xol so`zlarigina o`zbekchadir.

SHu davrda ijod etgan o`zbek shoirlarining ba`zi asarlari tili ham yuqoridagidan qolishmaydi. Hatto o`zbek tilining himoyachisi sifatida nom chiqargan Navoiy ham arab, fors-tojik so`z - iboralarni ma`lum sabab va sharoitlarga ko`ra ko`p ishlatgandir.

SHu davr adabiy tilida arab, fors-tojik so`z va iboralarning haddan tashqari ko`p ishlatib yuborilganligi o`zbek tilining kambag`al vav ma`lum tushunchalarni ifodalay olish imkoniyatiga ega bo`lmagan til ekanligani bildirmaydi.

O`zbek tili arab va fors-tojik tillaridek murakkab tushunchalarni ifoda qilish imkoniyatiga ega bo`lgan tillardan bo`lgan. Lekin bu til zamonasiga ko`ra

adabiy-badiiy jihatdan, ilmiy terminologiya jihatdan ishlanmagan edi. Ma'lum tushunchalarni ifoda qiluvchi so'z va ifodalar o'zbek tilida mavjud bo'lishiga qaramasdan xorijiy tillardan so'z va iboralar, ilmiy tushunchalarni bildiruvchi terminlar qabul qilingan. Buning o'ziga yarasha tarixiy sabablari mavjud. Ma'lumki, arab tili asrlar mobaynida faqat islom dinining tili bo'lib qolmasdan, balki musulmon sharqida fan xamda madaniyat bilan ham bo'lgan. Arab tilida asrlar mobaynida ishlangan va ilmiy jihatdan silliqqlangan tayyor terminlardan o'zbek shoirlari va madaniyat arboblari foydalanganlar. Arabcha ilmiy termin, so'z-iboralarni o'zbek tilida yozilgan ilmiy, falsafiy, tarixiy, adabiy-badiiy asarlar tilida keng qo'llanilgan. SHu so'z va terminlardan Navoiy ham keng foydalangan. Navoiyning ko'pchilik asarlar nomi ham arabcha berilgan. Buning o'ziga xos sababi bor. Birinchidan, Navoiy tomonidan mavjud traditsiyaning saqlanishi bo'lsa, 2-si o'zbek tilida yaratilgan asarlariga ko'pchilik diqqatini jalb etish bilan bog'liq.

O'zbek tilining murakkab tushunchalarni ifoda qila olish qudratiga ega ekanligi Navoiyning «Muhokamat-ul-lug'atayn asarida keng isbotlab berilgan.

YOzuv yodgorliklarida fors-tojik va arab tillari madaniyati merosiga yondashish va ulardan foydalanish printsiplari turlicha bo'lgan. Bu printsiplar shoir va yozuvchilarning ijtimoiy hayot taraqqiyotidagi tutgan o'rni va yo'llariga qarab hamda asarlarining janr va uslublariga qarab har xil shaklga ega bo'lgan. SHoir va yozuvchilar asarlarida arab va fors so'zlarini o'rinsiz ishlatgan o'rinlari va g'oyat darajada ajnabiy til elementlariga mehr qo'yib yuborgan o'rinlar ham uchraydi. Bunday hol ayniqsa diniy asarlar uchun xarakterlidir. Progressiv adiblar arab va fors tillari merosidan har doim ijodiy foydalanish uchun intilganlar. SHu xildagi intilishlar o'zbek adabiy tilining boyib, mukammallashib kelishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbek adabiy tili o'zining shakllanish va rivojlanish protsessida arab va fors-tojik tillaridan qanchalik ko'plab so'z va iboralar olib kelgan bo'lmasin, lekin u shu bilan birga o'zining tub xususiyatini yo'qotib yubormadi, balki o'zining grammatik strukturasini va asosiy lug'at fondini saqlash bilan birga asrlar davomida tarixiy bog'liq holda va izchillikda taraqqiy etib keldi. Progressiv shoirlar va yozuvchilar hamda umuman madaniyat arboblarning ulkan tarixiy xizmatlari tufayli boshqa tillar

adabiy merosidan ijodiy foydalanib, ulardan olingan namunalar tufayli uzluksiz boyib, rivojlanib keldi.

Savol va topshiriqlar:

1. XVI asr adabiy yodgorliklarida Alisher Navoiy an`anasi qaysi adiblarning ijodida aks ettirilgan?
2. Bobur asarlari tilining xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Muxammad Solih dostonining til xususiyatlari nimalardan iborat?

Tayanch tushunchalar:

*An`ana* – ajdodlardan meros bo`lib qolgan hatti-harakatlarni avlodlar tomonidan davom ettirilishi. Masalan, qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy til an`anasi XIV asrning birinchi yarmigacha davom ettirildi. YA`ni chigillar dialektiga xos d`-lashish xususiyatini bu XIV asrdan I chi yarmi yozma yodgorliklarida uchratishimiz mumkin.

Ibora – ikki yoki undan ortiq so`zdan tashkil topgan va yaxlit bir ma`no ifodalaydigan til birligi ibora deyiladi.

Munshaot – arabcha so`z bo`lib, yozishma, maktub degan ma`noni bildiradi.

9 - MAVZU

XVII-XIX ASRLARDA ADABIY TIL

Reja:

1. XVII-XIX asrlardagi ijtimoiy siyosiy ahvol.
- 2 XVII-XIX asrlarda yaratilgan adabiy manbalarda Alisher Navoiy a`anasining davom etirilishi.
3. Bu davrning dialektal murakkabligi.
4. Bu davr adabiy tilining demokratlashuvi.
5. Ijodkorlar asarlarining til xususiyatlari.

O`zaro feodal urushlar, Buxoro va Xeva xonliklarining eron davlati bilan urushga mamlakatda iqtisodiy va madaniy tushkunlikni yanada keskinlashtirar edi. SHuning uchun ham bu davrda ijod etgan shoir va yozuvchilarning asarlarida mehnatkash ommaning jabr ko`rishlari o`zining aksini topgan edi. Bu davr shunisi bilan xarakterliki, unda badiiy stilda hajviya stili keng qo`llanishda bo`ldi.

Bu davrning adabiy tili mahalliy shevalarga tayangan holda rivojlandi. XVII-XIX asrlardagi o`zbek adabiy tilini o`rganishda o`sha davrda yaratilgan tarix asarlari, tazkiralar, shoirlarning ijodlari asosiy manbaa bo`ladi.

Iqtisodiy va madaniy hayotdagi tushkunlikka qaramasdan XII-XIX asrlarda qator tarix, geografiya, falsafa, til, adabiyot va boshqa sohalarga doir asarlar yaratildi. Bular orasida Said Muhammad Toxir bin Abulqosimning «Ajoyib-ut-taqobat» nomli geografik asari, Abulqosim bin Sa`dulla al-Xusaynning «Natoyij-ul-fikr» tarixiy kitobi, Abulg`ozi Bahodirxonning «SHajarai turk», «SHajarai Tarokima», Muxammad YAroqchining «Muhit-ut-tavorix», SHermuhammad Ubaydiyning «Ubaydullanoma», Munisning «Firdavs-ul-iqbol», Muhammad Xokisorning «Muntaxab-al-lug`at», M.Mehdixonning «Sangloq « asarlari yuzaga keldiki, bularning hammasi o`zbek tilidagi adabiy harakatchilikning davom etib kelganligini ko`rsatadi.

XVII-XIX asrlar abdiy tilini o`rganishda mazkur davrlarda yashab ijod etgan shoirlar ijodi ham etarli manbaa bo`ladi. Bu davr adabiy tili rivojlantirishda Turdi Farog`iy, Nishotiy, Boborahim Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Bahodirxon Munis, Abulg`ozi Baxodirxon, Ogahiy, Feruzlar munosib hissa qo`shdilar.

Bu ijodkorlar asarlari tilida Navoiy an`anasi bilan birga, g`arbiy adabiy til shakllari ham uchraydi. Bu Fuzuliy she`riyati tilining ta`siri natijasida paydo bo`lgan.

Bu davr demokratik shoir va yozuvchilar ijodida umum o`zbek adabiy tili traditsiyasi mustahkamlanib, mukammallashib keldi. Buning yorqin dalilini Turdi asarlarida ko`ramiz.

TURDI ASARLARINING TIL VA USLUBI

SHoir Turdi XVII asrning oxirida Buxoroda ijod etgan demokratik tendentsiyadagi adabiyotning yirik namoyandasidir. Turdi ijodida satira asosiy o`rinni egallaydi.

Ma`lumki, satira janrida ijod etish ma`lum darajada shoirdan ko`tarinki uslubdan voz kechib, xalq jonli tiliga xos uslubda asar yaratishni talab qiladi. SHu tufayli ham Turdi she`rlarida xalq tilida qo`llanadigan leksika ko`plab aks etgan. Masalan, «Subxonqulixon to`g`risida hajviya» she`rida og`zaki nutqqa xos bo`lgan *ko`r*, *ko`ppak*, *qumaloq*, *qirchonu* va boshqa so`zlar qo`llangan. SHu she`rdan olingan quyidagi parchada buning isboti ko`rinadi:

Edingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
Kasb ilə mālın alib, qoymadingiz bitini,
Qamchilar dag` salib bugang`a, tilib bitini
Yardiniz zahrāsini (ichidan) alib etini
Bolmadi kam bu raiyat bashidan hech tayaq.

Bu banddagi she`rda ham *edingiz*, *itdek*, *etini*, *molin*, *bitini*, *buyunga*, *tilib*, *tayoq* kabi so`zlar og`zaki nutqqa xos so`zlardir.

Xalq jonli tiliga xos xususiyatlar faqat leksikada emas, balki morfologiyada ham ko`rinadi. Masalan, o`tgan zamon fe`lining II shaxs ko`pligida (qo`ymadingizlar) ko`plikning ikki marta qo`shilishi, shahar shevalaridagidek men olmoshiga —*ga* affiksi qo`shilgach, *menga* tarzida talaffuz qilinishi, *izladim* fe`lning shevalarda aytilganidek, *istadim* varianti ham qo`llangan.

Ne ayaq, ne bashig`a etdim, sarāpā istədim,
Qayadim ikki yolniñ ortasida hamrāh istədim.

Turdi she`rlarida xalq jonli tili xususiyatlari bilan birga, g`arbiy tillarning ta`sirini ham ko`ramiz. Albatta, bunda ulug` ozarbayjon shoiri Fuzuliyning asarlaridan ilhomlangan bo`lsa kerak. SHu ta`sir natijasida ayrim so`zlarda, ko`pincha so`zning boshnda keluvchi *t* tovushi *d* ga o`tadi.

Fitna sho`r hama ilə maskun dutdi

Xublar masnadini sifla bilan dun dutdi.

O`g`uz tillarida qo`llanadigan *cho`x* (ko`p) so`zidan foydalangan:

Tufrāg`da jān bitsə, ravādyr, ne ajab gyl

Mux sarvi sixl etdi nihān kəzləri shahlā.

O`g`uz tillariga xos jo`nalish kelishigi (*-a/ə* affiksi) formasida (Etmadim hech era bu qofiya paymolig`din), o`tgan zamon aniq fe`lining birinchi shaxs birligining-diman (YOt mandin kim bulur yaxshi zamonlar ko`rdiman) affiksi bilan hosil qilinishida, hozirgi-kelasi zamon fe`lining *-man*, (Bila olmon bu dudaul raxshi Rustam yo parizod) affiksi bilan, sifatdoshning *-an* (Barcha bo`yniga salan bu rishtani qat etmadi) affiksi bilan hosil qilinishida, harakat nomiga jo`nalish kelishigi affiksi qo`shilganda, unda fonetik o`zgarish yuz berishida (Zarni jam aylamaga hirsu havo besh tutub; yuzini ko`rmaga hasratda bo`ldum eshitib nomi) ko`rinadi.

SHunday qilib, Turdi bir tomondan ulug` Navoiy traditsiyalarini davom ettirgan bo`lsa, ikkinchi tomondan Ozarbayjon shoiri Fuzuliy ijodidan ta`sirlandi.

SHu tufayli adabiy tilda Alisher Navoiy an`analarini saqlagan bo`lsa, ikkinchi tomondan o`g`uz tili elementlaridan foydalandi.

ABULG`OZI BAHODIRXON ASARLARINING TIL VA USLUBI

XVII-XIX asrlarda yaratilgan asarlarda ikki xil tendentsiya mavjud edi. Birinchi tendentsiya shundan iboratki, unda Alisher Navoiy ijodiga ergashish tufayli badiiy asarlarda ko`tarinki uslub saqlangan edi. To`g`ri, bunday uslubda og`zaki nutq yoki jonli so`zlashuv tili elementlari ham keng qo`llangan. Ikkinchi tendentsiyada esa tarixiy, ta`limiy asarlar tilida dialektlarning adabiy tilga bo`lgan ta`siri yanada kuchaygan. SHu jihatdan Abulg`ozi Bahodirxonning «SHajarai turk» va «SHajarai tarokima» asarlarining tili xarakterlidir.

«SHajarai tarokima» asari turkman xalqi tarixiga bag`ishlangan. Unda afsonalar ham ko`p o`rinni egallagan.

«SHajarai turk» asarida yoritilgan ma'lumot uchta tematikaga bo'linadi:

1. Diniy xarakterdagi Odam ato haqidagi afsonalar.
2. O'g'uz-turkmanlarning O'g'uz haqidagi ma'lumotlari.
3. Real asosga ega bo'lgan, lekin afsonaviy tarzda etib kelgan voqealar.

Abulg'ozi Baxodirxon asarlari tilida adabiy tilning soddalashtirilgani ko'rinadi. Buning o'ziga yarasha sababi bor. Tarix asarlarini yozgan, ayniqsa, hukmdor oiladan chiqqan, mualliflar feodalizmni mangu tuzum deb, xalqli hukmdorlarga itoat ettirish uchun asarni xalq tushunadigan tilda yozishga harakat qilar edilar. SHuning uchun ham Abulg'ozi o'zining tarix asarlari boshqa tarixlardan farqli ekanini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: «Barcha bilingki, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug'atlarni qoshib tururlar va turkiyni ham saj` qilib tururlar. Uzlarning hunarlari va ustazlarini xalqqa ma'lum qilmaq uchun. Biz munlarning hech kaysisini qilmaduq, aning uchunkim, bu kitobni o`qug`uchi va tinglag`uchi, albatta, turk bolg`usi turur: bas, turklarga turkona aytmak kerak, to ularning barchasi fahm qilg`aylar». «SHajarai tarokima»dan olingan bu fikrni «SHajarai turk» dan olingan quyidagi parcha yana ham oydinlashtiradi: «Hamma ulug`lar, ham oddiy kishilar tushunsun teb, men bu tarixni turkiy tili bila aytdim. Turkiyni ham andoq aytubmenkim, besh yashar o`g`lon ham tushunur. Tushunush oson bo`lsun teb, men chig`atoy turkisindin, forsicha va arabchadin bir dona ham so`z qo`shmadim «.

Haqiqatan ham, Abulg'ozi asarlarining tilini kuzatar ekanmiz, unda san`atkorlarcha badiiy qayta ishlangan xalq so`zlashuv tilining namunasini ko`ramiz. Asarda arabcha so`zlarga nisbatan turkiy so`zlar ko`p o`rinni egallagan. Unda *ulkən, bitmək, ulus, yalavach (payg`ambar), tilməch, ushaq (mayda) charlamaq, kerklyk, kent, boluk (bo`lim)* kabi turkiy so`zlar qo`llangan.

Asarlar fonetikasida quyidagilar ko`zga tashlanadi:

So`z boshidagi *d -t* ga o`tadi: *degən-tegən, deb-teb, dedik-teduk*.

Ba`zi o`rinlarda so`z boshida *y-j* ga o`tadi : *yov-jav, yo`l-jo`l*

(Xorazmda jamlovchi *o`g`uz* shevalari mavjud bo`lganligi).

-q, -k undoshi bilan tugagan 2 bo'g'inli so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda *g* ulardagi *q* tovushi *g* ga o'tmaydi:

Ayaqi agrib yatur. eshiki yapiq.

Asarlar morfologiyasida esa tubandagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: -*chi* so'z yasovchiga nisbatan -*ji* varianti ko'p qo'llangan: *elchi, tevaji*.

Sonning tartib son turi - *lanchi* affiksi bilan hosil qilingan: *beshlanchi, etilanchi, tuquzlanchi*.

Kelishik formalarining barchasi qo'llanishda bo'lgan.

Xarakterli xususiyat shundaki, tushum kelishigining -*n/in//in* affiksi bilan hosil qilingan formasi ham qayd qilinadi: *kochlarin (xotinlarini) va kelinlarin chaqirib..*, Ma'lumki, bunday qo'llanish asosan poeziya janriga xosdir.

III shaxs kishilik olmosh an, ular alar tarzida qo'llangan.

Buyruq-istak maylining 1 shaxs ko'pligi -*ali//ali*

Affiksi bilan hosil qilingan. *emdi shah; Malikni aytaling. Uurtni buzali tesalar*.

SHunday qilib, Abulg'ozi asarlarida adabiy til so'zlashuv tilini yaqinlashtirishga harakat qildi va uning asari adabiy tilda xalq tili elementlarining mustahkamlanishi uchun munosib hissa bo'lib qo'shildi.

MUNIS ASARLARINING TIL VA USLUBI

XVII-XIX asrlar adabiy tilining taraqqiyotida, uning jonli so'zlashuv tili xlsobiga boyib borishida Boborahim Mashrab (1657-1711), Vafoiy (hayoti va faoliyati haqida to'la ma'lumot yo'q), Muhammadrizo Ogahiy, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammadniyoz Nishotiy, Mujrim-Obid, SHermuhammad kabi shoir va yozuvchilarning roli kattadir. SHundan biz Munis, Gulxaniy va Maxmur asarlarining til xususiyatlari bilan tanishamiz.

Munisning lirik she'rlari devon sifatida to'plangan bo'lib u «Munis-ul-ushshoq» deb ataladi. SHuningdek, u «Firdavs-ul-iqbol» tarixiy asarining hamda

pedagogika va tilshunoslikka oid «Savodi ta'lim» risolasining muallifidir. Munis Mirxondning «Ravzat-us-safo» asarini o'zbek tiliga tarjima ham qilgan.

Munis adabiyotida va adabiy til normalarini saqlashda Navoiy traditsiyalariga amal qiladi. SHuning uchun ham u Navoiyni o'ziga pir, ustod deb biladi:

Söz ichrə Navāiyki, jahāngirdurur

Munisg`a maāniy yolida pir durur.

Har bir progressiv yozuvchi va shoirlarda bo'lganidek, Munis o'z ijodiyotida Navoiy traditsiyalarini davom ettirar ekan, adabiy tilni xalq so'zlashuv nutqi hisobiga boyitib bordi.

Munis Xorazmiy asarlarida xalq so'zlashuv tilida mavjud bo'lgan leksik boyliklardan ustalik bilan foydalandi. Uning tilida *umoch, atala, tang, lang, pavgon, taqir-tukur, shaqur-shuqur, qabag`, tapuq, qopu, evur, evrulay evurdi, yugorusa, yurumoq, batar* kabi so'zlar qo'llangan. SHoir she'riyatida ko'tarinki ruhni saqlash maqsadida *ma`ni kishvarin (*ma'no viloyati), (ahli donish, guli-gulshan, otashi ishqing, ganji husn, guli latif, mehrobi tarh, (qayriyama g,osh uchun qurilgan bino), motomi oshufta (oshiq motami)* kabi izofali birikmalardan ham foydalandi.

Munis asarlaridagi grammatik formalar asosan o'sha davr normalariga muvofiq keladi. Ayrim affiks variantlaridagana farqlar seziladi. Masalan, qaratqich kelishigi —*nung* tarzida uchraydi:

Muniḡdek özyḡi xazin qılma көp

Kḡḡyl mātamidin g`amin qılma көp.

Umuman, kelishik affikslarining barcha singarmonistik variantlari uchraydi.

Munis she'rlarida bog'lovchilardan *lek, va lekin, var* kabi bog'lovchilari qo'llangan.

Lek sendin көryb base ixlās

Seni bu xizmat ichrə qilduq xās.

Valekin charxi dunparvar qilib lahza yyz bedad

Vujudimni etibdyr xāk yanglig` mujibi nakbat.

Var yaxshi tug`ulmasa qalamlar

SHak yoqki yaman tushular raqamlar.

Munis asarlarida o`g`uz tili elementlari ham ko`plab qo`llangan.

1.Buyuk Navoiy traditsiyasiga ergashish tufayli;

2.SHermuhammad Munisning o`zi o`g`uz shevasi vakili bo`lishi tufayli.

3.Ulug` Ozarbayjon shoiri Fuzuliyning ijodidan ilhomlanish tufayli uning asarlariga kirib kelgandır.

Uning she`rlarida sifatdoshning *-mish* affiksi bilan ifodalangan turi qayd qilinadi:

Hamesha bashim urarmen yoling sari sanamā

Magarki ishq aro bolmish men elga qiblanamā.

SHuni aytish kerakki, *-mish* affiksining olgan so`z uning asarlarida o`tgan zamon fe`li ma`nosida ham qo`llangan:

Roza bisyor meni taḥ etmish (etdi)

Badanim sust, ayag`im laḥ etmish.

*Bo`l* so`zining o`g`uz tillariga xos o`l varianti ham qo`llangan:

Har sēzki kōḥyldin oldi mavjud

Xat bolmasa, bolg`ay erdi nābud.

YOki:

SHayxlar kandidin oldim tangdil

Lutf ilə bol dilkusho, ey mug`bacha.

Navoiy va Bobur asarlarida uchraganidek, hozirgi-kelasi zamon fe`lining bo`lishsizi *-mon* affiksi bilan ifodalangan:

Bā vujudi mahrumiyat tapmisham mahrumlik

Har nechə qilsam jaamul bilman aniḥ illətin.

Munis asarlaridagi arabcha-forscha soʻzlarning qoʻllanishida Navoiy va Bobur traditsiyasiga amal qilganini koʻramiz. Munis tomonidan qoʻllangan arabcha, forsha-tojikcha soʻzlar Navoiy va Bobur asarlarida qayd qilingan soʻzlardir. Lekin ulardan Munis oʻz oʻrnida va maqsadga muvofiq foydalangan Turkiy soʻzlardan foydalanish yaʼni undan qofiya, radif sifatida foydalanishda Lutfiy ijodining taʼsiri koʻrinadi. Masalan,

Tez etar jānān gʻami ishqim otini qozgʻalab

Qaydurur ul otgʻa bir-bir ustuxānimni qalab.

YOki:

Jāningʻa urdung ātashi ishqing tutashturub,

Yaqting songaklarimni ul otgʻa qalashturub.

YOki:

Ultururlar meni har dam kəzu qashi talashib

Tirguzurlar ikki jān baxsh dudāgʻi yarashib.

Keltirilgan baytlardagi qofiyalarda turkiy soʻzlar ishtirok etgan. Munis hatto undov va taqlidiy soʻzlardan ham qofiya sifatida foydalangan.

Firākiḥ shiddatidin kəzlərimdin qan aqar tim-tim,

Kərib ani raqibi kinavar har dam kylər qah-qah.

CHekar zavqi sihi qadding bilə qumri figʻān ku-ku

Tuzar shavqi gyli roʻyiḥ bilə bulbul navā chaq-chaq.

Koʻrinadiki, oʻzbek adabiy tili imkoniyatlari Munis ijodida keng kuloch yoydi.

GULXANIY ASARLARINING TIL VA USLUBI

Oʻzbek adabiy tili taraqqiyotining XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi

holatini Gulxaniy asarlari orqali o`rganamiz. Gulxaniy shoir sifatida bir necha g`azallar va XVIII asr oxirining prozasi namunasi bo`lgan «Zarbulmasal» asarining muallifidir. Uning g`azallarida tematikasi va tilida avvalgi shoir va yozuvchilar traditsiyasi saqlangan holda, unda o`g`uz elementlari nisbatan kengroq o`rin egallagan. Masalan,

I shaxs hozirgi-kelasi zamon fe`lida o`*tuzcha* xususiyat seziladi.

Belu ag`zidin nishān gar biz sari mo` desələr,

Əylərəm inkār iqrār etmədim dārin kəryū.

Sifatdosh bo`lishsizdan so`ng -z affiksi bilan hosil qilingan:

Kəngyl əzydədyr dunyag`a arzi ehtiyoj etməz

Tariqat saliki, bu yolda mayli izdivāj etməz.

SHart mayli -za affiksi bilan hosil qilingan.

Ayrim so`zlardan fonetik jihatdan ozarbayjon tiliga xos xususiyat ko`rinadi:

Qayu bemāra la`lidin shifā vermish masih āsā

Nadin ul sho`x anglab, Gulxaniy, darding ilāj etməz.

«Zarbulmasal» asari o`sha davr prozasining namunasi bo`lishi bilan birga, fol`klor materiallaridan foydalanib yozilganligi uchun ham, xalq tilining adabiy tilga yaqinlashtirishga xizmat qilgan asarlardandir.

Gulxaniy «Zarbulmasal» asarida xalq og`zaki ijodi asarlarini qayta ishlash bilan birga uning uslubi va badiiy vositalarini ham saqlab qoldi. Bular quyidagi holatlarda ko`rinadi:

1.«Zarbulmasal»ning ayrim hikoyalari xalq og`zaki ijodiga bo`lgan so`zlar bilan boshlanadi: «Bor erdi Farg`onada bir sarbān» (Tuya bilan bo`taloq), «Ilgargi ayyomda ikki kabutar bor erdi» (Bozonda va Navozanda).

2.Ommaviy janr bo`lgan maqollardan o`rinli foydalangan.

Asarda ikki tildan (o`zbek, tojik) maqollar keltirilib boradi va bu

maqollar asar mazmuniga ustalik bilan singdirib boriladi.

Asar tilida jonli tilga xos boʻlgan quyidagi xususiyatlarni koʻramiz: 1. Qaratkich va tushum bir xil koʻrsatkich bilan ifodalangan oʻrinlar mavjud:

Hosili umri edi ul bayni

Ati gunashbonu oshal bayni.

2. -q bilan tugagan soʻzlarga III shaxs egalik affiksi qoʻshilganda, negizidagi shu undoshlar jaranglamaydi: *Farāsāt ayaqi aqsaq qizni āshiqigʻa berdi.*

3. Adabiy tilda qoʻllanib kelingan *echmaq, chechmaq*, tarzida qoʻllangan: «*YAna bir masal borki: er bashiga shi tushsa, ʻetyk chechmāy suv kechār*».

4. Jonli tilga xos boʻlgan —*turgon* affiksi qoʻllangan: *hamiyat himmatini darjoʻsh kelturub, yarim xazina dinār, yyz teva, uch yyz qaramal, uch yyz yilqi, besh yyz qoy va qizniḡ bash-kēzi yasala turgan qalinni jamlab...*

5. Jonli tilda boʻlgan *itərchi* (*it boquvchi*: «*It qigʻonni itorchi qilmas*»), *yavuuq* (*uzoq*), *sunmaq* (*taklif qilmoq*:) «*Soqiya tushtaroqlar piyola suna boshladilar*»), «*Burnogʻi (avvalgi)lar masalidurki*».

SHuningdek «Zarbulmasal»da xalq oʻrtasida keng qoʻllanadigan *teva, taka, ayran, sapal, qatqaq, burunduq, taylaq, qoʻnaq, aqsaq, yantaq, boqaq, kulba, kurk tavuq, tutav, sachbagʻ, tushav, boʻydaq*, kabi soʻzlar ishlatilgan.

6. Ogʻzaki nutkda koʻp qoʻllaniladigan frazeologik birikmalardan foydalangan: *agʻzini bir burchidin chekar,.. Jan satib ʻezin uyin etardi tan. Agʻiz ashga etgəndə burni qanagan, xās tarbuzni qoltugʻuḡga alma* va boshqalar.

«Zarbulmasal»da qoʻllangan boshqa til elementlari avvalgi soʻz ustalari asarlarida ishlatilib kelgan grammatik va leksik elementlarga muvofiq keladi.

Asarda fors-tojik va arab soʻzlari ham ana shu davr traditsiyasiga koʻra qoʻllangandir. Gulxaniy asarlarida stil talablariga muvofiq sinonim soʻzlardan unumli foydalangan: *gʻam-gʻussa-anduh, āsmān-kək-falak, xalq-ulus-el, ism-at, yoldash-hamrāh, nāma-xat, ay-qamar, āftāb-quyash-shams-xurshid, chayan-aqraq, taraf-jonib,*

yyz-āraz-jamāl, daryo-nahr va boshqalar.

Demak, Gulxaniy jonli tilning leksik va grammatik imkoniyatlaridan keng foydalandi. Saroy aristokrat yozuvchilari esa jonli tildagi qator oddiy soʻz va iboralarni qoʻllashdan bosh tortib saroy adabiyotining murakkab, ogʻir til va davom ettirgan bir vaqtda Gulxaniyning jonli til elementlarini keng qoʻllashi dunyoviy adabiyotning hamda shu bilan oʻzbek adabiy tilining boyishida ulkan ahamiyatga ega boʻldi.

MAXMURNING SATIRIK ASARLARI TILI VA STILI

Maxmur oʻzining xajviy asarlari bilan inqilobgacha boʻlgan oʻzbek adabiy tilidagi satirik oqimni rivojlantirdi. Maxmurning hajviyotiga murojaat qilish bejiz emas. Chunki xalqning achinarli hayot kechirishini, qishloq va shaharlarning xarobaga aylanib borishini koʻrgan shoirning gʻazabi oshgan edi. Ana shu gʻazablari «Munojon ba dargohi qoziyul xrijot» (xudo dargohida yolvorish), «Hapalak», «Taʼrifi valoyati qurama» kabi satirik asarlarida oʻz aksini topdi.

Avval aytganimizdek, Satira janrida ijod etish sanʼatkordan badiiy til vositalaridan ustalik bilan foydalanib satira ostiga olinayotgan obraz tilini individuallashtirishda jonli til elementlaridan unumli foydalanishni taqozo qiladi.

Maʼlumki, klassik sheʼriyatimiz uchun koʻtarinki uslub xarakterli. Satirada esa sheʼrdagi koʻtarinqilikni saqlash bilan birgalikda, barcha uchun tushunarli boʻlgan uslubni yaratish talab qilinadi. Xuddi shu talab Maxmur satirasida amalga oshirilgan. Individual til va obraz yaratish uchun Maxmur ayrim shevalarga xos boʻlgan soʻzlardan foydalanadi: *qisa-qilsa, boma-bolma, qigan-qilgan, kegay-kelgay, bosam-bolsam, yanilmadim-yanmadim, ayilmadim-ayrlmadim*. Undan tashqari keng xalq ommasida qoʻllanib, omma kitobiy uslubga kiritilmagan soʻz va iboralarni koʻplab ishlatadi. Masalan, *katalak, kamalak, katak, kapa, ālachuq, ertoʻla, ajiriq, oʻgur, sumalak, biyobān, alatoʻrtkoʻz, koʻppak, burush (burd), yalaq, tubak* va boshqalar. Misollar:

Xalqini kersəŋ agar ələsi-yü qaqu xarāb,

Achligidin egilib qāmati misli kamalak.

Ajrig` tamirini og`urida mayda tuyub

Qaynatib kyndə ichər, atini derlər sumalak.

Maxmur satirasida adabiy til normalaridan chetga chiqish hollari ham seziladi. Masalan, «Munojot» satirasida shunday misralar bor:

Amri-nahying rāhi bātil uzrə ermish yadimiz

Kecha u kunduz sifatingdur bizi arzākimiz.

«Avsofi louboli o`ratepagi» satirasida:

Hisābi jurmimi bilsəg SHumāri chox qumdin

Gunāxdin sorsang saḡgi xāradin afzun.

SHuningdek, shoir uslubida ba`zan na o`zbekcha, na tojikcha anglanishi qiyin konstruktsiyalar, lug`atsiz tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlar uchraydi. Ular ko`pchilikni tashkil etmaydi.

SHunday qilib, XIX asrning 1-yarmida Qo`qon xonligida yashab ijod etgan, progressiv o`zbek adabiyotining vakillaridan biri bo`lgan Maxmur o`zining merosi, xususan satirik asarlari bilan o`zbek adabiyotining, o`zbek adabiy tilining taraqqiyotiga munosib hissa qo`shdi.

NISHOTIY ASARLARI TILIDA NAVOIY AN`ANASINING DAVOM eTTIRILISHI

Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrda etishgan iste`dodli lirik va epik shoirdir. U adabiyotdagina emas, balki adabiy til sohasida xam Alisher Navoiy ana`nasini davom ettiradi.

Nishotiyning ijtimoiy - siyosiy fikr va mulohazalari «Husnu Dil» dostonida o`z ifodasini topdi. Bu asar shoir tilini o`rganishda muhim manba hisoblanadi.

Nishotiy o`z dostonini xalq og`zaki ijodidan ustalik bilan foydalangan holda yozdi. Xalq og`zaki ijodidagi qoliplash usulidan foydalanib, uning ichiga ta`limiy tarzdagi bir qancha masalalarni kiritdi. Ular Nishotiy tilining sodda xalq

tiliga yaqinlashishiga olib keldi.

«Husnu Dil» dostonining tili mumtoz epik sheʼriyat uslubi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bundan tashqari, dostonning ayrim boblari qofiyalangan nasr uslubida yozilgan. Masalan: «*husni dilnavāz, vafābanum sāhib eʼzāz va nāzi tannāz, gʻamzai, gammāz gesui fusunsāz va mahliqāi aynapardāz va shahtakayayaumi sehrparvāra va mehrībānui basōzu gudaz, qāmatsardāri balandparvāz, sarvi sarafrāz, yaʼni faudi sāhibning... xizmatga tayyar edilar*».

Nishotiy xalq ogʻzaki ijodi uslubiga ergashdi, doston tilini ham ommabop qilishiga intildi. SHuning uchun xalq maqollari, hikmatli soʻzlari va iboralarini asar misralari mazmuniga ustalik bilan singdirdi.

Nishotiy oʻz asarlarida xalq maqollaridan foydalanar ekan, ulardan ilhomlanib, oʻzi ham xalq maqollari darajasida iboralar ijod qiladi:

Toyu aza xush turur ahib ila,

SHadiyu gʻam ham yana atrab ili.

Nishotiy oʻz asarining mumkin qadar sodda, maʼnoli, ravon va obrazli boʻlishi uchun xalq tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original oʻxshatish, istiora, kinoya, mubolagʻa, sifatlash, majoz va qarama - qarshi qoʻyish usullarini qoʻlladi. Masalan:

Boldi ayān turfa kitali kabir,

Qorqusisidin tashladi hamlāni SHer.

SHoir bu misrada ishq lashkari bilan aql navkari oʻrtasidagi jang tasvirini berar ekan, urushning shiddatidan SHer ham qoʻrqib, oʻz qornidagi homilasini tashlab qoʻydi, deb mubolagʻa qiladi. SHoir dostonida omonim soʻzlardan ham oʻrinli foydalanadi. Bir soʻz bilan bir necha maʼnoni ifodalashga harakat qiladi:

Yyz uzə churuk yagʻach erdi burun,

Har yera barsa, barban ul burun.

Bu parchada birinchi misradagi «burun» soʻzi odam aʼzolaridan biri maʼnosida, ikkinchi misrada avval, ilgari maʼnosidadir.

XVII - XVIII asrlarning boshqa shoir-yozuvchilarida boʻlgani kabi Nishotiyning «Husnu Dil» dostonida ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlar uchraydi. Doston tilida Buxoro va Xorazm shevalariga xos soʻz va iboralar hamda grammatik unsurlar topiladi. Masalan, *margi nav muborak, himmati sipahdar, husni dilnavoz, Nazi Tannaz* kabilar.

Nishotiy asarlari tilida morfologik jihatdan quyidagi xususiyatlarni uchratish mumkin.

«Xusnu Dil» dostonida turlanish kategoriyasi hozirgi oʻzbek tiliga oʻxshaydi. Ammo qaratqich kelishigining qoʻshimchasi *-niḡ, -ḡ* shaklida ishlatiladi.

Arshning astida erur ganji raz ...

Qāimating *ag`ushiga* qildi nigāh...

Tushum kelishigi qoʻshimchasi *–ni/-ni, -i/-i* shaklida, chiqish kelishigi qoʻshimchasi —*din/-din* shaklida keladi:

Qorqusidin tashladi hamlani SHer,

Kelturung aqli dedi kishvarsitan.

Navoiy va Fuzuliy asarlarida boʻlgani kabi Nishotiy asarida joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi —*ga/-a* tarzida ishlatiladi:

Har biriga nam edi bir ehtiram,

Har yera barsa, bariban ul burun.

Olmoshlar Nishotiy asarlari tilida hozirgi oʻzbek tilidagi olmoshlarga oʻxshaydi. Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari *ul, an* tarzida, shuningdek, *qayu soʻroq* olmoshi, *nimarsa, kimarsa* soʻroq-gumon olmoshlari ishlatiladi:

Xar ne yoq, andin yaman, andʼsh yaman –

Parvarish aylar ani ayvān ara,

Vah qayu ayvanki dilu jān ara.

Nishotiy tilida ravish *-lik* affiksi bilan hosil qilinadi. Ravishdosh esa —*iban* affiksi orqali ifodalanadi:

Talpiniban oylaki suvsiz baliq,

Jān yoq edi anga bugun taqlaliq.

YOrdamchi soʻzlardan bilan, birla, ila dagʻi kabi koʻmakchilar; *Kim, -ki, gar, agar, ne, lek* kabi bogʻlovchilar ishlatiladi. Bogʻlovchilardan na Nishotiy dostoni tilida koʻp qoʻllanadi:

Anda na zavqu, na huzuru, na nur...

Anda na ilmu, na amal, na yaqin...

«Husnu Dil» dostoni leksikasida *ulus, kabir, qapu (eshik), gulgula, valvala, dagʻi, karam* kabi soʻzlar uchraydi.

Mazkur asar XVIII asr oʻzbek dostonchiligidagina emas, balki oʻsha davr oʻzbek adabiy tili tarixida ham oʻrin egallagan ajoyib sheʼriy hissa hisoblanadi.

XVII - XVIII asrlardagi ilgʻor adabiyotning oʻsib, kamol topishida xalq ogʻzaki ijodining roli katta boʻldi. Adabiy tilda esa xalq tili unsurlari, sheva xususiyatlari oʻz ifodasini topdi. Xalqning boy ogʻzaki adabiy merosidan, til boyligidan taʼsirlanish natijasida oʻsha davr shoirlari tilida frazeologik iboralar, *turgʻun* birikmalar koʻplab ishlatila boshlandi. Bu bilan ular oʻz asarlarining xalqchiligini, realistik ekalogini isbotlaganlar.

Savol va topshiriqlar:

1. XVII-XIX asrlardagi ijtimoiy siyosiy ahvol haqida tarix fanidan nimalarni bilasiz?
2. XVII-XIX asrlarda yaratilgan qaysi adabiy manbalarda Alisher Navoiy anʼanasining davom ettirilgan?
3. Bu davrning dialektal murakkabligi nimadan iborat?
4. Bu davr adabiy tilining demokratlashuvi deganda nimani tushunasiz?

5. *XVII-XIX asrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilarning qanday asarlarini bilasiz?*

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O‘qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

10-MAVZU

YANGI IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANIB BORISHI SHAROITLARIDA O`ZBEK ADABIY TILINING TAKOMILLASHISH XARAКTERI

Reja:

1. *O‘zbek xalqi adabiy tilining so‘nggi davri:*
 - a) *XIX asrning 60-pillaridan 1905 yillargacha bo‘lgan adabiyoti;*
 - b) *1905 yildan inqilobgacha bo‘lgan davr;*
2. *Bu davr o‘zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari.*
3. *O‘zbek adabiy tiliga gazeta va publitsistik uslublarning kirib kelishi.*
4. *Umummilliy tilni yaratish sohasidagi urinishlar: panturkizm, panislomizm.*
5. *Bu davr ijodkorlari asarlarining til xususiyatlari, uslublari.*

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi o‘zbek adabiy tiliga tarixiy

xarakteristika.

Bu davrdagi adabiy til O`rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan yuz bergan tarixiy sharoitda taraqqiy etdi. CHor Rossiyasi bosib olgan o`lkalardagi xom-ashyo manbalaridan to`liq foydalanish va shu boyliklarni o`z foydasiga hal qilish uchun qator tadbirlarni ko`rish kerak edi. SHu tadbirlar mamlakat hayotida iqtisodiy va madaniy xususiyatdagi o`zgarishlarni kiritish bilan bog`liq edi. SHu iqtisodiy problemani hal qilish uchun mamlakatda katta va kichik xajmdagi ishchi korxonalar (paxtachilik bilan bog`lik, bo`lgan fabrika va zavodlar), O`rta Osiyoni Rossiya bilan bog`laydigan temir yo`l, qishlok xo`jaligini rivojlantirish uchun sun`iy irrigatsiya inshootlarini qurish kabi tadbirlar amalga oshirilishi lozim edi. Bularning hammasi CHorizmning kolonial siyosatini tashkil qilar edi. Haqiqatan xam, mamlakatda asta-sekin turli ko`rinishdagi ishchi korxonalari paydo bo`ldi. Temir yo`l qurildi. eski shaharlar yonida yangi tipdagi shaharlar qad ko`tardi. SHahar va qishloklar hayoti o`zgara boshladi. Bularning xammasi o`zbek xalqining hayotida ob`ektiv ravishda progressiv ahamiyatga ham molik bo`ldi. SHu asosda o`zbek orasiga yangi madaniy elementlari kirib keldi. Xalqimiz rus va ular orqali Evropa madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ldi. Bular esa o`z navbatida milliy ishchilar sinfining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Mamlakatning tarixi, etnografiyasi ilmiy asosda o`rganila boshladi. Bosib olgan o`lkalardagi xalqlarni qullikda saqlash, reaksion urf-odatlariga xayrixoxlik ko`rsatish, balki ularni tarbiyalash, har qanday ozodlik harakatini bo`g`ish, xalq orasida shovinistik tuyg`ularini tug`dirish va tarbiyalash kabilar CHorizm siyosatining g`oyaviy asoslarini tashkil qilar edi. CHorizm siyosatining iqtisodiy asoslari bilan g`oyaviy asoslari o`rtasidagi ziddiyat shu davrdagi butun ziddiyatlarni keltirib chiqarar edi. Mol-mulkdan ajralgan, mehnat kuchini sotgan milliy proletariat, ular kuchidan foydalangan va boyigan milliy burjuaziya, qishlokda er suvdan ajralgan batraklar va ular hisobiga boyib borgan milliy quloqlardan iborat yanga sotsial guruhlar vujudga keldi. Hayotiy kurashda butun sotsial tabaqalar ishtirok etdilar. Bu kurash va ozodlik intilishlari ayniksa 1905 yilgi revolyutsiyasining ta`siri ostida yanada jadallashdi. Bu davrda tosh bosmalarning vujudga kelishi bilan o`zbek tilidagi vaqtli matbuot paydo

bo'ldi. 1870 yilning 28 apreldan o'zbek tilida 1-marta «Turkiston viloyatining gazet» degan gazeta nashr qilina boshladi. U Turkiston general-gubernatorining organi bo'lib, uning siyosatini tarqatar edi.

Rossiya bilan O'rta Osiyo revolutsion harakatning o'sishi natijasida yangacha siyosiy-leksika va terminologiya hamda rus tili ta'sirida yangacha grammatik konstruktsiyalar paydo bo'ldi. Bu hol Hamza va S.Ayniyning dastlabki asarlarida, M.Behbudiy asarlarida ham mavjuddir.

Adabiyot va vaqtli matbuotdagi davrning turli ta'sir kuchini hisobga olib yuqorida ko'rsatilgan asarlardagi adabiy tilni ikki davrga bo'lishi mumkin:

1.XIX asrning 60 yillaridan 1905 yilgi revolyutsiyasigacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili:

2.1905 dan Oktyabr' sotsialistik revolyutsiyasigacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili.

O'RTA OSIYONING CHOR ROSSIIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINGANIDAN 1905 YILGACHA BO'LGAN DAVRDAGI O'ZBEK

ADABIY TILI

O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi chekka o'lkalarda yashagan millatlar va elatlar shu jumladan o'zbek xalqining ham rus madaniyati va adabiyotidan bahramand bo'lishida ijobiy rol' o'ynadi. Bu davrda ikkita adabiyot-reaktsion va progressiv-demokratik adabiyoti o'sdi va taraqqiy etdi. Davrning adabiy tiliga diqqat qilsak,, undagi o'zgarish va burilish avvalo leksikada ko'rinadi. XIX asrning II yarmida so'z san'atkorlari yangi tushunchalarni ifodalash uchun rus tiliga, mahalliy shevalarga va o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlariga murojaat qildilar.

So'z tanlash va ijod qilishda o'sha davrda uch manbaga asoslanib ish tutdilar.. Ular quyidagilardir:

1.O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan so'zlar hisobiga adabiy til boyidi. Ma'lumki, jamiyatda paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday so'zlarning bir qismini

semantik neologizmlar tashkil etadi. Rus madaniyati va fani bilan bog'liq kirib kelgan tushunchalar quyidagicha ifoda qilingan:

a) Ruscha tushunchalarning ma'nosini berish uchun o'zbek tilida avvaldan bo'lgan so'zlar moslashtirilgan. Masalan, Jahonnoma geografiya ma'nosida, manzil (*T.Z.G*)-stantsiya ma'nosida, bosmaxona-tipografiya, tabib-vrach, nishon (*T.V.G*)-orden.

b) Rus tilidagi terminlarni kol'ka qilish orqali yangi tushunchalar ifoda qilingan: *poxval'naya gromata-ta'rifnoma*, *ambulatornaya - tabibxona*, *upravitel' — boshqaruvchi*, *jeleznaya doroga — temir yo'l*, *beliy tsar' — oq poshsho*, *povestka - chaqiruv qog'ozi*, *kerosin - er yog'i*, *shtraf - jarima puli*, *ruchka - po'lod qalam*, *poezd - otash arava*, *poroxod - otash kema*.

2.Xalq jonli tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar, Bu davr so'z san'atkorlari XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan Maxmur, Gulxaniy traditsiyalarini davom ettirib, «avomcha» hisoblangan xalq tilidan foydalanib adabiy tilning boyishiga xizmat qildilar.

Professor Karimov ta'kidlaganidek, adabiyotning jonli tilga intilishi va uning xazinasidan samarali foydalanishi bu adabiyotning hayotga yaqinlashayotganidan, realizmga qarab intilganidan dalolat beradi. Haqiqatan xam, demokratik adabiyotda realizmning g'alaba qilayotganligi adabiy til taraqqiyotida ham, uning leksik sostavida ham ko'rinib turadi. SHunday ekan, demokratik adabiyot vakillarining asarlarida jonli so'zlashuv tiliga xos bo'lgan so'zlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, *bo'zchi*, *kosov*, *bezgak*, *paxsa*, *loy*, *arava* va boshqalar.

3.Adabiy til rus tilining hisobiga boyidi. «Turkiston viloyati gazetisi» da mahalliy ziyolilar ayrim asar va maqolalarni rus tilidan tarjima qilib nashr qila boshladilar. Bunda ko'pgina ruscha so'zlar o'z holicha qabul qilindi. Bundan tashqari madaniy va siyosiy hayotdagi boshqa o'zgarishlar rus tilidagi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishiga olib keldi.

SHu davrdagi progressiv-demokrat shoir va yozuvchilar asarlarida «Turkiston viloyati gazetisi» sahifalarida quyidagi sohalarga oid ruscha va rus tili orqali kirgan so'zlar qo'llangan:

1. Ijtimoiy-siyosiy, harbiy-politsiya rejimi bilan bog`liq bo`lgan so`zlar: *uezd, volost', duma, pristav, konsul, soldat, tor'ma, shtraf, geniral, gubernator*.
2. Transportga oid so`zlar: *poezd, vagon, kolyaska, vokzal, stantsiya*.
3. Pochta va telegraf bilan bog`liq bo`lgan so`zlar: *pochta, telegraf, adres, marka, konvert*.
4. Sanoat va moliya ishlari bilan bog`liq so`zlar: *zavod, fabrika, kupets, magazin, bank, vensel'*.
5. Fan va madaniyat bilan bog`liq so`zlar: *gimnaziya, teatr, muzika, muzey, gazeta*.
6. Meditsinaga oid so`zlar: *gospital', doktor, lazaret, fel'dsher*. 7. Sud ishlariga oid so`zlar: *sud'ya, zakun*.
8. Hujjat va mukofotlarga oid so`zlar: *bilet, pasport, orden, medal'*.
9. Uy-xo`jalik predmetlari nomlari: *samovar, stol, stul, patnis, talinka, lampa, fonuz, pech', kalish, dran, sitets*.
10. O`lchov birliklari nomlari: *pud, sajen, vershon, minut*.
11. Oziq-ovqatga doir so`zlar: *pivo, kvas, limonad, kofe, konfet, kartoshka, suxari*.
12. Etnik va toponomik nomlar: *Moskva, Rossiya, ingliz, frantsuz, rus*.

Bu davrdagi rus tilidan o`zbek tiliga so`z qabul qilinishi asosiy sababi shundan iboratki, madaniy turmushda bir qancha yangiliklar paydo bo`ldi. Bunday tushunchalarni ifodalash uchun o`zbek tilida so`z yo`q edi. SHuning uchun rus tilidan to`g`ridan-to`g`ri so`z qabul qilganlar.

XIX asrning II-yarmida rus tilidan o`zlashgai so`zlarning bir qismi aslida turkiy so`zlardir: Ular yangicha ma`no va ba`zi fonetik o`zgarishlar bilan qabul qilingan. Bularga *tovar, istihān, karandash (qalam) boyar, bek, bashmak, kolpak, kabluk, chulan, cherak, den'gi, karaul, yarlik, kabak* va h.o. O`zlashgan so`zlar ichida etimologik jihatdan arabcha va Evropaning boshqa mamlakatlari tillariga oid so`zlar ham bor.

YUqoridagi kabi soʻzlarning aksariyat qismi jonli soʻzlashuv nutqi orqali va vaqtli matbuot orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan.

Turli tildagi tarjimalar faqat rus tilidan emas, balki fors-tojik tilidan ham boʻldi. Ayniqsa bu davrda Bedil ijodi bilan qiziqish va unga ergashish kuchaygan edi. SHu tufayli demokratik shoirlar zullisonaynlikni davom ettiradi. Natijada klassik adabiyotda fors-tojikcha, arabcha leksik va grammatik elementlardan foydalanish traditsiyasi ham davom ettirildi.

OʻZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA MUQIMIY

IJODINING ROLI

XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshida yashab ijod etgan Oʻzbek demokratik shoirlari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz Oʻtarlarning asarlari oʻzining gʻoyaviy mazmundorligidan tashqari, tilining soddaligi va ravonligi bilan ham feodal-saroy adabiyotiga mansub boʻlgan reaksion shoirlardan ajralib turadi. Demokratik shoirlar oʻz asarlarining ommaga tushunarli boʻlishiga va unga tezroq borib etishiga katta ahamiyat berdilar. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtirishga, jonli til elementlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitishga intildilar.

Oʻzbek adabiy tili koʻp asrlik traditsiyaga ega boʻlib, u A.Navoiy tomonidan shakllantirilgan va rivojlantirilgan edi. Biroq zamonlar oʻtishi bilan Navoiy tilidagi ayrim formalar oʻzgarib eskira boshladi. Muqimiy asarlari tili Navoiy tilining eski oʻzbek adabiy tilining davomi hisoblansa-da, undan koʻp jihatlari bilan farq qiladi. Bu farq asos-eʼtibori bilan tildagi xalqchilikda koʻrinadi.

Muqimiy mehnatkash omma hayotidan faqat tema, syujetnigina olmadi, balki shu bilan birga bitmas-tuganmas manba boʻlgan xalq tilidan ham unumli foydalandi. Bu jihatdan uning satirik asarlari tili xarakterlidir.

Muqimiy asarlari tilidagi xalqchilik xalqning jonli tiliga xos boʻlgan kichraytish, erkalash kabi maʼnolarni ifoda qiluvchi soʻz formalarini qoʻllashda koʻrinadi.

Zulfu kəkilchələri yǝzginəsiggə tushgan

Anga oxsharki, tutar ayginani hālagina.

Soʻz turkumlaridan ot, sifat va ravishga *-gina*, *-cha*, affikslarini qoʻshish orqali yuqoridagi maʼnolarni ifoda qilishga erishgan.

Muqimiy juda ham rang-barang boʻlgan jonli soʻzlashuv tili vositalaridan ustalik bilan foydalandi va adabiy tilni yangi soʻzlar, frazeologik birikmalar bilan boyitdi. Bunday soʻz va iboralardan quyidagilarni koʻrish mumkin: «*YOtqizib tilsəḡ banāgāh qarnidan iqmas alif*», «*qoydi sāyil kabi nechə xil nān*», «*qaysi kyn hajdan keldi boldi rasvābachchagʻar*», «*Kocha darbāza toy kuni zanjir*», «*zanchaligi*», «*rudāpa, dagʻuli*» «*solagʻi chiqqan*», «*luchchak*», «*hangu mang*», «*nosu bang*».

SHoir satirasi lirikasida xalq soʻzlashuv tiliga oid qator soʻzlarni uchratish mumkinki, ularning ekvivalenti shu davrgacha adabiy tilda boʻlgan emas. Masalan, xalq soʻzlashuv tilida «sdacha» maʼnosida «kolgʻich» soʻzi ishlatilgan. SHu soʻz Muqimiyda qoʻllangan:

Āshiqidin choyxoʻrini bexabar qalgʻich olur,

Emdi bolmish it, agar chandiki ilgəri kiyik.

Paqir soʻzi (chaqa pul maʼnosida).

Satar olsaḡ, əzim bahā qoysam,

Bir miri atu bir paqir aravang.

Tag, joy soʻzi.

Magʻrur xasisu beshu kam,

Har ganda goz ichkay qasam,

Tag jāy alur maxāvdiḡ ham,

Hāji əzi murdār ekan.

Muqimiy satiralarida baʼzi soʻzlar koʻchma maʼnoda qoʻllanib, adabiy tildagi maʼno xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressiv boʻyoqqa ega

ekanligi bilan ajralib turadi. Misollar:

Toyga øzi tuxumdin xātin demədi,
Achchig`idin atasi ash emədi.
YAkka nafsimga gadālig` əyləsəm, andag` eməs,
Jo`jasi kəp qip-qizil degən: qani don?» ko`samen
Ichkərisi birlə ham emdi tavakkal gap esəng
Erləri ornig`a shāld xātunidin tegsə gap.

YUqoridagi baytlardagi tuxum so`zi qarindosh-urug`, jo`ja- bola-chaqa, ichkari-xotin-qiz, ayol ma`nosida qo`llangandir.

Muqimiy asarlarida jonli tilga xos leksik elementlarigina emas, balki fonetik xususiyatlari ham aks etgan: Misollar

Nogoh kayfi uchkay kelsa agar taroxlab
Ichkan giyahi bo`lsa ko`knor, aroba qursun.
Ilohi saxla sharridin, Muqimiyga jiyandur bu
Bahaqqi choriyoru hurmati payg`ambaron, bezgach.

Bu fonetik hodisa Farg`ona vodiysi shevalari uchun xarakterlidir.

Muqimiy ijodida so`zlashuv tilida bo`lgan *eng uchida, øpkəni bas, kəzgə bizi ilməgəy, ashi misāli tabaqda kəz yashi, changi chiqdi* kabi frazeologik birikmalardan unumli foydalangan.

Muqimiy asarlarida -zor affiksi jonli tildagidek shaxs otlariga ham qo`shilib kelgan:

Etdim ul oqshom g`am yutub,
Dashti qarakchizār ekən.

Muqimiy asarlari tili eski o`zbek tilining davomidir. Muqimiy asarlari tilida klassik shoirlarda uchrovchi leksik elementlar, grammatik formalarni uchratish mumkin. Navoiy va boshqa klassiklar leksikasida qatnashgan so`zlar Muqimiy lirikasidan ham

o`rin olgan.

Uning asarlari grammatik kurilishida esa Navoiy tilida qayd qilingan barcha formalar uchraydi.

MUQIMIY TILIGA RUS TILINING TA`SIRI

Muqimiyning satirik asarlarida 32 ta ot turkumiga, 2 ta sifat, bittadan ravish, yuklama va fe`l turkumiga oid qo`llangan.

Bunda ot turkumiga oid so`zning ko`proq bo`lishi bir tildagi ikkinchi tilga predmet bilan birga kirib kelgan so`zlarning o`zlashishini ko`rsatadi.

Muqimiy asarlari tiliga rus so`zlari asosan og`zaki nutq orqali kirib kelgan. Chunki rus tili va rus tili orqali kirgan so`zlar shu davrda qanday talaffuz qilingan bo`lsa, shundayligicha olingan. Masalan, *o`rus, kantur, zavut, kupes, chut(schyot), uez, poliska (politsiya), purjina, klaska, pristun, kalush, meshin, piyon (p`yaniy) doxtur, vogun, bo`lis, ishtiron, zakun, zakalat (zaklad), dabirnas.*

Rus tilidan qabul qilingan ba`zi so`zlar ma`nosi kengaytirilgan. Masalan, *vagun* so`zi *poezd* ma`nosida qo`llangan:

Sur`at ilak xayr ulusdin etib

Borlig`i ham xayriyat uldi vog`un.

Samovar so`zi choyxona ma`nosida qo`llangan:

Takyalab charlar, samovaru oqar suv xush havo.

Muncha ham serob ekan, obod olding oxunim.

Muqimiy rus tilidan kirgan ayrim so`zlarda o`zbekcha so`z yasovchi affikslar qo`shib yangi so`zlar hosil qilgan:

Moshinachiga berub, tiktirmaganda barvaqt

Sovuq havo, Muqimiy ojiz, yamon, afandim.

SHunday so`zlarga tiligrafchi, purjinali kabi so`zlarni ham keltirish mumkin.

Ruscha so`zlardan shaxs nutqini individuallashtirish maqsadida ham

foydalangan. Bunday maqsadda *seychas*, *durrak*, *pajalista*, *poshol*, *piyonista* kabi soʻzlarni qoʻllagan.

Topib mardiktrini-seychas yuring

Pojalista- der edi-emdi turing.

Muqimiy tomonidan qoʻllangan ruscha soʻzlarning ayrimlari hozirgi tilimizda adabiy til normasiga aylangan boʻlsa, ayrimlari kabul qilingan emas.

FURQATNING OʻZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Furqat Oʻrta Osiyoning Rossiyaga qoʻshilishi natijasida tugʻilgan yangi tarixiy ijtimoiy ongning progressiv xarakterini adabiyotda targʻib qilgan ijodkorlardan va oʻzbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan maʼrifatparvarlardan biridir.

Furqatning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi ahamiyati shundaki, u demokratik shoir sifatida badiiy adabiy til uslubni soʻzlashuv nutqiga yaqinlashtirishga harakat qildi.

Furqat asarlari orqali adabiy tilga neologizmlarni olib kirdi. U adabiy tilni yangi leksikaning semantik tushunchalari va iboralar bilan boyitishga intiladi. Badiiy adabiyot tilida fan va texnikaning taraqqiyoti, shuningdek ijtimoiy-munosabatlarning oʻzgarishi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan yangi tushunchalarni ifoda qiluvchi soʻzlarni qoʻllaydi. Uning poeziyasi tilida leksik neologazmlar: *gazeta*, *doktor*, *zavud*, *zakon*, *lampa*, *moshina*, *sallot*, *telegrom*, *par (juft)*, *perevot* kabi soʻzlarni qoʻllaydi.

Umumxalq tili materiali zaminida vujudga kelgan semantik neologazmlar kabi, Furqat tilida ancha mahsuldordir. SHoir oʻz davridagi yangi tushunchalarni toʻliq ifodalash maqsadida umumxalq tilida oldindan isteʼmol qilinib kelgan soʻzlarni tanlaydi va shu soʻzlar asosida original semantik neologazmlarni yaratdi. Bunday semantik neologazmlar shoir tilida konkret bir tushunchani anglatib, oʻzining dastlabki nominal maʼnosini ancha oʻzgartiradi. Masalan, *avom* soʻzi barcha lugʻatlarda izohlanishiga, oddiy xalq maʼnosini bildiradi. Furqat tilida esa bu soʻz yangi semantik xususiyatga ega boʻlib, johil maʼnosini anglatadi.

Furqat poeziyasida «oddiy xalq» tushunchasidan tashqari ilm-fan ahlidagi yuz o`giruvchi aristokratiya tabaqasi atrofidagi bir guruh yaramas unsurlar ham ifodalanadi.

Esizkim, bizning o`tmush xonu beglar
Kechib shiratda zoyi subhi shomi:
Keturmay yonig`a bir ahli donish,
O`ziga xos etib necha avomi. (Gimnaziya).

SHu kabi barq, doru so`zlarini va «ishorat aylamoq» birikmasida ham shunday hol ko`rinadi. Barq so`zining lug`aviy ma`nosi chaqmoq bo`lib, muallif uni elektr toki ma`nosida qo`llaydi. Doru so`zini esa elektr tokini yuzaga keltiruvchi yonilg`i yoki shunga o`xshash zaruriy vosita ma`nosida qo`llaydi. Ma`lumki, doru so`zi kishi organizmini sog`lom qiluvchi ximik moddani bildiradi. Fonus so`zi aslida arabcha bo`lib, qo`l fonarini anglatgan. Furqat esa uni elektr lampochkasi ma`nosida qo`llagan:

CHunonchi ikki fonus axli hikmat,
YAsabturlar qilib izhor san`at.
YOnar befilta, begugurt, be yog`
Anga bir sim ishorat aylagay chog`.

(Toshkent shahridagi vistavka xususida).

SHu davr so`zlashuv tilida esa fonus so`zi umuman chiroq ma`nosida qo`llangan.

Bulardan tashqari, Furqat poeziyasida individual-stilistik ya`ni avtor tomonidan yaratilgan, adabiy tilda ham, so`zlashuv tilida ham uchramaydigan yoxud siyrak uchraydigan neologizmlar bor.

Masalan: *maqom* (odat), *mardumdorliq* (odamgarchilik), *chortan* (turtovlan), *jangu hangoma*, (munozara), *araq chekmoq* (terlamoq), *sihatlikka etishmoq* (sog`aymoq) va boshqalar.

Furqatning o'zbek adabiy tili, xususan, badiiy adabiyot tili taraqqiyotida tutgan o'rni yana uning rus xalqi madaniyati, ayniqsa, rus tiliga bo'lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Furqat rus tilining chuqur hayotiy mohiyatini to'la tushungach, o'z xalqini xam bu tilni o'rganishga da'vat qildi. SHu jihatdan, «Turkiston viloyatining gazetini»ning 1892 yil 13-sonidagi uning quyidagi so'zlari xarakterlidir: *«Rossiya xalqi xat va lison o'rganmoqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdur. Balki mamlakat obod bo'lib, fuqaro va raiyalar osoyishta bo'lmoqlarini xohlaydilar. Az baski Rossiya xalqi hamma vaqt biz musulmon xalqining davlatmand va xursand bo'lmog'imizg'a qo'shish qiludur»*.

Furqat ma'rifatparvar shoir sifatida rus tilini kundalik hayotdagi eng zaruriy vositalardan biri hisoblab, uni targ'ib qila boshladi. Ana shu munosabat bilan o'zining qator she'rlarida, ayniqsa 90-yillarda yozgan liro-epik she'rlari va maktublarida ijtimoiy-siyosiy xamda madaniy hayotning turli sohalariga tegishli bo'lgan va leksik-semantik jihatdan o'sha davrda yangi hisoblangan rus internatsional so'zlarni ko'plab ishlatadi. Masalan, *ad'yutant, zol, moshina, medal', muzikon, foytun, fabrikat, teatr, yarmanka, nomer* va h.o.

Furqat poeziyasida ba'zi bir rus-internatsional so'zlarning asl lug'aviy ma'nosi o'zgargan holda ham uchraydi.

Masalan, *muzikantning* fonetik o'zgargan varianti *muzikon* muzika asboblari ma'nosida qo'llangan: *«CHalindi anda har xil muzikonlar»* (Akt majlisi xususida).

Ayrim so'zlar, masalan, *moshina* so'zi so'zlashuv tilidagidek, ko'p ma'nolarda qo'llangan. *Moshina*-ipok ishlab chiqaradigan qurolni bildiradi. *Ipak moshinasi* bila tegirmon,

Ko'p, anda ayladi olamni hayron.

Parovoz ma'nosida:

YAna moshinam otash aroba

Turur hikmat tilsimoti masobya.

Pilarama ma`nosida:

YAna najjur ishin oson qilurg`a,

Bo`lib moshinalar taxta tilurg`a. (Vistavka xususida).

Rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan qabul qilingan so`zlarning maksimal qismi oldin so`zlashuv tilida keng iste`mol qilingan, so`ng adabiy tilda xuddi so`zlashuv tilidagi kabi fonetik, morfologik va boshqa belgilari bilan ishlatilgan. SHunga o`xshash xususiyatlar Furqat poeziyasi tilida ham ko`rinadi. Masalan, antrakt o`rniga kantrakt, zavod o`rniga zavut, Frantsiya o`rniga Frangiston yoki «mulki Fransus».

Furqat rus so`zlari ishtirokida yangi so`z va so`z birikmalari ham hosil qilgan: Bu quyidagilarda ko`rinadi:

1.Rus-intl so`zlarga o`zbekcha so`z yasovchi qo`shimcha qo`shish bilan yasalgan yangi so`zlar: *nomerlik, zovitchi: qildilar maxsus nomerlik maqom* (Toshkent shahrida bo`lgan nota bazmi xususida).

2.Ruscha va o`zbekcha so`zlarning birikuvidan yasalgan murakkab fe`llar: *perivoy qilgon*.

3.Ruscha-internatsioanll so`zlar vositastsda hosil bo`lgan aniqlovchili birikmalar:

Bo`lib vaqti akt majlisi soz,

Qilurg`a Rusiya rasmini og`oz. (Akt majlisi xus).

O`n ikki og`zi moshinalik to`p,

Ajoyib to`p yana andin bulak ko`p. (Vistavka xus).

Furqat lirikasida ulug` Navoiy taraditsiyalarini davom ettirgan bo`lsa, ijtimoiy-siyosiy lirikasida, ma`rifatparvarlikni ifoda qilgan asarlarida o`zbek adabiy tilini yangi so`z va ma`nolar bilan boyitishda katta xizmat qildi.

ZAVQIY ASARLARINING TIL VA USLUBI

Ubaydulla Solih o`g`li Zavqiy o`zbek demokratik adabiyotining mashhur

namoyandalaridan biridir.

Zavqiy o`z uslubida soddalik, ravonlikka erishish maqsadida xalq og`zaki ijodidan samarali foydalandi. U xalq og`zaki ijodiga xos ibora va maqollarni she`riy misralarga singdira bildi:

Farq aylamay yaxshi-yomon,
Kim arpa-bug`doy, kim samon.
Tuhmat haqoratlar hamon,
Ne muddaosiz afandilar.

Zavqiy uslubining soddaligi uning she`rlari xalq qo`shiklari uslubida yozilganligidadir. Masalan,

Kulfat tushib boshig`a,
Og`u tushib oshig`a.
Kelmay kishi qoshig`a,
Aqronu mehribonlar.

Bunday uslubdan foydalanganligi tufayli Zavqiy asarlarida jonli xalq tili elementlari ko`pdir.

Zavqiy o`z asarlarida xalq tiliga xos so`zlardangina foydalanib qolmay, unga xos bo`lgan so`z birikmalarni ham qo`lladi:

Bu padar la`nat harom o`lgur otim,
Har qachonkim, men minar bo`lsam kasal.

Keltirilgan misollardagi *padar la`nat*, *xarom o`lgur* birikmalari xalq so`zlashuv tiliga xosdir. Zavqiy tilining Muqimiy va Furqat tilidan farqli tomoni shundaki, unda til xalqchilligi, jonli xalq tili elementlarini nisbatan ko`p qo`llaganligidadir. Bundan tashqari Muqimiy va Furqat asarlarida bo`lganidek, Zavqiy asarlarida xam ruscha-internatsional so`zlarni uchratamiz.

Zavqiy asarlarida *veksel*`, *poyiz*, *vagun*, *kalaska*, *jurnal*, *tilgrom*, *banka*,

bo`lis, siyoz (se`zd), pristup, bol'shevik kabi rus va rus tili orqali kirgan so`zlar qayd qilinadi.

Zavqiy rus tilidan yuqoridagi kabi faqat otlarni emas, balki sifat va so`z birikmalarni ham stilistik talab asosida qo`lladi:

Ko`r bo`lmasa pul oqib kelurmu,
Bu badshakl, slepoy durakka,
Uruscha maqtasa Zavqiy, xorosho
Juvon, pir, mardu zon monandi shidur.

Umuman, Zavqiy ham o`z poeziyasi bilan o`zbek adabiy tilini xalq tiliga yaqinlashtirdi.

AVAZ O`TAR O`G`LI ASARLARINING TIL VA USLUBI

O`zbek demokratik adabiyotining ko`zga ko`ringan adiblaridan hisoblangan Avaz O`tar o`g`li asarlari bilan o`zbek adabiy tili ravnaqiga munosib hissa qo`shdi.

Barcha demokratik shoir va yozuvchilar kabi Avaz O`tar o`g`li ham buyuk Alisher Navoiy tomonidan asoslangan adabiy tilni rivojlantirishga, davr talabiga mos formalar axtarib topib, uning taraqqiy etishida barakali xizmat qildi.

Avaz O`tar davr talabiga javob beradigan til vositalarini xalq so`zlashuv tilidan o`zbek adabiy tiliga olib kirishga harakat qildi. Masalan, uning she`rlarida *zindon, chora, ijara, sham, kulba* kabi xalq tilida qo`llanadigan so`zlar qo`llangan. Buning yorqin dalili quyidagi satirik to`rtlikda ko`rinadi:

Sipohi poro istar,
Mulla ijora istar
Bechora chora istar,
Bir chora zamon bormu?

Xalq so`zlashuv tili xususiyatlari ayrim morfologik belgilarda ham ko`rinadi, Avaz O`tar she`rlarida yozma asarlar tiliga xos bo`lgan va bog`lovchisi deyarli

qoʻllanmagan. Uning asarlarida harakat nomining -v//uv//uv affiksi bilan hosil qilingan formasi qayd qilinadi. SHu jihatdan uning «Til» degan gʻazali xarakterlidir:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur
Til vositai robitan olamiyondur.
Gʻayri tilini saʼy qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilmu hunarlar rivoji andin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani gʻayrat eting, foydali kondur.
Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni
Onda oʻqugʻonlar sori yakton jahondur.
Zor oʻlmasun onlar dogʻi til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin ani bagʻri toʻla qondir.

Xalq soʻzlashuv tiliga xos yana quyidagilar Avaz Oʻtar asarlarida qayd qilinadi.

1.Maʼlumki, men olmoshi eski oʻzbek adabiy tilida 1-boʻgʻinda e tovushi saqlanadi. Avaz Oʻtar sheʼrlarida esa ogʻzaki tilga (shevaga) xos boʻlgan a tovushiga aylanadi:

Oh kim qildi falak, ayru diyorimdin mani
To yiroq solmoqqa bir gulrux nigorimdin mani.
YOki:

Molimni yoʻlida aylabon sarf,
Mandin hazar etgusi gadolar.

2.Xorazm shevasiga xos uygʻonib oʻrniga uyonib formasi qoʻllangan:

Bu yangligʻ olam ahlidin keyin qolmay yurush ayla,
Avaz, boʻlgʻay uyonib komgoru komron millat.

Avaz O`tar asarlari tilida Navoiy traditsiyasi quyidagilarda ko`rinadi.

1. Navoiy o`z asarlari bilan o`zbek adabiy tilida yirik asarlar yaratib, o`zbek tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan bo`lsa, Avaz O`tar o`g`li ham shu traditsiyani davom ettiradi. Buning dalilini yuqoridagi faktlarda ko`rdik.

2. Navoiy asarlarida qo`llangan ko`pgina so`z va so`z formalaridan foydalanadi:

a) III-shaxs kishilik olmoshining ko`pligi alar formasida ham qo`llanadi:

Umidim-yashasin maktab bolasi,

Alar har biri sheri jayonim.

(«Fidoyi xalqim»).

b) *-dag`i* bog`lovchisi qo`llangan:

Ko`ngullarning sururi, dog`i ko`zlar nuridir farzand,

Alarning umrini, albatta obod etgusi maktab.

v) *-gu//ku//gu//ku* affiksidan foydalangan:

Bo`lg`usi, ey dil, muyassar vasli jonon, g`am ema,

Kim oning kelmakligiga bordur imkon, g`am ema.

g) ravishdoshning *-bon//ibon//ubon* affiksi bilan hosil qilingan formasi qayd qilinadi:

Ochib har bir sarida maktabing unvonin aylab cho`x,

Taraqqiy aylamasmu o`qubon behaddu son millat.

d) kelasi zamon sifatdoshining qo`llanishida ham Navoiy tiliga xos forma qayd qilinadi:

Ne manga yoronu hamdam, ne manga bir mehribon

SHum iqbolim agardi (eyurdi), yo`ku borimdan meni.

e) jo`nalish kelishigining *-a//e* affiksli formasi aktiv qo`llangan:

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek.

j) so`roq olmoshi qago Avaz O`tar she`rlarida qo`llangan:

Qaro millatga bizdek gar nosimi inqiroz etsa

Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi makteb.

3. Navoiy tilida uchraganidek, O`g`uz grupp (Xorazm shevasining o`g`uz grupp sheva bo`lganligi uchun ham) tillarining ta`siri uchraydi.

Masjidni o`ziga dom etibdur,

Bilmam, buni kim imom etibdur.

Avaz O`tar she`rlarida «SHajarai turk» va «SHajarai tarokima» asarlarining ayrim ta`siri ham qayd qilinadi. Masalan, III -shaxs kishilik olmoshining ko`plik formasi onlar tarzida ham qo`llangan:

Bilmayin onlarda hech millat, vatanni saqlamoq

Bo`ldi qurbon bu sababdin doimo ag`yor xalq.

Avaz O`tar o`g`li asarlari leksikasini asosan turkiy va arabcha-forscha so`zlar tashkil etadi. Rus va rus tili orqali kirgan so`zlardan u deyarli foydalanmadi.

Umuman, o`zbek adabiy tili XIX asrning II-yarmida o`zining yuqori bosqichiga ko`tarilishida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O`tar o`g`li kabi demokratik-ma`rifatparvarlarning asarlari rol` o`ynadi.

GAZETA-PUBLITSISTIK STILINING PAYDO BO`LISHI VA TAKOMILLASHISHI

Turkistonning Rossiyaga qo`shilishi turli xil iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo`ldi. Rossiyaning chekka o`lkalarida adabiy va madaniy harakatchilik islomni reforma qilish, uni burjuaziya talablariga ko`ra modernizatsiyalashtirish yo`li bilan olib borildi. Natijada milliy burjuaziyaning ideologiyasi vujudga keldi.

Demokratik yo`nalishda bo`lgan ma`rifatparvar o`zbek ziyolilari O`rta asr despotizmiga, asrlar bo`yi davom etib kelgan qullik va jaholatga qarshi kurashdilar.

Adabiy harakatchilik panturistik, panislamistik nazariyalar asosida rivojlandi. Turli ta'sirlar natijasida Rossiyaning chekka o'lkalarida «umumiy turk tili» to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokratik-ma'rifatparvarlar esa o'zbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar XIX asrning II yarmidan boshlab paydo bo'lgan nashriyot va vaqtli matbuotda o'z ifodasini topdi. Avval aytganimizdek 1871 yildan mustaqil ravishda «Turkiston viloyati gazetasi» keyinchalik 1906 yildan «Taraqqiy» gazetasi chika boshladi. SHu davrdan boshlab o'zbek adabiy tilida gazeta-publitsistik stil paydo bo'ldi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishidan so'ng rus tilidan qilinadigan tarjima asarlari soni ko'paydi. Bunga asosiy sabab rus tilining madaniy hayotdagi roli va ahamiyati oshganligidir. SHuningdek, rus-tuzem maktablarining erli xalq bolalari bitirib chiqa boshladilar. Ularning kuchi bilan ruschadan o'zbekcha va o'zbekchadan ruschaga asarlar tarjima qilish ishlari boshlandi.

Rus tilidan diplomatik xujjatlar, rasmiy yozishmalar, informatsion maqolalar, qishloq xo'jaligiga oid, ilmiy, tibbiy texnik, siyosiy-tarixiy va shu xildagi asarlar tarjima qilindi. Ular «Turkiston viloyati gazetasi»da bosilib turdi.

SHunday qilib, «Turkiston viloyati gazetasi» XIX asrning II- yarmi va XX asr boshlarida o'zbek madaniyati, xususan, adabiy tili tarixida ma'lum ijobiy rol' o'ynadi. Furqat, Sattorxon, Ishoqxon kabi ilg'or intelligentsiya vakillari gazeta orqali adabiy va publitsistik faoliyatlarini namoyish qildilar.

Furqat dastlab gazetani «E'lonnoma» deb tushunadi, lekin keyinchalik uning siyosiy ijtimoiy ahamiyatini tushunib, unda aktiv ishtirok etdi Sattorxon 1883-1890 yillar davomida redaksiyada muharrir yordamchi va tarjimon bo'lib ishlaydi.

Ular o'zlarining publitsistik maqolalarida va xatlarida fan-madaniyatni tarqatuvchi sifatida maydonga chiqdilar.

Furqat, Sattorxon, Isxoqxon publitsistikasining tili alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zbek adabiy tilning gazeta-publitsistik tili va stili rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular o'zbek adabiyoti klassiklarining eng yaxshi traditsiyalarini davom ettirib, o'zbek adabiy tili rivojlanishiga munosib hissa

qo`shdilar.

Ular o`zbek tilini arxaik elementlardan tozaladilar, uni yangi iboralar va ruscha-internatsional so`zlar bilan boyitdilar.

Ruscha-internatsional so`z va iboralarni publitsistik maqolalarida ham so`zlashuv tilidagi formasida ishlatdilar *tiligraf, zavud, moshin, rael, fotogrif (Furqat), giniral, gubirnatur, uezdnoy, ushpul, afitser, kamisiya* (Sattorxon)

Ishoqxonning quyidagi fikrida rus tili ta`sirida o`zbek tiliga o`zlashtirilgan leksik elementlarni yaqqol ko`ramiz «*Asrimiz madaniyati bor erdi, chunonchi otash aroba, hatto uchadurgon apriplon, giramo`fo`n, fatogrof, tipograf, litograf, anvon mashinalar avtomo`bil, valisafed,tilsiz tiligromlar, necha-necha ashei jadida, anvoyi adidalar-hammasi mavjud edi*» (TVG)

Ayrim so`z va terminlar trajimasi bilan berildi pachotniy, ismotritel', ya`ni izzatlik nozirlik, Ho`qand shahridagi madrasada *pachotniy ismotritel, ya`ni izzatlik nozirlik mansabida turdim* (TVG, 1890, 3 son)

Ayrim ruscha internatsional so`zlar va birikmalar davr talabiga binoan arabcha, forsha so`zlar bilan tarjima qilib berilgan Masalan, *tupchi, tura (gospodin artillerist), vaziri ilmiya (maorif ministri), ilmiya masmtsati (pedsovet majlisi), murshidi (yo`lboshchisi), jahonnoma, jarroh (xirurg), tarroh (arxitektor), hakim (vrach), mudarris (professor)*

Gazeta publitsistik stilida qo`llangan ruscha-internatsional so`zlar doirasida quyidagi qatamlar mavjud edi

1 Siyosiy-diplomatik tushunchalarni anglatuvchi so`z va terminlar: *sudya, komissiya, konsul, duma, siyezd, monifest, zabostufka, morsileza, onorxiya* va h o

2 Harbiy tushunchalarni biddiruvchi suz va terminlar *pulkovnik, kopiton, giniral, litinont, ofitser* va hokazo.

3 Pochta-telegraf bilan bog`liq so`zlar: *tshshgraf po`shtaxona, morka, tilfo`n*

4 Matbuotga doir so`zlar: *redoksiya, gazetxona, harf bosadurgon moshina*

5 Madaniy-maorif ishlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: *gimnoziyya, muzi, laboratoriyi, tirmometr, kompos.*

6 Administratsiya bilan bog'liq so'zlar: *inspektur, direktur, ministur, onjirnoy (injener), grojdonen va h o*

Gazeta tilida o'zbek tilvda mavjud bo'lgan yasovchi affikslar (ularning ayrimlari fors-tojik elementlaridir), ya'ni *-lits, -lik, ma, -chi, -xona*, kabi affiks va affiksonlar erdamida yangi so'zlar yasaldi Ularining eng mahsuldori *-chi* affiksi hisoblangan Bu affiks ishtirokida go'za ekuvchi, oktabrchi, saylovchi so'zlari, *-lich* affiksi ishtiroktsda buzg'unliq, *-ma* affiksi ishtirokida otishma, *xona* affiksi erdamida po'shtaxona kabi so'zlar yasalgan

SHuningdek so'z yasovchilardan o'rinsiz foydalangan hollar ham seziladi, *-chi* affiksi bilan yasalgan so'zlarda shunday hodisa yuz bergan *Xurriyatchilar va hukumatchilar orasida voqe' o'lmish, gazitachi, (jurnalist)* kabi

Muhimi shundaki, gazeta-publiistik stilida badiiy stilning ta'siri kuchlidir, chunki badiiy stil o'zining ko'p asrlik traditsiyasiga ega edi Ayni zamonda gazeta publitsistik stilining shakllanishi natijasida bu stilga xos ayrim xususiyatlar badiiy adabietga ham singib bordi Bunda Furqat, Ishoqxon, Sattorxonlarning roli katta bo'ldi.

UMUMIY TILNI YARATISH SOHASIDA BO'LGAN KURASHLAR.

PANTURKSIZM VA PANISLOMIZM

(1905-1917 yillar)

Ko'pchilik turkiy xalqlarda bo'lganidek, O'zbek xalqi o'rtasida ham umummiliy tilni yaratish masalasi keng tarqaldi. Natijada barcha turkiy xalqlarda bu masalada ikki xil qarash maydonga keldi. Bulardan birinchisi Ismoil Gaspirinskiy va Vasliy kabi shaxslar tashabbusi bilan yuzaga kelgan panturkistik va panislamistik nazariyalar bo'lsa, ikkinchisi milliy tilni o'z ona tili zaminida yaratish tarafdorlari bo'lgan demokratik ma'rifatparvarlarning qarashidir.

Panturkizm [pan-barcha (yunoncha) va turkiya] Turk burjuaziyasi va pomeshchiklarning XX asr boshlarida paydo bo'lgan va turkiy tillarda gaplashuvchi

barcha xalqlarni Turkiya hukmronligiga bo'ysindirish, yagona turk davlatiga birlashtirish ideyasini targ'ib qiluvchi reaksion shovinistik oqimdir

Bunday g'oya til siyosatida ham o'z aksini topdi.

Umumturkiy adabiy til nazariyasi dastlab qrimlik Ismoil Gaspirinskiyning «Tarjimon» gazetasida propaganda qilindi. Bu gazeta 1883 yildan chiqib boshlaydi va hamma turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til g'oyasini olg'a suradi. 1905 yilda Butunrossiya musulmonlarining III se'zida Ismoil Gaspirinskiyning tashabbusi bilan turkiy xalqlar maktablarining yuqori sinflarida «yagona turkiy til» o'qitilishining majburiy qilib qo'yadi.

Umumturkiy til masalasi esa tatar, ozarbayjon, o'zbek gazetalarida va jurnallarida turlicha talqin qilindi.

«Ulfat» gazetasining 1906 yil 5 iyul' sonida panturkist Ali Qo'rqudning «Istambuldan xat» nomli maqolasi bosiladi. Maqolada yozilishicha, usmonli turk tilini tatarlar, ozarlar, O'rta Osiyo turklari, Sibir' va Mug'ulistongacha bo'lgan bir qator turkiy xalqlar tushunadilar. SHuning uchun u umumiy adabiy til bo'lishiga qodir. SHu gazetaning 1906 yil 19 iyuldagi sonida panturkist Kenjaboyning maqolasida ham yuqoridagi g'oya ifodalanadi.

Tatar tilida chiqadigan «Vaqt» gazetasida esa turkiy xalqlar uchun tatar tili yagona adabiy til bo'lishi ta'kidlanadi.

Bu xil panturkistik qarashlar Ozarbayjon va O'rta Osiyoda nashr etilayotgan matbuot sahifalarida ham ko'rinadi.

O'zbek burjuaziyasi va -burjua millatchilari «chig'atoy» tilini O'rta Osiyo xalqlari uchun umumiy til bo'lishi kerakligini uqtirar va propaganda qilar edilar.

Bunday va kurashlarning siyosiy mohiyatini venger turkologi G.Vamberi to'g'ri baholagan edi. «Reformistlar va puristlar umumiy turkiy til nazariyasini ko'tarib chiqish bilan xalqlarning etnik chegaralarini hisobga olmay umumturk xalqi yaratishni ko'zda tutadi».

Ko'pchilik ommaga tushunarli bo'lmagan umumtil tez orada o'z o'rnini

milliy tillarga bo'shatib berdi.

Bu davrga kelib panislamizm g'oyalari ham matbuot sahifalarida targ'ib qilina boshladi. Ma'lumki, panislamizm XIX asrning ikkinchi yarmida yaqin SHarqda paydo bo'ldi va musulmon mehnatkashlarining sinfiy kurashini so'ndirish maqsadida islom dinidagi barcha xalqlarni bir davlat qilib birlashtirishni targ'ib qilib kelgan reaksion diniy-siyosiy oqimdir. Panislamizm g'oyalari SHarq mamalakatlaridagi reaksion feodallar hamda yuqori tabaqa musulmon ruhoniylarining manfaatlariga xizmat qiladi. SHunday maslakda bo'lgan Vasliy (Samarqandlik) «Sadoi Farg'ona» gazetasining 1914 yil 21 sentyabr' sonida «Islom asoslari»deb atalgan maqolasini e'lon qiladi. Unda quyidagilarni yozadi: «Bizning dinimiz islomdir. Har bir musulmon uchun u arab tilidir. Har bir musulmon arab tilining sarf va nahvini o'rganishi shart». Demak, bunda arab tilining adabiy til bo'la olishi ta'kidlanadi.

Turkiy xalqlar adabiy tildagi bu xil panturkistik va panislamistik g'oyalar burjuaziyaga xalq ommasini yangi taraqqiyot yo'liga boshlash uchun imkoniyat bermadi. Burjua millatchilari bir qancha tortishuv va bahslardan so'ng matbuotda har bir tilning mustaqil hukm surishini tan oladilar. Ona tili uchun kurash adabiy va madaniy kurashning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

YUqoridagi fikrlarga qaramasdan, Turkistonda o'zbek adabiy tili ilg'or mahalliy intelligentsiya tomonidan rivojlantirildi. Bunda Furqat, Sattorxon, Ishokxon, Mulla Muhammadamin kabi demokrat ma'rifatparvarlarning roli katta bo'ldi.

Ayniqsa, o'zbek adabiy tilining targ'ib qilinishi va o'rganilishi haqida Mulla Muhammadamin tomonidan «Turkcha qoida» asarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda asosan arab tili grammatikasining ta'siri kuchli bo'lsa ham, o'zbek tili faktlari nisbatan to'g'ri yoritildi. Asarda faqat arab grammatikasi emas, balki rus tilshunosligi elementlari ham (ayniqsa, punktuatsiyaga oid bo'limda) mavjud edi.

Asarning «turkcha qoida» deb nomlanishi ham bejiz emas, chunki u davrda o'zbek adabiy tiliga nisbatan turkcha, o'zbekcha degan terminni qo'llash traditsiyasi

mavjud edi.

O'zbek adabiy tili turli davrlarni o'z boshidan kechirdi. Natijada turli davrlarda turli so'z va grammatik formalar qo'llanishda bo'lgan. Masalan, XI va XVI asrlarda o'zbek adabiy tilida ko'plab arab, fors-tojik so'zlari qo'llangan bo'lsa, XIX asrning 2-yarmiga kelib O'rta Osiyoni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'zbek tiliga anchagina rus va rus tili orqali internatsional' so'zlar kirib keldi.

Savol va topshiriqlar.

1. XVII-XIX asrlardagi ijtimoiy siyosiy ahvol nimadan iborat edi?

2 XVII-XIX asrlarda yaratilgan adabiy manbalarda Alisher Navoiy ak'anasining davom etirilishini nimalarda ko'rish mumkin?

3. Bu davrning dialektal murakkabligi nimalardan iborat?

4. Bu davr adabiy tiyaining demokratlashuvi, so'z o'zlashtirishning yangi bosqichi haqida gapirib bering.

5. Ijodkorlar asarlarining til xususiyatlarida nimalarni ko'rish mumkin?

1. Umummilliy tilni yaratish yaratish sohasidagi urinishlar: panturkizm, panislomizm deganda nimani tushunasiz?

2. Bu davr ijodkorlari asarlarini sanab ko'rsating va til xususiyatlari, uslublari haqida gapiring.

Tayanch tushunchalar.

Panislomizm - XIX asrning ikkinchi yarmida yaqin SHarkda paydo bo'ldi va musulmon mehnatkashlarining sinfiy kurashini so'ndirish maqsadida islom dinidagi barcha xalqlarni bir davlat qilib birlashtirishni targ'ib qilib kelgan reaksion diniy-siyosiy oqim bo'lib, Panislamizm g'oyalari SHarq mamalakatlaridagi reaksion feodallar hamda yuqori tabaqa musulmon ruhoniylarining manfaatlariga xizmat qiladi.

Panturkizm - XX asr boshlarida paydo bo'lgan va turkiy tillarda gaplashuvchi barcha xalqlarni Turkiya hukmronligiga bo'ysindirish, yagona turk davlatiga birlashtirish ideyasini targ'ib qiluvchi reaksion shovinistik oqim.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O‘qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв..-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоков Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.

13-MAVZU

XX asr boshlarida o`zbek tili leksikasi, grammatikasi va funksional uslublarida bo`lgan o`zgarishlar, yangiliklar

Reja:

1. Milliy til haqida tushuncha.
2. Milliy til shaklida Hamza Haqimzoda Niyoziy asarlarining tili.
3. 1920-yillar o`zbek adabiyotida imlo qoidalar.
4. «CHig`atoy gurungi» tashkiloti, tayanch dialekti masalasi.
5. 1930-yillar o`zbek adabiyotida rus tilining qo`llanishi.
6. 1920-30 yillarda o`zbek adabiyotini o`rgatishda ijodkorlar asarining ahamiyati.

O`zbek milliy tili hozirgi o`zbek millatiga mansub bo`lgan hamma kishilarning umumiy va yagona tilidir. Bu til o`zbek xalqlning o`zaro aloqa va fikr almashuv quroli, shu xalqning hamma a`zolari uchun umumiy bo`lgan tildir.

O`zbek milliy tilining shakllanishi o`zbek millatining shakllanish protsessi bilan bog`likdir. O`zbek millati shakllanganiga qadar u urug` tili va elat tili tarzida yashab, rivojlanib kelgan. Ma`lumki, ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi bilan birga millatlar ham tashkil topa boshlaydi. Ana shu millatlarning tashkil topishida uning asosiy elementi bo`lgan til birligi - milliy til xam yuzaga keladi. O`zbek milliy tili XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida shakllana boshladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilining boyishi, rivojlanishi va mukammallashuvida eski o`zbek adabiy tili an`analari, halq, tili, mahalliy dialektlar va xalq shevalarining materiallari bilan bir qatordagi tilning ta`siri ham kuchli bo`ldi.

YUqorida bayon qilinganlarga ko`ra, o`zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti katta uch davrni tashkil etadi: qadimgi turkiy adabiy til, eski o`zbek adabiy tili va hozirgi o`zbek adabiy tili. Bularning har biri yagona umumxalq o`zbek tilining asosiy va eng muhim taraqqiyot bosqichlarini o`zida aks ettirdi. Har bir davrning adabiy tili ish ko`rish doirasi, fonetik, leksik hamda grammatik qurilishi jihatdan o`ziga xos bo`lgan xususiyatlari bilan farq qiladi. O`zbek adabiy tili birinchi va ikkinchi davrlarda xalq tili sifatida ish ko`rgan bo`lsa, uchinchi davrga kelib, milliy til sifatida ish ko`rayotir. Hozirgi kunda uning ish ko`rish doirasi nihoyatda kengaygan, lug`at sostavi beqiyos darajada boyigan, grammatik qurilishi mukammalashgandadir.

O`zbek tilining ichki resurslari asosida yangi so`zlar yaratiladi. Bunday so`zlar strukturasiga ko`ra sodda yoki qo`shma bo`lib, hayotning barcha sohalariga oid tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, faqat xarbiy ish sohasidagina jangchi, kuzatuvchi, o`qlovchi, mo`ljalchi, quroldosh, xaloskor, hujumkor, simto`siq kabi qator yangi so`zlar paydo bo`ldi. Bulardan tashqari, *-v(-ov)*, *-chi*, *-chilik*, *-shunoslik*, *-kor* kabi affikslar vositasida yasalgan so`zlar ham hisobga olinsa, o`zbek tili leksikasining sovet davrida qanchalik boyiganligini aniq tasavvur qilish mumkin.

Bu o`rinda shuni alohida qayd etish kerakki, jonli tilda oddiy tushunchalarni ifoda qiluvchi minglab so`zlar asta-sekin terminlik vazifasini bajara boshladi. Masalan, matematikaga oid to`rtburchak, qo`shish, ayirish, bo`lish;

tilshunoslikka oid ega, ot, gap, sifat, ravish, qo`shimcha, yordamchi so`z, bog`lovchi, aniqlovchi, o`zak; geografiyaga oid burun, qo`ltiq va boshqalar shunday so`zlar jumlasiga kiradi.

O`zbek adabiy tilining so`z yasash imkoniyatlari ham kengaydi. Familiya yasovi -ov, -ova, --ev, -eva affikslari o`zlashtirildi. Ismi-sharifi esa ota ismidan yoki familiyaga asos bo`lgan nomdan erlar uchun -ovich (*evich*), ayollar uchun -ovna (*evna*) affikslarini qo`shishi bilan yasaladi: *Rustamov Yo`ldosh Mahmudovich, Aliev erkin Rustamovich, Karimova Zulfiya Sultonovna, SHodieva Manzura SHodieвна* kabi.

Ruscha va internatsional so`zlarga o`zbekcha -la, -lash, -lashtir kabi affikslarni qo`shib yangi so`z yasash usuli yuzaga keladi: *rejalashtirish, sintezla, faollashtirish* kabi. O`zbek adabiy tilda rus tili ta`sirida qisqartirish yo`li bilan so`z yasash usuli vujudga keldi. TDPU (Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AQSH (Amerika Qo`shma SHtatlari).

O`zbek adabiy tilida yuz bergan o`zgarishlar uning grammatikasida ham ko`zga tashlanadi. Bu o`rinda, eng avval, uning normalasha borganligini, ayrim tipologik siljishlar yuz berayotganligini ko`rsatish kerak bo`ladi.

Uning morfologiyasida ko`plik affiksining funktsiyasi kengaydi. Xususan, birikma holdagi atamalarning birinchi komponenti keyin kelib, yangi so`z-terminlar yasashda aktiv ishtirok qilmoqda: Bolalar bog`chasi. Jins tushunchasini ifoda qilish bir qolipga tushirildi: Zulfiya Hoshimovna Valieva. egalik affikslari normaga tushdi, kelishiklarning funktsiyasi kengaydi, har bir kelishik ma`no va funktsiyalari formalari jihatidan qat`iy ravishda ajaralib normaga tushdi. Kelishikli konstruksiyalar o`rnida ko`makchili konstruksiyalarning qo`llanishi keng tus ola boshladi: O`qishingni gapirmaysanmi? Hozirgi zamon fe`l formasi (-*yapti*) ning adabiy tilimizdagi ma`no va funktsiyasi kengayib borib, barcha dialekt va sheva vakillari, ziyolilarimiz nutqida ancha o`zlashib koldi.

O`zbek milliy tili ko`p dialektli tillardan hisoblanadi. Bu hol uning o`ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o`zbek millatining o`tmishdagi xilma-

xil etnik sostavi bilan izohlanadi.

O'zbek milliy tilining uchta katga ichki manbai - uchta dialektlar gruppasi bor. Bular: 1) qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g'uz lahjasi.

Bularning har biri o'z navbatida bir qancha dialekt va shevalarga bo'linadi.

O'zbek tilining dialekt va shevalari uzoq o'tmishda o'zbek xalqining tarixiy sharoiti bilan bog'liq ravishda o'zaro umumiylik kasb etib, yagona o'zbek umumiy xalq tili bo'lib, birika borgan va uning ajralmas qismiga hamda kuyi formasiga aylanib qolgan. Lekin o'zbek tilining lahjalari va ayrim shevalari orasidagi ko'pgana farqlar hozirgi vaqtgacha ham saqlanib kelmoqda. Masalan, o'zbek tilining qipchoq shevalarida singarmonizm xususiyatining to'liq saqlanib qolganligi, 9 ta unli fonemaning mavjudligi, so'z boshida ko'pincha *y* tovushi o'rnida *j* tovushining qo'llanishi, *f* tovushining deyarli qo'llanmasligi, *x* tovushining ko'pchilik shevalarda *q* tarzida qo'llanishi, so'z o'rtasi va oxirida *g* tovushining ko'pincha *v* tovushiga o'tishi, ba'zi hollarda so'z oxirida *g*, *q*, *k* tovushlarining tushib qolishi, ba'zan esa *o* tovushining *a* sifatida aytilishi (*jay*, *chay*, *chach kabi*), ba'zan *l* tovushining so'z o'rtasida tushib qolishi (*bo'sa*, *kesa*, *osa*) boshqa hollarda *o* yoki *a* tovushining *i* tovushi bilan almashinishi (masalan: *qani* > *qana*, *bordimi* > *bordima* kabi) morfologik jihatdan qaraganda oltita kelishik qo'shimchasining to'liq saqlanganligi ikki shaxs o'tgan zamon fe'lida oddiy va hurmat formalarining to'liq saqlanib qolganligi o'tgan zamon fe'lining uchinchi shaxs ko'plik formasi (o'qiydilar)ning deyarli ishlatilmasligi; leksik tomondan qaraganda qipchoq shevalarida: *checha* (yanga), *bo'la* (xolavachcha), *jelak* (Xotin-qizlarning boshiga yopinadigan buyumi) singari ko'plab o'ziga xos qadimiy so'z va terminlarning saqlanib qolganligi yuqorida aytilgan fikrlarni tasdiklaydi.

O'zbek adabiy tilining lahjalari orasida, odatda, qorluq-chigil lahjasi hamda unga qarashli bo'lgan ayrim sheva va dialektlar o'zbek adabiy tilining tayanch sheva va dialektlari hisoblanadi. Bunda ularning talaffuz normalarini belgilashdagi roli, ko'pgina terminlarning ularda ilgaridan shakllanganligi, bu sheva vakillarining ko'p jihatdan milliy madaniyat va leksik an'analarimizni boshqarishda o'zlariga xos

xizmatlari borligi asosga olingan. Baʼzi olimlar oʻzbek adabiy tilining normalarini belgilashda Toshkent shevasini fonetik jihatdan, Andijon, Fargʻona shevalarini esa morfologik jihatdan tayanch sheva hisoblaydilar.

Toshkent shevasi poytaxt shahar shevasi sifatida leksik tomondan ham oʻzining koʻpgina elementlarini adabiy tilga kiritgan va kiritmoqda. Lekin aslida A.K.Borovkov qayd etib oʻtganidek, oʻzbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos boʻlgan deb aytib boʻlmaydi. Chunki oʻzbek tilining hamma dialekt va shevalarini adabiy til taraqqiyotiga maʼlum bir hissa qoʻshgan, ikkinchi tomondan, ularning har birida juda koʻp oʻziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, Andijon, Fargʻona shevalari oʻzbek adabiy tiliga eng koʻp tarqalgan grammatik formalaridan birini - hozirgi zamon feʼlining *-yap* affiksi vositasida yasaluvchi formasini bergan. Bundan tashqari, Andijon va Fargʻona shevalari oʻzbek adabiy tilining asosiy talaffuz bazasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu shevalarning adabiy tilimizga oʻzlarining fonetik xususiyatlari bilan ham maksimal darajada yaqinlashuvi shu bilan izohlanadi. Bu shevalar oʻzbek adabiy tiliga oʻzlarining leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa til vositalari bilan ham hissa qoʻshgan.

SHunisi xarakterliki, bir qarashda oʻzbek adabiy tilidan birmuncha uzoqroq turgandek koʻringan qipchoq shevalari xam oʻzbek adabiy tiliga juda koʻp leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa grammatik vositalari bilan hissa qoʻshgan. Masalan, oʻzbek adabiy tilidagi qaratqich kelishigining toʻliq formasi qipchoq shevalaridai qabul qilingan. Adabiy tilimizdagi hozirgi zamon feʼlining *-yotir* affiksi vositasida yasaluvchi formasi ham qipchoq va oʻgʻuz dialektlariga xos formadir va hokazo.

HAMZA HAQIMZODA NIYOZIY ASARLARI TILI

Oʻzbek madaniyatining atoqli arbobi Hamza Haqimzoda Niyoziy chuqur ijtimoiy mazmun bilan sugʻorilgan asarlar yaratib, XX asrning 30-yillarigacha boʻlgan adabiyotni yangi obrazlar, yangi mavzu va shakllar bilan boyitdi. U adabiyot, sanʼat, xalq maorifi hamda shu davrdagi oʻzbek adabiy tilini rivojlantirish yoʻlida talay ishlar

qildi. Hamza o'z ijodiy faoliyati davomida o'zbek adabiy tilini jonli xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishga intildi, uning ko'pchilikka tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun kurashdi. Lekin uning bu harakatini ayrim kimsalar adabiyotdan xabarsizlik deb bo'xton qildilar. Bunga qarshi Hamza «Qizil gup» to'plamiga yozgan so'z boshida shunday deydi: «... adabiyot ilmidan butun deyarli xabarsiz kishi ekanmi?» deyuvchi zotlarga qarshi biz, bu adabiyotdan xabarsizlik emas, qora elimizning tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun bo'lsa kerak, deymiz... biz o'zbek tiliga yaqinlashtirmoqqa kirishdik».

SHoir 1916-1917 yillarda nashr qilingan «Oq gul», «Qizil gul», «YAshil gul», «Pushti gul», «Safsar gul», «Sariq gul» to'plamlarida shunga amal qilgani holda, xalq qo'shiqlari vazni va kuylarida ajoyib xalqchil she'r namunalarini yaratgan.

Suvlar ketar, tosh qolur,

Kulfat ketar, yosh qolur.

Bobolardan bir so'z bor,

O'sma ketar qosh qolur.

YOki;

Yigit degan er bo'lur,

Mehnat ko'rsa sher bo'lur

singari sodda va ixcham misralar xalq maqollari ta'sirida yozilgan.

SHoirning til va uslub sohasidagi novatorligi shundan iboratki, u o'sha davrda o'zbek xalqi orasida qo'llana boshlagan «ishchi», «mehnatchi», «xizmatchi», ishchi-dehqon», «yangi turmush», «kontrlik» va boshqa ko'pgina yangi so'z, so'z shakllari va iboralarni she'riyatga olib kirdi va ulardan keng foydalandi. SHuningdek, o'zbek tili lug'atida bor so'zlarning ayrimlarini yangi ma'noda ishlatdi, xalq iboralari, maqollar, hikmatli so'zlardan ijodiy foydalangani holda, ulardan zamon ruhini ifodaladi va nihoyat, o'zi ham yangi so'zlar yaratdi.

Hamza adabiyotining asosiy vositasi bo'lgan til soddaligiga ahamiyat berib,

o`zining barcha janrlarda yaratgan asarlarida bunga amal qildi va katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

SHoir she`riyatining leksikasida asosan o`zbekcha (turkcha) so`zlar, tojikcha, arabcha, tatarcha, o`g`uz tillari (shevalari)ga xos unsurlar va dialektizmlar ishlatilganini ko`ramiz. Lekin tojikcha, arabcha so`z va so`z shakllari Hamza she`rlarida zamondosh shoirlarga qaraganda ozroq ishlatilgan. Buning sababi, Hamzaning o`z ta`biri bilan aytganda, asarlari tilini o`zbek avom tiliga yaqinlashtirish, soddalashtirishga intilishdir.

Uning asarlarida ba`zan arabcha va tojikcha so`zlarni o`zbekcha (turkiy) so`z va qo`shimchalar bilan almashtirib ishlatish hollarini ko`ramiz: *hamroh* o`rnida *yo`ldosh*, *beozor* o`rnida *oeorsiz*, *josus* o`rnida *yashurun*, *zo`r* o`rnida *kuch* kabi.

Tatar va o`g`uz tillari (shevalari)ga xos so`z va so`z shakllari shoirning yangi shakl, vaznda she`rlar yaratish yo`lida an`analarga boy tatar va ozarbayjon adabiyoti bilan tanishi, o`rganishi hamda ularga ergashishi jarayonida paydo bo`lgan. Masalan, o`g`uzcha: *yolon-yolg`on*, *sevdigi-sevgilisi*, *o`lursa-o`ldi*, *o`lib*, *kuymisham*, *afandilarimiza*, *nokasa-nokasga*, *ban-men*, *istamish*, *kelmish*, *suzmoqa-suzmokqa*, *qolmoqa-qolmoqqa*, *bilmam-bilmayman*; tatarcha: *o qirin (akirin)-sekin*, *shulay*, *ulay*, *bulay*, *ani*, *qil-kel*, *tug`an*, *qart*; *turam*, *ko`ram*, *qo`rqdm*, *sanami*, *suya ko`r*, *bilalar*, *yozarg`a*, *zo`r* (*zo`r kitob*) va boshqalar uchraydi.

Uning asarlarida anchagina ruscha so`zlar va butil orqali o`zlashgan ruscha-baynalmilal so`zlar uchraydi. Bu so`zlarning ko`pchiligi rus tilidagi shaklida, ayrimlari fonetik jihatdan o`zgargan holda ishlatilgan: *stantsiya*, *poezd*, *vagon*, *belat*, *izvosh*, *semafor*, *starshiy*, *paliska*, *vekseya*, *gostinitsa*, *militsiya*, *odiyal*, *banka*, *gubernator*, *pechat`*, *protes*, *zakon*, *voenn`sh*, *sud*, *papka*, *vintovka*, *oryol* va boshqa shaklda.

Hamza asarlarida dialektizmlar ko`pincha asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni xaqqoniy ko`rsatish uchun, personajlar nutqini xususiylashtirishni nazarda tutib ishlatilgan.

Hamza asarlari tilida uchraydigan dialektizmlarning ko`pchiligi Farg`ona

tipidagi qarluq lahjasiga taalluqli dialektizmlardir (Qo`qon, Marg`ilon, Vodil).

Masalan: *Baqa // baqqa — bu yoqqa, tunov kun - o`tgan kun, ayag` - oyoq, buvi — ona, aya — ona (xola), chimaliq — toshk. go`shanga, vaj - narsa, uzog` yili - o`tgan yili, ozg`urish - yo`ldan urish* va boshqalar.

Hamza dramatik asarlarining til xususiyatlariga diqqat qilinganda, ularning tili badiiy ifodalarga boy, har bir personaj qaysi tabaqaga mansub ekanligiga qarab, o`ziga xos so`zlari bilan gaplashishi, xalq maqollari, hikmatli so`zlari va ixcham frazeologik iboralar juda o`rinli ishlatilgaligi ko`rinadi.

Hamza asarlari til xususiyatlarini hozirgi zamon o`zbek adabiy tili bilan solishtirsak, ayrim fonetik va morfologik farqlarni ko`ramiz.

Fonetik farqlar: 1. e>a: yatim, sanchalik, savgi, ban (men; 2. o//a: dada//doda, bala//bola; Z.i>u: xotun; 4. h>y: iloyim, arvayiga (ilohim, arvohiga); 5. b>m: mundog` - (bunday); 6. h>g`: nag`al (nahal); 7. q>g`: tuyog`, tarog`; 8. So`z o`rtasida bir «r» tushadi: bek (berk).

Morfologik farqlar: 1. Qaratqich kelishigi Hamza asarlarida deyarli uchramaydi, doimo ikkala kelishikda ham *-ni* qo`llanaveradi. Masalan: *yakkaligingni hurmati, ota-onalaringni eslab*. Qaratqich kelishigi *ba`zan -di, -ti, -im* shaklida ham ishlatilgan. *Gapda uchini chiqarib qo`ydi. Bizim yangi turmushimiz.*

2. Jo`nalish kelishigi *-ga, -ka, -qa, -g`a, -a* shaklida qo`llanadi. *Donoga ishorat, lodonga juvolduz, tilakka, Kima, so`ylashga* kabi.

3. CHiqish kelishigi *-dan, -din* shaklida qo`llangan. *Xotin-qizlardan, sendin, nahridin.*

4. Hozirgi-kelasi zamon fe`lining bo`lishsiz shakli *-mi* tarzida uchraydi: *tur+mi+y+man - turmayman.*

5. Ba`zan buyruq-istak maylining 2 shaxs birlik shakli *-gin* o`rnida eski o`zbek tilndagi *-gil (-g`il, -qil, -qil)* shakli ishlatilgan. *eshitgil, turg`il, kelgil, bo`lmagil, o`ldirg`il* kabi.

6. Ravishdoshning *-b (-ib, -ub)* shakliga *-on* affiksi qo`shilishi bilan xosil

bo`lgan *-ibon, -ubon* shakllari uchraydi.

Kelurga kunduzi andisha qilsa shum raqiblardin,

Qilubon asr ila yo shomu xufton bir kelib ketsun;

Vaqtning g`animatin ko`rib, tashladim o`zimni ko`ndalang, Xurkdi
jallodni tortibon, to`xtadi toy topir-tupur.

7. Hamzaning «Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi» asari Farg`ona shevalarida qo`llanadigan qanqimoq — izg`imoq, sanqib yurmoq va qimsinmoq -uyalmoq, tortinmoq fe`llari ham uchragan. Sizning tor ko`chalaringizda shayton qanqiydi; Mening otam u sen aytgan SHodiboy... maski, shaharma-shahar qanqib yursa; Koshki siz bundog` salovorlik, qimsinib o`tiradigan yigitlardan bo`lsangiz. Qiyoslang, Navoiyda:

Uzoringni ocharg`a qimsanurmen,

Vale el ko`rmagiga qizg`anurmen.

8. Jonli tilga xos halizamon (toj. hamin zamon) - hozir, bir ozdan keyin; bot - tez; g`ira-shira - oz, bir oz ravishlari ham ishlatilgan.

Hamza asarlarining (xususan, she`rlarining) sintaksisi sodda bo`lib, unda asosiy o`rinni qisqa, ixcham jumlar egallaydi. Murakkab qo`shma gaplar uning she`rlarida juda kam uchraydi. Murakkab fikrni ifodalash zaruriyati tug`ilib qolganda, Hamza gapni ikki mustaqil qismga bo`lib, bog`lovchisiz qo`shma gap tarzida beradi, she`rlarda esa ikki mustaqil qismga bo`lib yuboradi. Masalan:

O`qisin qizlarimiz,

Ochilsin ko`zlarimiz,

Xizmat qilsin joriyalar,

YAshasin millat. («Pushti gul», 1916).

Bu to`rt misrali bandda qisqa, ixcham, bosh bo`laklardan iborat to`rtta mustaqil sodda gap bor. Bu she`riy parchaga diqqat bilan qarasak, u serhasham

sifatlashlarni ishlatmagani, doim fikriy aniqlikka intilgani, jonli soʻzlashuv tilining tuganmas manbalaridan ijodiy oziqlangani yaqqol koʻrinadi.

Hamzaning mohir soʻz sanʼatkori sifatida oʻzbek adabiy tilining rivojlanishiga qoʻshgan katta ulushi quyidagilardan iborat:

1. Hamza ijodining ilk davri (1905-1917 yillar)da anʼanaga koʻra davom etib kelayotgan eski oʻzbek adabiy tili jonli soʻzlashuv tilidan anchagina uzoqlashib qolgan edi. Hamza oʻzining deyarli hamma asarlarini jonli soʻzlashuv tili (markaziy shaxar shevalari) negizida yozib, shakllanayotgan oʻzbek milliy-adabiy tilini shu asosda boyitdi.

2. Bu davr matbuot tili «Umumturk tili» nomi bilan ataluvchi turkizm, tatarizm, arabizm va rusizm unsurlari bilan toʻlib-toshgan qurama adabiy til boʻlgan. Hamza bunga qarshi oʻz asarlarida xalq ogʻzaki ijodi xazinalaridan ijodiy foydalangan holda, asarlarining tilini «Elimizning tushunuviga oʻngʻay boʻlsin uchun», uni jonli soʻzlashuv tiliga yaqinlashtirdi va katta muvaffaqiyat qozondi.

3. Oʻzbek tiliga kirib kelgan yangi soʻz, soʻz shakllari va atamalarni badiiy adabiyotga olib kirdi, ularni keng koʻlamda qoʻlladi, oʻzi ham yangi soʻzlar yaratdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbek xalqi adabiy tili taraqqiyotining soʻnggi davriga tavsif bering:

a) XIX asrning 60-yillaridan 1905 yillargacha boʻlgan adabiyoti;

b) 1905 yilshahar inqilobgacha boʻlgan davrga tavsif;

2. Bu davr oʻzbek xalq adabiy tilining boyish manbalari nimalardan iborat, misollar orqali izohlang.

3. Bu davr oʻzbek adabiy tiliga qaysi uslublar kirib keldi?

4. Umummilliy tilni yaratish yaratish sohasidagi urinishlar: panturkizm, panislomizm deganda nimani tushunasiz?

5. Bu davr ijodkorlari asarlarini sanab koʻrsating va til xususiyatlari, uslublari haqida gapiring.

Tayanch tushunchalar:

O'zbek tili tarixi - o'zbek tilining turkiy tillardan ajralib mustaqil taraqqiy etishini yoritadigan fan.

Qadimgi turkiy til - barcha turkiy qavmlar uchun mushtarak sanalgan turk runiy yozma yodgorliklari, ularning fonetik, leksik va morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganuvchi fan.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasi - o'zbek tilining fonetik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik tizimining o'rganuvchi o'zbek tili tarixining uzviy qismi.

O'zbek adabiy tili tarixi - o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini, normalari tarixini o'rganadigan o'zbek tili tarixining uzviy qismi.

O'zbek adabiy tili tarixi fanining manbalari - buyuk so'z ustalari tomonidan yaratilgan adabiy yodgorliklardir.

Adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
- Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O'qituvchi, 2008.
- Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л., 1980.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
- Исхоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. - Т.: Ўқитувчи, 1995.
- Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995.